

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

*Qo'lyozma huquqida*  
*UDK 42:494.3*

**Vafoyeva Mavluda Rustamovna**

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EMOTSIONAL DEYKISISNING  
IFODALANISHI**

**(ingliz va o'zbek badiiy matnlari asosida)**

**5A220102 – Filologiya (ingliz tili)**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertasiya**

**Ilmiy rahbar: Ro'ziyev X.J.  
Ilmiy maslahatchi: f.f.n. Usmanov F.M.**

**Samarqand-2013**

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. Deyksis va uning tadqiqot obyekti.....</b>	<b>8</b>
1.1. Deyksis – tadqiqot obyekti sifatida.....	8
1.2. Deyksis – pragmatik vosita.....	17
1.3. Deyksis va uning namoyon bo`lish shakllari.....	21
<b>I bob yuzasidan xulosalar.....</b>	<b>40</b>
<b>II bob. Emotsionallik – pragmatik jarayon.....</b>	<b>41</b>
2.1. Emotsionallik kategoriyasi lingvistikaning tadqiqot obyekti sifatida..	41
2.2. Ingliz tilida emotsionallikning ifodalanishiga doir.....	49
2.3. O`zbek tilida emotsionallikning ifodalanishiga doir.....	54
<b>II bob yuzasidan xulosalar.....</b>	<b>63</b>
<b>III bob. Badiiy matnda emotsionallik deyksisi.....</b>	<b>64</b>
3.1. Ingliz va o`zbek badiiy matnida emosional deyksisning ifodalanishi..	64
3.2. Badiiy matnda emotsionallik va uni ifodalash vositalari.....	70
<b>III bob yuzasidan xulosa.....</b>	<b>74</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>75</b>
<b>Adabiyotlar ro`yxati.....</b>	<b>80</b>
<b>Internet manbalari.....</b>	<b>85</b>
<b>Badiiy adabiyotlar ro`yxati.....</b>	<b>86</b>

## KIRISH

Zotan, prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek “Yuksak marralarni ko`zlagan har qanday millat, xalq uchun ta`limni rivojlantirish hayot va mamot masalasi” [1]. Shunday ekan xorijiy tillar, tilshunoslik sohasida olib borilayotgan hamda endi olib boriladigan izlanish va yutuqlarga alohida e`tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. Vaholanki, yurtboshimizning 2012 yil 10-dekabrda “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to`g`risida”gi qarori [2] mamlakatimizdagi barcha yoshlarni chet tillarni, ayniqsa ingliz tilini o`rganishga bo`lgan qiziqishlarini oshirib yubordi, ilmiy xodimlar uchun esa xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tilshunosligidagi muammolar dolzarb mavzularga aylandi.

Tilshunoslik sohasida tinimsiz olib borilayotgan ilmiy izlanishlar pragmatolingvistikaning rivojiga o`z ta`sirini o`tkazmasdan qolmaydi, albatta. Matn lingvistikasi bilan bog`liq bo`lgan ushbu sohada ko`pgina ishlar amalga oshirildi. Ulardan biri esa deysis hodisasining o`rganilishidir. Shunday ekan, eng avvalo, tadqiqot ishimizning asosini tashkil etuvchi deysis hodisasining qisqacha o`rganilish tarixi va mohiyati borasida to`xtalib o`tishni lozim topdik.

Deysis tushunchasi qadimgi antik davrlardan mavjud bo`lib, uning o`rganilishi grammatikaning alohida bir sohasi sifatida bo`lmagan. XX-asrning 2-yarmidan boshlab deysis hodisalar tilshunoslikning barcha sohalarida ishtirok etuvchi kategoriya sifatida o`rganila boshlandi. Nemis olimi K.Brugmannning deysis hodisalarga alohida bergan urg`usi hozirgi davr tilshunosligida bu sohaning atroficha o`rganilishiga sabab bo`ldi. Brugmann ishlariga asoslanib mashhur nemis psixolog va tilshunosi Byuler 1934 yilda yozgan "Til nazariyasi" kitobida deysis borasidagi izlanishlariga asosiy o`rinni bergan. Byuler birinchilardan bo`lib deysisning asosiy turlaridan bo`lmish makon va zamonga bo`lgan ishora so`zlar haqida alohida to`xtalib, asosi ma`noning deysis so`zga ko`chishi deb tasvirladi. Deysislarni semantik jihatdan o`rganish esa Charlz Pirs nomi bilan bog`lanadi. U 1940 yilda qilgan

ishlarida ko`rsatish olmoshlarini narsa va obyekt o`rtasidagi tog`ridan-to`g`ri bog`liqlikni amalga oshiruvchi indeksal belgilar deb atashni taklif qiladi. O.Yespersion esa deyxislarni shifterlarning bir ko`rinishi deb hisoblaydi. Ya`ni shifterlar deganda u "o`rin bosuvchi" larni nazarda tutadi. Masalan, "Men" olmoshini kontekstdan xoli ravishda izohlab bo`lmaydi. Faqatgina "Men" adresat so`zlovchini, voqelikning qachon va qayerda bo`lib o`tganligini bilgan holatdagina ma`lum bo`ladi. Keyinchalik Peshkovskiy, Benvenist, Yakobsonlar ham deyxis borasidagi o`z nuqtai nazarlari bilan e`tiborni qozonadilar. Oxirgi paytlarda esa deyxislarni o`rganish dunyo tillari bo`yicha empirik jihatdan o`rganilmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda esa qiyosiy tipologik jihatdan deyktik kategoriyalarni o`rganish keng tarqalgan. Ayni paytda tilshunoslikda deyxis tushunchasi, unung turlari va deyktik so`zlar darajalari haqida ko`pgina xorij tilshunoslari bilan bir qatorda o`zbek tilshunoslari jumladan, SamDCHTda ta`lim beruvchi prof. Sh.Safarov, f.f.n. A.Shermatov kabi tilshunoslarimiz ham ilmiy tadqiqot ishlarida diqqatga sazovor fikrlari bilan tilshunoslik nazariyasiga o`z hissalarini qo`shmoqdalar. Ushbu tilshunos olimlarning fikrlariga asoslanib, biz, ilmiy tadqiqot ishimizning asosiy qismida deyxis borasida batafsilroq ma`lumot berib, ikki til, ya`ni o`zbek va ingliz tillarida emotsionallikni ifodalovchi deyktik vositalarning ifodalanishiga e`tibor qaratamiz.

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki, zamonaviy tilshunoslik tadqiqot obyektlaridan biri bo`lmish pragmalingsvistikaning tahlilida birinchilardan bo`lib deyxis hodisasi va deyktik birliklar ko`zga ko`rinadi. Deyktik birliklarning mohiyati, ularning til tizimida tutgan o`rni va deyxis turlari haqida oydinliklar kiritilgan bo`lsada, tilshunos olimlarimiz, asosan, deyxisning uch – makon, zamon va shaxs turlariga kelib to`xtaladilar. Sotsial, diskurs deyxislari bilan bir qatorda emotsionallik deyxisi borasida ilmiy qarashlar mavjud bo`lsada, yaxlit va yagona bir fikrga asoslanmagan. Demak, emotsionallik hodisasi va uning til birliklari vositasida ifodalanish hodisani ikki qardosh bo`lmagan til vositasida o`rganib chiqish

muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tadqiqot ishining asosiy qismi emotsional deyxsisning ifodalanishiga qaratilgandir.

**Tadqiqot ishining obyekt va predmeti.** Tadqiqot ishining obyekt ingliz va o`zbek badiiy matni hisoblansa, uning predmeti deyktik xususiyatlardir.

**Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari.** Tadqiqot ishini olib borishda deyxsislarning til tizimida tutgan o`rni, ya`ni ularning til birligi sifatida qabul qilinishi, deyxsislar nafaqat shaxs, zamon va makonga ishora, balki boshqa turlarga ham ega ekanligi kabi hodisalarni o`rganib, ularga aniqliklar kiritish masalalari maqsad qilib qo`yildi.

Bu maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozimligi aniqlandi:

1. Tilshunos olimlarimizning deyxsis borasida aytgan fikrlarini jamlash va ularga asoslanib umumiy xulosaga kelish;
2. Deyksisning har bir an`anaviy va zamonaviy turlarini aniqlab, ularning farqli jihatlarini ko`rsatish;
3. Emotsionallik va uning alohida deyxsis turi sifatida olinishini tahlil qilish;
4. Ingliz va o`zbek tillarida keltirilgan misollarni qaysi yo`l va deyktik vosita yordamida ifodalanishini aniqlash;
5. Bu ikki qardosh bo`lmagan til vositasida emotsional deyxsisning ifodalanishini qiyosiy tipologik jihatdan o`rganib chiqish.

**Tadqiqot metodlari.** Ilmiy tadqiqot ishini olib borishda oldinga qo`yilgan maqsadga erishish, keltirilgan vazifalarni bajarish uchun tilshunoslik sohasida keng qo`llanadigan bir necha metodlardan foydalanildi. Tilshunos olimlarimizning turli nuqtai nazarlariga asoslangan fikrlarni umumlashtirish maqsadida deduktsiya metodidan, ingliz va o`zbek badiiy matnidan mavzuga doir misollarni jamlash, ularni tahlil qilish hamda turkumlashtirishda statik va kontekstual tahlil metodi va shuningdek, turkumlashtirilgan misol va ma`lumotlarni ikki til vositasida o`rganishda qiyosiy metoddan foydalanildi.

**Tadqiqot manbalari.** Qo`yilgan vazifalarni bajarishda bir qancha manbalardan foydalanildi. Bular pragmalingvistikaga bag`ishlangan ilmiy

asarlar, tilshunoslikka doir ilmiy to`plamlar, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari hamda ingliz va o`zbek badiiy asarlaridir.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining nazariy ahamiyati shundaki, tilshunoslikda emotsional deysis sifatida har qanday hissiyotni ifodalovchi gaplar ham o`rganmasdan, ma`lum bir emotsionallikka ishora qiluvchi deysitik vositaga ega bo`lgan til birliklarini o`rganishdan iborat. Shuningdek, ayni paytgacha o`zbek tilshunosligida deysis borasidagi ilmiy ishlar sanoqsiz bo`lsada, aynan emotsional deysisga bag`ishlangan va uning mohiyatini ochib beruvchi ishlar deyarli ko`zga ko`rinmaydi. Shunday ekan, pragmalingsvistika bilan bog`liq bo`lgan kurslarda bevosita tadqiqot ishimizga tayangan holda ma`lumot olish imkoniyati tug`iladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Ilmiy ishda emotsionallikka ishora qiluvchi deysitik birliklarning ingliz va o`zbek tillarida ifodalanishini qiyosiy jihatdan o`rganib, ushbu tillarda emotsionallikni ifodalashda xizmat qiladigan deysitik vositalarni aniqlashimiz tadqiqotning ilmiy yangiligi hisoblanadi.

**Himoyaga chiqariladigan mulohazalar.** Ushbu magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar mulohazasi, shuningdek institut ilmiy xodimlaridan birining ichki taqrizi hamda boshqa oliy ta`lim muassasasi ilmiy xodimi tomonidan berilgan tashqi taqrizlarga muvofiq tarzda himoyaga chiqarishga ruxsat berildi.

**Dissertatsiya ishining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya mavzusiga asoslangan holda institut ilmiy to`plamlarida “Ingliz badiiy matnida to`ldiruvchi deysisining semantikasi” hamda “Ingliz badiiy matnida emotsional deysisning ifodalanishi” mavzularida ilmiy maqolalar chiqarildi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Magistrlik dissertatsiyasi uch bob va bu boblar ham uch ichki qismlardan tashkil topgandir.

Birinchi bobda deysisning umumiy talqini, uning til tizimida tutgan o`rni, uning pragmalingsvistikaning obyeksi sifatida o`rganilishiga urg`u berildi.

Ishning ikkinchi bobida emotsionallik pragmatolingvistikaning obyekt sifatida o`rganilib, ingliz va o`zbek tillarida emotsionallikning ifodalanish vositalariga qaratildi.

Uchinchi bob esa ingliz va o`zbek badiiy matnida keltirilgan misollar yordamida bu ikki tilda emotsionallikning ifodalanishi qiyosiy-tipologik jihatdan o`rganildi. Shuningdek, disseratsiya kirish qismi bilan boshlanib, har bir bob oxirida qisqacha xulosa, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iboratdir. Ishning umumiy hajmi 86 betni tashkil etadi.

## I BOB. DEYKSIS VA UNING TADQIQOT OBYEKTI

### 1.1. Deyksis – tadqiqot obyektida sifatida

Deyksisning o`rganila boshlangan davri va tilshunoslarimiz tomonidan turli atamalar vositasida bu tushunchasining berilishi kabi masalalar ishimizning kirish qismida ko`rsatib o`tildi. Endi esa, deyksisning umumiy mohiyati, uning tilshunoslik nazariyasida o`rganilish darajasi, shuningdek, uning til tizimida tutgan o`rniga batafsil to`xtalgan holda deyksisni pragmalingvistikaning obyektida o`rganamiz.

Umuman olganda, deyksis atamasi grekcha so`zdan olingan bo`lib, “ishora”, “ko`rsatish” degan ma`nolarni bildiradi. Deyksislar til birliklarining ma`no yoki vazifasini ko`rsatishiga qarab leksik yoki grammatik bo`lishi mumkin. Ular quyidagilarni ifodalab kelishi mumkin: nutq faoliyatining ishtirokchilariga ishora (men, sen, mening, sening), aytilayotgan hodisaning nutq jarayoniga nisbatan uzoq- yaqinligiga ishora – asosan ko`rsatish olmoshlari va ravishlari bilan ifodalanadi (u, bu, o`sha, ana u), hodisa sodir bo`layotgan zamon va makonga nisbatan ishora (bugun, kecha, u yerda, bu yerda, shu yerda) [76,32].

Deyksis tushunchasi borasida tilshunos olimlarimiz turlicha ta`riflar keltiradilar. Deyksislar tilning “kim”, “qachon”, “qayer”ini ko`rsatuvchi shakllar hisoblanadi [50,8]. Ular so`zlovchining zamon va makonga nisbatan joylashuvini belgilaydi [58,6] va shunga o`xshash bildirilgan juda ko`p fikrlarning guvohi bo`lganmiz. Lekin barcha deyksis turlarini o`z ichiga qamrab oluvchi ta`rifni keltirish uchun alohida to`xtalishga to`g`ri keladi. Deyksislar makro lingvistikaning mahsuli bo`lib, matn ichidagi ma`lum bir birlikka, ibora va hattoki katta bir abzatsni ta`kidlovchi ishora so`zlar hisoblanadi. Deyksislar, bir tomondan, matn mazmundorligini oshirsa, ikkinchi tomondan nutqni yengillashtirish, g`alizlikka yo`l qo`ymaslik maqsadida ishlatilishi mumkin.

Ma`lumki til insoniyat tomonian atrofda sodir bo`ladigan voqea hodisalar haqidagi tasavvurlarini namoyon etishi, inson zotining ichki kechinmalarini

atrofdagilariga ma`lum qilishi, o`zaro axborot almashish vositasi sifatida yaratilgan va uning ichki hamda tashqi qonuniyatlariga mos ravishda takomillashib boradi. Til tizimi qator hodisalarni bayon qilishga xizmat qilar ekan, faqatgina ularning yuzma-yuz muloqot sharoitida shakllanishi inobatga olingandagina tavsiflash mumkin. Til esa muloqot jarayoni bilan bir vaqtda sodir bo`ladigan voqea-hodisalarni ifodalash bilan cheklanib qolmaydi. Zero tilning asosiy vazifalaridan biri insoniyat paydo bo`lishining ilk kunlaridan boshlab hozirgacha bo`lgan davrlar haqidagi ma`lumotlarni kelajak avlodga yetkazib turishdir. Albatta, bu hodisalar muloqot jarayoni bilan bir paytda sodir bo`lmaydi va yetarli darajada aniqlikka ham asoslanmagan bo`ladi. Shuni hisobga olgan holda til tizimini deysis hodisasidan xoli ravishda tasavvur eta olmaymiz.

Shuni ham aytib o`tish joizki, ba`zi tilshunos-olimlar deysisning til birligi sifatida tutgan o`rnini rad etadilar. Ya`ni turli tuman narsa predmetlar, voqea hodisalar va ular sodir bo`layotgan zamon va makonga nisbatan ma`lum bir deyktik so`z turli vaziyatlarda ishlatilib turli ma`nolarni ifodalaydi. Deyksislar shunchaki o`z ma`nosiga ega bo`lmagan, vaziyatga qarab boshqa voqea hodisalarning niqobida keladigan (masalan, birgina “u” olmoshi kontekstga qarab qanchadan qancha shaxs yoki narsa-predmetni ifodalab kelishi) ishora so`zlar, deb hisoblaydilar. Lekin tildagi birliklardan foydalanish jarayonida kishi qulayliklar yaratishga intiladi, ya`ni voqea-hodisalarni bayon qilishda vaziyatga qarab oson va deyktik so`z va iboralardan foydalanadi. Deyktik so`zlar ma`lum darajada mavhumlikka asoslanadi. Chunki ular aniq bir voqelikning o`zini to`gridan-to`g`ri atamasdan ularga ishora qiladigan so`zlar yordamida ifodalaydilar. Bunga sabab esa so`zlovchining bildirayotgan fikri haqida etarlicha aniq ma`lumotga ega bo`lmaganligi yoki adresatga deyktik so`z yordamida aytilayotgan fikrning oldindan ma`lumligi hisoblanadi. Bu borada tilshunos olim Sh.Safarovning “Pragmalingvistika” asarida keltirilgan ushbu fikr muhim ahamiyat kasb etadi: “Deyktik iboralar bolalar nutqi rivojining dastlabki bosqichlaridayoq paydo bo`ladi. Psixolingvistlarning kuzatishlari

guvohlik berishicha, 3-7 yoshdagi bolalar nutqi, birinchidan egotsentrik bo`lsa, ikkinchidan, telegraf uslubida, ya`ni “grammatikasiz” tartibda yuzaga keladi. Shu sababli bo`lsa kerakki, go`daklar grammatik shakllardan ko`ra “*men*”, “*sen*”, “*u yerda*”, “*mana*”, “*bu*”, “*hozir*”, “*keyin*” kabi iboralarni ma`qul ko`radilar. Bunday iboralarning lisoniy qobiliyat shakllanishining dastlabki bosqichlarida paydo bo`lishiga yana bir sababni ushbu iboralarning ma`no xususiyatlari bilan bog`liq deb hisoblash tarafdoridir. Ma`lumki, deyktik belgilarning ma`no xususiyatlari boshqa nominativ belgilarnikidan tubdan farq qiladi. Ular voqelikdagi predmet-hodisalarni bevosita atamasdan, balki predmet, hodisa, shaxslarning nutq vaziyatiga nisbatan “joylashuvi”ni ko`rsatadi. Bunday ko`rsatish muloqot ishtirokchilari (so`zlovchi va tinglovchi) predmet va shaxslarning egallagan o`rni (bu o`rin nutq sub`yektlariga nisbatan belgilanadi) hamda muloqot kechayotgan vaqt kabilarni qamrab oladi. Shu xususiyatlariga binoan deyktik iboralar bilvosita ma`noga ega lisoniy belgilar sifatida qaraladilar. Go`daklar talaffuz qiladigan so`zlar ham, odatda, bevosita referentga ega emas, ular vositasida aniq predmet yoki hodisa nomlanmaydi. Go`dak yagona bir so`z bilan butun bir kechayotgan hodisani yoki hodisalar qatorini ifodalashga qodir [62,155].

Isroillik professor Yehousha Bar-hillel muloqot faoliyatida makon va zamon hodisalarining muhimligini alohida ta`kidlab o`tadi. Har bir voqea ma`lum makon va zamonda kechadi hamda u yoki bu hodisa haqidagi axborotni qabul qilayotgan tinglovchi uning qachon, qayerda bo`layotganini bilishga intiladi. Bundan tashqari axborotning to`liq idroki uchun, har qanday faoliyat ma`lum shaxs (shaxslar) tomonidan bajarilishi sababli, ushbu faoliyat amalining subyekt haqidagi ma`lumot ham talab qilinadi. Demak “*qachon*” va “*qayerda*” savollari “*kim*” savolining hamrohligida nutqiy tuzilma mundarijasini belgilaydi [5, 79]. Bu jarayonni Sh.Safarovning “Pragmalingvistika” asarida keltirilgan misol yordamida yanada aniqroq tushunish mumkin.

Ideal lisoniy faoliyat nutqiy tuzilmalar tarkibida aynan shu savollarga javob beruvchi birliklarning to`liq tartibda mavjud bo`lishini taqozo etadi.

Masalan, “15 avgust 2007 yil soat 17<sup>00</sup> da CH 5050 raqamli “Neksiya” rusumli va CH 3737 raqamidagi “Damas” rusumli avtomashinalar Bo`stonsaroy ko`chasida to`qnashganlar” turidagi gapning mazmuni aniq, chunki sodir bo`lgan voqea haqidagi ma`lumot anchagina batafsil: “qachon”, “qayerda”, “kim”, yoki “nima” savollariga javob bor. I shu gapni boshqacha shaklda ham tuzish mumkin: “Kecha kechqurun shu yerda o`sha ikki mashina to`qnashgan”. Ammo bu ikki tuzilma mazmun mundarijasi jihatidan teng emas va shu sababli keying gapda ifodalanayotgan ma`lumot DAN xodimlarini qoniqtirmasa kerak [62, 151].

Keyingi gapdagi “kecha”, “kechqurun”, “o`sha”, “shu yerda” birliklarining qo`llanishi voqeaning sodir bo`lishi haqidagi umumlashgan ma`lumotni beradi: *Qayerdadir qandaydir ikki mashina to`qnashgan*. Lekin bu holda makon, zamon va subyekt-obyektlar haqidagi aniq ma`lumotlarni ola olmaymiz. Umumlashtirish, kechayotgan hodisalar, predmatlar sifat-xususiyatlari kabilar haqidagi ma`lumotlarni mujassamlashtirgan holda kontseptual qoliplar vositasida idrok etish kognitiv faoliyatning samarasidir. Bunday qoliplar kontseptual birliklarning lisoniy voqelanishida o`z aksini topadi.

Til tizimidagi qator hodisalarni faqatgina ularning yuzma-yuz muloqot jarayonida shakllanishi inobatga olingandagina tavsiflash mumkin. Bu, ayniqsa, deyksis hodisasi talqinida yaqqol ko`zga tashlanadi [24,637].

Til tizimi va kontekst o`rtasidagi bog`liqlikning lisoniy strukturalarda aks etishini yaqqol ko`rsatuvchi yagona hodisa – bu deyksis hodisasidir [21,54].

Djon Layonz va Stefen Levinsonlar aslida til avtonom, kontekstdan xoli tizim sifatida qarash mumkinligi haqidagi fikr tarafdoridirlar. Ular bu fikrni isbotlash uchun deyksis hodisasidan foydalanadilar, go`yo, deyksis belgilari qo`llanmaguncha lisoniy strukturalar alohida tizimda saqlanaveradi. Har qanday hodisaning (bundan lisoniy hodisalar ham mustasno emas) bir tomonlamali tahlili natijasida bildiriladigan fikr xolisonalikdan yiroqlashib qolishi xavfidan ogohmiz. Aniqrog`i, til va nutqni bir-biridan ozuqa oluvchi, yaxlitlikda faoliyat

ko`rsatuvchi tizimlar sifatida tasavvur qilishdir. Ularning yaxlitligini ta`minlovchi omil va vositalarni aniqlash borasidagi ilmiy izlanishlarning mahsuli tilshunoslik fani taraqqiyotida o`z o`rnini topadi [62,153].

Til tizimi va uning nutqiy faollashuvi o`rtasidagi “vositachilik”, “hakamlik” rolini tilshunoslar bekorga deyxsis hodisasiga bag`ishlayotganlari yo`q. Til tizimining o`zi nutqiy faoliyat natijasida mavjuddir, uning tabiati va mohiyati nutqiy muloqot jarayonida namoyon bo`ladi. Shunday ekan, til birliklarining ma`no xususiyatlari nutqda voqelanadi, aniq tus oladi. Har bir nutq ijodkori (matn muallifi) voqelikda kechayotgan hodisani o`zicha idrok etadi, uni ma`lum makon, zamon hududida tasavvur qilib, hosil bo`lgan mantiqiy tasavvurga lisoniy libos beradi. Lisoniy voqelanish va mazmun shakllanishi nutq muallifi tanlagan “sanoq boshi”, ya`ni kechayotgan hodisani zamon-makon maydoniga joylashtirish bilan bog`liqdir.

Demak, nutqiy faoliyatda doimo lisoniy shaklni voqelik bilan bog`lash hamda unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ehtiyoji tug`iladi. Xuddi shu vazifalar ijrosi deyktik vositalar zimmasidadir. Deyksislar “ishora”, “ko`rsatish” ma`nolarini bildirishi yuqorida ta`kidlandi hamda ilmiy qo`llanishda lison vositasida “voqelikka ishora, ko`rsatish” mazmunini olgan. Ko`rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni deyktik ibora deb atashadi. Bu iboralarga nisbatan ayrim faylasuf va tilshunoslar “indeksikallar” (indexicalls) atamasini ham qo`llab kelishmoqda [5,80]. Ushbu turdagi iboralar nutqiy muloqot tizimining mazmundorligini ta`minlovchi doimiy vositalardan biridir. Masalan, biror bir notanish narsani ko`rib qolib, “*Bu nima?*” savoli bilan suhbatdoshga murojaat qilinganda, deyktik ibora (“*bu*”) vositasida shu muhitda mavjud bo`lgan narsa-predmetga ishoradir.

Deyktik belgilar tasnifi masalasi uzluksiz muhokama qilinib kelinmoqda. Ko`pchilik tilshunoslar an`anaga binoan shaxs, makon va zamon deyksislarini farqlab kelishmoqda. Ammo ayrim tilshunoslar bu tasnifga unchalik qo`shilmaydilar. Ular, deyxsis va modallik hosisalarini yagona maydonga birlashtirish harakatida bo`lishib, modal deyxsisni alohida o`rganishni taklif

qilishmoqda. Modallik deyksisi vositasida soʻzlovchi mavjud va tasavvurdagi vaziyatlarni nisbatan baholaydi [27,230].

Sotsial (ijtimoiy) deyksisni alohida kategoriya sifatida ajratish va uning vositasida muloqot ishtirokchilarining bir-biriga nisbatan ijtimoiy mavqeini belgilashi imkoniyatlari haqida aytib oʻtili. Bundan tashqari, Ch.Fillmor, R.Lakoff, V.I.Shaxovskiy, A.V.Kravchenko kabi olimlar, muloqot matnida suhbatdoshlarning xususiy munosabatlari oʻz aksini topishini hisobga olib, emotsional deyksisni ham alohida oʻrganish gʻoyasini targʻib qilishmoqda [13,22; 20,95; 33,182; 70,38].

Deyktik iboralarning eslatilgan guruhlariga xos semantik va pragmatik xususiyatlar va umuman ushbu guruhlarining ajratilishi qay darajada asosli ekanligi haqida batafsilroq toʻxtalishga toʻgʻri keladi.

Oldingi sahifalarda deyktik belgilarning semantik jihatdan boshqa lisoniy belgilardan tubdan farq qilishi, ularning predmet hodisalarni toʻgʻridan-toʻgʻri nomlash qobiliyatidan mahrum ekanligi va signifikativ mazmunga ega emasligi eslatilgan edi.

Deyktik vositalar qatoriga kiruvchi soʻzlarning leksik maʼnosida u yoki bu turdagi referentga ishora mavjudligini isbotlashga harakat qilgan E.V.Paduchevaning taʼrificha, “olmoshlar – maʼnosida nutqiy harakatga havola yoki nutqiy tuzilmaning borliq bilan munosabatiga, turiga ishora mavjud boʻlgan soʻzlardir” [59,11]. Olmoshlarining va boshqa turdosh turdagi deyktik belgilarning signifikativ mazmundan xoli ekanligini, ularning referenti turgʻun boʻlmasdan, balki nutq vaziyatiga nisbatan oʻzgarib turishini Emil Benvenist alohida qayd etgan. Uningcha, “*Men*” olmoshining maʼnosini faqatgina maʼlum bir nutqiy harakat ijrosiga (locution) nisbatan aniqlash mumkin va bu nutqiy harakat doimo yagona, alohida boʻlib qoladi, takrorlanmaydi. Har bir nutqiy harakat alohida obyekt (voqelikdagi hodisa, predmet) bilan bogʻliq boʻlganligi sababli, “*men*” olmoshining referenti ham oʻzgarib turadi. Qisqasi, “*men*” shakli lisoniy nuqtai nazardan faqatgina bajarilayotgan, ijro etilayotgan nutqiy harakatda mavjuddir [42,286].

Farang tilshunosi shaxs, zamon, makon ishora qilinayotgan obyekt ko`rsatkichlarining nutq kechayotgan vaqt bilan munosabatini: *bu yerda-u yerda; hozir-o`shanda; bugun-o`sha kuni-kecha; arafada- ertaga- bir kundan so`ng* kabi tushunchalar qarama-qarshiligida yuzaga keladigan hodisa deb hisoblaydi. Ammo ushbu turdagi iboralarning referenti ko`pincha o`ta yuzaki – o`z-o`zidan ma`lum bo`lgan hodisa sifatida baholab kelinmoqda. Ushbu iboralarning ma`no xususiyatlari to`g`ridan-to`g`ri “voqelik” yoki predmet hodisalarning obyekt zamon va makonda joy olishi bilan bog`liq emas. Aksincha, til tizimi ushbu ibora guruhlariga shaxslararo muloqot jarayonida yuzaga keladigan talab – vazifalarni bajarishni “buyuradi”. “Lison voqelik bilan referent bog`liqligidan mahrum bo`lgan, doimo yangicha qo`llanishga hozir bo`lgan “ma`nosiz” belgilar yaratilishi bilan bu masalani ham hal qiladi va bu belgilar so`zlovchi tomonidan kechayotgan nutq faoliyatiga jalb qilinishi zahotiy oq “to`liq” ma`noli belgilarga aylanadilar [62,158].

Deyktik iboralar ma`nosining nutq subyekt – so`zlovchining kommunikativ maqsadi bilan bo`g`liq holda o`zgarib borishini o`z paytida faylasuflar ham qayd etgan edilar. Bertrand Russell “*men*”, “*bu*”, “*shu yerda*”, “*hozir*” so`zlarini asosiy egotsentrik so`zlar sifatida ta`riflab, ularning ma`nosi zamon va makon o`zgarishi bilan bog`liq holda o`zgarib turishini e`tirof qilgan: “hozir” so`zi har bir qo`llanishda vaqt kechishi davomiyligining ma`lum bir darajasini anglatadi; “*shu yerda*” so`zi, “*men*”ning har bir harakati natijasida joy oladigan alohida o`rmini belgilaydi; “*men*” uni talaffuz qilayotgan har qanday shaxsni bildiradi [29, 113]. O`z ustoziga ergashgan L.Vitgenshteynning ta`rifi ham shunga mos: “*Men*” – biror bir shaxsning nomlanishi emas, “*shu yerda*” – ma`lum bir joyni atamaydi, “*bu*” – nom emas [47, 207]. Shuning bilan bir qatorda, ayrim tadqiqotchilar deyksisning egotsentrik xususiyatini to`lig`icha e`tirof etishga jur`at etmaydilar. V.Shmidt, G.Raux, I.A.Sternin va boshqa deyktik maydon markazini “*sen/siz*”, ya`ni adresat egallashi mumkinligini aytishadi. Binobarin, “*Bir qadam oldinga!*”, “*O`ngga buriling!*” kabi buyruq nutqiy aktlari bajarilayotgan vaqtlarda asosiy e`tibor buyruqni qabul qiluvchiga

yo`naltiriladi. B.Rassel ishlarida esa barcha turdagi egotsentrik so`zlarning (egocentric words) ko`rsatish mazmunidagi ma`nosini this “*bu*”, “*shu*” olmoshi vositasida tavsiflash mumkin, degan fikr mavjud [29,108]. Uning fikricha, I “*men*” the biography to which this belongs “bu qaram bo`lgan tarjimai hol” mazmunini bildirsa, here “*bu yerda*” – the place of this “buning o`rni” va now “*hozir*” – the time of this “buning vaqti” mazmuniga ega. Balki ingliz faylasufining fikri mantiqan to`g`ridir, chunki barcha turdagi deyktik iboralar ko`rsatish, ishora ma`nosini ifodalaydilar hamda ko`rsatish maydonining markazida so`zlovchi shaxs turishi sababli ishoraning boshlang`ich nuqtasi ham uning “ko`z o`ngi”da turgan voqelik parchasidir. Ushbu voqelikning kommunikativ ifodasida “bu” ko`rsatkichi asosiy o`rinni egallaydi. Ammo mantiqiy mazmunning lisoniy ma`noga muvofiq kelishi har doim ham kuzatilavermaydi. Mantiqiy idrok ko`p bosqichli kontseptual (tafakkur) “ishlov”idan o`tgandan so`nggina lisoniy voqelikka aylanishi ma`lum.

Ma`no tushunchasini “obyektning shaxs ongida aks topgan umumlashgan benuqson tasavvurdagi modeli” deb ta`riflagan psixolog V.F.Petrenko bu modelning shakl topishini odiy faoliyat emasligini qayd qiladi: “ong lisoniy belgilar vositasida voqelikni oddiygina takrorlamasdan, balki undagi subyekt uchun ahamiyatli bo`lgan xususiyat va belgilarni ajratib, umumlashgan model qurilmasini yaratadi” [61,12]. Demak lisoniy ma`no shakllanishi – murakkab jarayon. Ma`no shakllanishida voqelikdagi obyektning muhim xususiyat – belgilarining aks topishi oddiy jarayon emas, balki bu xususiyatlar inson ijtimoiy faoliyati, tajribasi nuqtai nazaridan muhim bo`lmog`i darkor. Yanada aniqrog`i, bu muhimlik, ahamiyatlilikning o`zi ijtimoiy tajriba asosida yuzaga keladi. Psixolingvistlar A.A.Leontyevga (1975) ergashib, ma`noni “inson faoliyatining qiyofasi o`zgargan shakli” deb ta`riflab, xato qilishmagan, chunki idrok etilayotgan obyektning xususiyatlari insonning ijtimoiy faoliyati jarayonida ko`zga tashlanadi, farqlanadi.

Lisoniy belgilar ma`nosi shakllanishida inson faoliyati, uning ijtimoiy tajribasi natijalari, albatta, predmet mazmunidagi va boshqa to`liq ma`noli

soʻzlar mazmunida ravshanroq koʻrinadi. Ammo buning bilan boshqa turdagi leksik birliklar (shu jumladan, deyktiklar) lugʻaviy maʼnoga ega emas deb ayta olmaymiz. Har bir lisoniy birlik, soʻzsiz, lugʻaviy maʼnoga ega. Bundan deyktik belgilar, shu jumladan, olmoshlar ham mustasno emas.

Rossiya fanlar akademiyasining akademigi N.Yu.Shvedova til lugʻat tizimining tabaqalanishi daraxt shaklida tus olishini uqtirib, ushbu daraxtning tepasi eng mavhum va umumlashgan (global) maʼno – mazmunga intilishini taʼkidlaydi. Mavhumlashtirilgan tushunchalar harakat yoki holat, harakat turi yoki hol, miqdor, meʼyor, makon, zamon, chegara, maqsad, sabab kabilardir. “Tilda ushbu tushunchalar va ularning doimiy oʻzgarishlarini ifodalash uchun moʻljallangan soʻzlarning yopiq tizimi mavjud: olmoshlar guruhi aynan shu sinfga oid” [72,6]. Ayniqsa, muallifning keying ishida olmoshlar guruhidagi soʻzlar tizimining “yopiqligi” va barcha turdagi umumiy tushunchalarni ifodalashning boshlangʻich nuqtasi ekanligi yanada taʼkidlanadi. Zero, “bu tizimning mavhumlik darajasi boshqa sinflarnikidan oʻta ustun: olmoshlar tizimi boshqa soʻzlar maʼnosi va oʻzaro munosabatlariga mazmun baxsh etadi. Olmoshlar guruhi – maʼnoni mavhumlashtirishni taʼminlovchi vositadir” [71, 8].

Shu jihatdan olganda, B.Rasselning barcha turdagi deyktik iboralarning mazmunini *this* “*bu*” olmoshi vositasida tavsiflash borasidagi harakatini ham toʻgʻri anglab, maʼqullash mumkin. Inson borliq idrokining asosiy (balki yagona) meʼyoriy va oʻlchov nuqtasidir, bunday idrok jarayoni doimo “antropometrik tamoyil” [66,173] nazoratida kechadi, u oʻzi idrok etayotgan voqelik parchasiga “*bu*” koʻrsatkichi bilan ishora qiladi. Ammo mantiqshunoslarning deyktik iboralarni yagona bir maxrajga toʻplash va ularning maʼnosini alohida bir lisoniy birlik vositasida taʼriflash yoʻlidagi harakatlari (B.Rassel barcha deyktik iboralarni “*this*”-“*bu*” olmoshli iboralarga oʻzgartirish mumkinligi haqida gapirgan boʻlsa, X,Rayxenbax esa I “*men*” olmoshi “*men*” soʻzi belgisini talaffuz qilayotgan shaxs” tuzilmasi vositasida tavsiflashni talab qilgan) tilshunoslarga unchalik maʼqul kelmaganligi ham maʼlum [5,77].

## 1.2. Deyksis – pragmatik vosita

Lisoniy tahlilni mantiq bilan bog'lashda lisoniy belgilarning tabiati va ularning inson faoliyati uchun muhim bo'lgan nutqiy muloqot matnida tutgan o'rni, mohiyatiga e'tibor bermaslikning imkoni yo'q. Masalan, *“Men hozir 26 yoshdaman va o'tgan yili uylangandim”* va *“Men hozir 27 yoshdaman”* tuzilmalarining zaminida bir xil propozitsiya turishi yoki turmasligini aniqlash uchun ushbu tuzilmalar qaysi kontekstda, muloqot sharoitida qo'llanilayotganini bilmoq kerak. Matn (kontekst) propozitsiyani “maxsuslashtiruvchi”, uni voqelantiruvchi vositadir. Pragmatikaning mantiqan semantikani ta'minlashi, undan oldinroq harakatga kelishi ham xuddi shunda namoyon bo'ladi.

Deyksis hodisasining pragmatik mohiyati va uning mazmun ifodalash imkoniyatining bevosita muloqot matni bilan bog'liq ekanligini S.Levinson quyidagicha ta'riflaydi:

“Aslini olganda, deyksis tilda nutqiy harakat konteksti yoki nutqiy hodisa xususiyatlarining aks topishi va grammatikalashuviga (grammaticalization) taalluqlidir. U (deyksis), xuddi shuningdek, muloqot matni tahlili bilan bog'liqdir. Shunga nisbatan this (*“bu”*) olmoshi biror bir real mavjud obyektни atamaydi; to'g'rirog'i, u aniq bir kontekstda so'z yuritilayotgan voqelik obyektining o'rindoshidir” [21,54].

Ushbu ta'rifda e'tiborni alohida jalb qilgan narsa – grammatikalashtirish hodisasidir. Darhaqiqat, ongda yuzaga kelgan tushuncha va kontseptual qoliplarning lisoniy voqelanishi ularga lisoniy shakl, tus berishni taqozo etadi. Nutqiy tuzilma esa to'liq mazmunga ega bo'lishi uchun grammatik shakl olishi kerak. shuning bilan birgalikda, nutqiy tuzilmaning muloqot birligiga aylanishi va matndan o'z o'rnini topishi uchun uning grammatik shaklga ega bo'lishi yetarli emas. Ushbu tuzilma matnga mos kelishi, umumiy kommunikativ maqsadga erishish ehtiyojini qondirish lozim bo'ladi. Xuddi shu talablar umumlashmasi grammatikallashtirish hodisasidir. Misol tariqasida *“hoy, sen hoziroq o'sha yerga yetib bor!”* gapini olaylik. Buyruq intensiyasini hosil qiluvchi ushbu nutqiy aktning pragmatik mazmuni so'zlovchi tomonidan shaxs,

makon va zamon deyktik iboralarining qo`llanishi bilan bog`liq. Bu yerda buyruq yo`naltirilgan shaxs – adresat “*sen*” shartli belgisi vositasida kodlashtirilgan; “*o`sha yerga*” shartli belgisi so`zlovchiga nisbatan olingan joy, makonni kodlashtiradi; “*hoziroq*” esa nutqiy harakat bajarilayotgan paytga nisbatan belgilanayotgan zamon tushunchasidir. Bundan tashqari, “*yetib bor*” bo`lagini ham so`zlovchiga nisbatan olingan makon sari harakatning shartli ifodasi sifatida talqin qilish mumkin.

So`zlovchi o`z kommunikativ maqsadiga erishish uchun barcha shartli lisoniy belgilarni jo`yali, o`z o`rnida ishlata olishi darkor. Faqat shundagina u tinglovchini buyruq ijrosiga unday oladi. Xuddi shuningdek, tinglovchi – adresat ham grammatikalashtirish usul va vositalari bilan tanish bo`lgan holdagina nutqiy harakat mazmunini anglaydi, shartli belgilarni mantiqan idrok etadi va ularning sirli, yashirincha ma`no jilolarini ocha oladi.

Grammatikalashtirish hodisasining pragmatik tavsif uchun ahamiyatini yana bir misolda ko`rish mumkin. Ingliz faylasufi David Kaplan deyktik iboralarining turli nutqiy vaziyatda va turli kontekstda qo`llanishidagi farqini o`rganayotib, “*I was insulted yesterday*” – “*Meni kecha xafa qilishdi*” nutqiy birligi bugun yoki ertaga aytilishiga nisbatan deyktik ibora (*yesterday* “*kecha*”) turli mazmun olishiga diqqatni jalb qilmoqchi. Olim nutqiy birlikning ma`lum vaziyatda faollashuvida yuzaga keluvchi ma`noni *content* “mazmun” deb ataydi. Menimcha, u lisoniy birlikka mohiyatan xos bo`lgan ma`noni nazarda tutayotgan bo`lishi kerak. Matndagi mazmun o`z-o`zidan hazm bo`lmaydi, lisoniy birlik uchun tabiatan xos bo`lgan shunday ma`no xususiyatlari mavjudki, ular har bir nutqiy tuzilmaning ma`lum sharoitda, u yoki bu mazmunda voqelanishini ta`minlaydi. D.Kaplan bunday ma`noni character “xususiyatlar mundarijasi, mundarijali ma`no” sifatida qarashni taklif qiladi: “har qanday iboraning mundarijasi linvistik qonuniyatlar asosida shakllanadi va u (mundarija) nutqiy iboraning kontekstdagi mazmunini belgilaydi” [16,505].

Lisoniy birliklar ma`nosining tabiatan va mohiyatan mavjud bo`lishiga hech qanday shubha yo`q. Biroq “mundarijaviy ma`no” va “matndagi ma`no”ni

o`zaro farqlash qiyin muammo. Tilshunos, mantiqshunos va semiotiklarning bu boradagi munozaralari aniq bir natija berganicha yo`q. Bahs bahsligicha qolmoqda. Ushbu bahsni davom ettirishning eng ma`qul yo`li bu – ikki turdagi ma`noning o`zaro munosabati va ularni shakllantiruvchi omillar, lisoniy hamda nolisoniy faktorlarning tutgan o`rni masalasini o`rganishdir. Zero, lisoniy faoliyatning har qanday ko`rinishi bir-birini taqozo etadi. Til tizimisiz nutqiy muloqot tizimi hosil bo`lmaydi va, aksincha, nutqsiz til tizimi qayerdan “ozuqa” olishini bilmaydi. Xuddi shuningdek, til tizimida mavjud bo`lgan deyktik vositalarning mundarijaviy mazmuni ham nutqiy muloqot jarayonida yaratiladi va namoyon bo`ladi.

Deyktik iboralarning semantik va tizimiy xususiyatlari o`ziga xosdir. Yuqorida deyksis tizimining egotsentrik tartibga ega ekanligi aytilgan edi. Deyktik iboralar kommunikativ hodisa – uzatilayotgan axborotning ma`lum qismlarini alohida ta`kidlash, aniqlashtirish uchun xizmat qilishadi. Deyktik markazni tarkib toptiruvchi qismlar quyidagilardan iborat: 1. Markaziy shaxs – so`zlovchi; 2. Markaziy vaqt (zamon) – nutqiy harakat ijro etilayotgan vaqt; 3. Markaziy makon – so`zlovchining nutqiy harakat bajarilayotgan paytdagi o`rni; 4. Ijtimoiy markaz – so`zlovchining ijtimoiy mavqei [21,64].

Har qanday holatda nam to`rt o`lchovli maydon sifatida tasavvur qilinayotgan deyktik maydonning o`rtasida shaxs turadi. Kechayotgan hodisa haqidagi axborotni ma`lum qilayotgan shaxs zamon va makonni o`zi egallagan zamonga, vaqtga nisbatan belgilaydi. Suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqei ham so`zlovchiga nisbatan belgilanadi. Voqelikni idrok etayotgan, uning haqida fikr yuritish istagidagi so`zlovchi masofa o`lchovini o`zidan boshlaydi va voqea makonlari joylashuvini aniqlaydi. Vaqt o`lchovi ham so`zlovchidan boshlanadi, ma`lum qilinayotgan voqea qismlarining “vaqt chizig`i”dagi joylashuvining mantiqiy modeli so`zlovchi tasavvurida qayta ishlanib, lisoniy tus oladi. Boshqacha aytganda, voqeaning o`tgan, hozirgi, kelgusi zamonda kechishini (kechganligini, kechayotganligini) belgilashda so`zlovchining mantiqiy tafakkur faoliyati muhim o`rin tutadi. Nihoyat, deyksis hodisasining ijtimoiy belgilari

haqida gapiriladigan bo`lsa, muloqot ishtirokchilarining roli, ularning ijtimoiy tabaqalanish darajalari ham so`zlovchi-adresat munosabatida aniqlanadi. Bularning barchasi, Sh.Safarov fikricha, deyktik iboralarning (ayniqsa, olmosh va ravishlarning) paydo bo`lish masalasiga biroz bo`lsada oydinlik kiritishi mumkin. Zero, tilning asosiy vazifasi muloqot vositasi sifatida xizmat qilish bo`lsa, unda kommunikativ mazmuni ifodalashning asosiy vositalari bo`lgan deyktik belgilar boshqa lisoniy belgilardan oldinroq paydo bo`lishgan emasmikan?! Yoxud deyksis tizimi lisoniy faoliyatni ta`minlovchi, til tizimi markazida turuvchi hodisa, deb e`tirof etilishi mumkinmi?! [62,165].

Ushbu savollarning ritorik ruhda qolishini to`g`rib bo`lmaydi. Zero, voqelik idrokida *qayerda?*, *qayerga?*, *qayergacha?*, *qachon?*, *qachongacha?*, *qanday?*, *qay yo`sinda?*, *nima uchun?* kabi savollarga javob izlashga majburmiz. Bu tarzdagi savollarning tug`ilishiga sabab voqelik idroki SHAXS bilan bog`liq ekanligida. U voqelikni o`z ko`z o`ngida, tasavvurida kechayotgan hodisa sifatida qabul qiladi, uni o`ziga, o`z shaxsiga nisbatan baholab, bayon qiladi. Shuning uchun ham nutqiy tafakkur va lisoniy ong markazida idrok SHAXSi turadi, uning MENi axborotning lisoniy bayoni uchun boshlang`ich niqtadir. Bu markaz voqelik bayonida KIM savoli orqali tavsiflanadi. Shuning uchun ham voqelik bayonida zamon-makon-ijtimoiy mavqe markazlari muloqot SHAXSi tomonidan belgilanib, yagona deyktik maydonni tashkil qiladi.

Deyktik iboralarning til ontogenezisida muhim o`rin egallashi ularning go`daklar nutqida ilk bosqichlarda paydo bo`lishidan tashqari, bu iboralarsiz to`laqonli muloqotning kechishini tasavvur qilishning o`zi qiyin. Biz ko`pincha yosh bolalarga va katta yoshdagilarga til o`rgatishda lisoniy birliklar (masalan, so`zlar) ma`nosi yetarli deb hisoblaymiz. Ammo lisonni o`zlashtirishni bunday o`ta soddalashtirish noto`g`ri xulosadir. Yosh bola “*soat 10<sup>30</sup>*” tuzilmasining mazmunini anglashi uchun lisoniy belgilar ma`nosini bilishi yetarli emas. U *hozir*, *bugun*, *mening*, *sening*, *bu*, *shu yerdagi*, *kechagi*, *oldingi* kabilar vositasida voqelanadigan kontekst ko`rsatkichlarini ham bilishi talab qilinadi. Shu qatordagi deyktik iboralarning qaysi vaziyatda, qanday sharoitda

qo`llanishini bilmasdan turib, “soat 10<sup>30</sup>” nutqiy tuzilmasi mazmunini voqelik bilan bog`lab bo`lmaydi. Lisonni bilish, uning sohibi bo`lish – hayotiy faoliyat turlarini bilishdir. Til ta`limi ham ijtimoiy, kundalik faoliyatda mavjud bo`lgan va yangidan yuzaga keladigan hodisalar, vaziyatlarni anglash va ularni lisoniy bayon qilish malaka va ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilmog`i kerak. Axir biz o`quvchilarga yangi so`zlar, iboralarni tushuntirayotganimizda yangi voqelikni tushuntiramiz-ku! Bu voqelik bayonini muloqot muhiti bilan bog`lash ko`nikmasiga ega bo`lgan o`quvchigina lisoniy bilimga ega bo`lishi mumkin. Lisoniy faoliyat inson ongli faoliyatining ajralmas qismi. U lison va ijtimoiy tajriba uyg`unligida kechadi.

### **1.3. Deyksis va uning namoyon bo`lish shakllari**

Ma`lumki, juda ko`p tilshunos olimlarimiz deyksisning makon, zamon va shaxsga ishora qiluvchi turlari haqida fikr bildirganlar. Lekin tilshunoslik sohasida tinimsiz olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, pragmalingvistika sohasida qo`lga kiritilgan yutuqlar va ularning natijalari o`laroq ushbu deyksis turlaridan tashqari diskurs deyksisi, sotsial deyksis, emotsional deyksis kabilar borasida ham fikrlar ilgari surilmoqda. Bular ichida eng ko`p qo`llanadigan deyksis turlaridan biri bu shaxs deyksisi hisoblanadi va deyksis maydonining markazida turadi. Nutqiy muloqot jarayonida bajarayotgan roliga nisbatan shaxs deyksisining tarkibi aniqlanadi. Birinchi shaxs so`zlovchining o`rniga ishora, “o`zini ko`rsatishi, eslatishi”ning lisoniy ifodasidir, ikkinchi shaxs tinglovchi yoki adresatning lisoniy belgilanishi hamda uchinchi shaxs muloqotning bevosita ishtirokchisi bo`lmagan shaxsga ishoradir. Muloqot ko`chishiga qo`shgan hissasiga nisbatan farqlanayotgan ushbu tizim olmoshlar guruhlarida o`z aksini topadi. Olmoshlar esa, o`z navbatida uch shaxsdan tashqari, ko`plik, rod kabi kategorial belgilar asosida o`zaro farqqa ega bo`ladi. Ammo ko`plik son belgisiga ega bo`lgan olmosh har doim ham birlik sondagi olmoshga to`g`ridan-to`g`ri mos kelavermaydi. Jumladan, biz har qanday kontekstda ham so`zlovchilarning soni ko`p ekanligini anglatmaydi. Shuning uchun ham biz olmoshi qo`llanilgan ayrim holatlarda uzatilayotgan axborot mazmunini va

ko`plik soni qaysi ma`noda voqelanayotganini aniqlash tinglovchining ixtiyoridir. Masalan, ingliz tilidagi “*We clean up after ourselves a room here*” gapini tinglovchi ikki xilda anglashi mumkin: tinglovchi o`zini adresat guruhiga qo`shadi yoki bu guruhga kirmaydi. Shunga nisbatan, eksklyuziv “*biz*” (exclusive “*we*”) va inklyuziv “*biz*” (inclusive “*we*”) ko`plik shakllari farqlanadi. Bularning birinchisida (eksklyuzivlikda) “*biz*” “so`zlovchi va boshqalar” ma`nosini anglatib, bu guruhga adresatni kiritmaydi, ikkinchisida esa so`zlovchi “*biz*” deganda adresatni ham nazarda tutadi. Ayrim tillarda eksklyuzivlik va inklyuzivlik o`z grammatik ifodasiga ega. Masalan, fojian (qizil tanlilar tili) lahjasida *keimami* – eksklyuziv birinchi shaxs ko`plik olmoshi bo`lsa, *keda* bu olmoshning inkluziv mazmundagi shaklidir [36,11].

Inklyuziv va eksklyuzivlikning farqi, shuningdek, ingliz tilidagi *Let`s go* va *Let us go* tuzilmalari mazmunida ham namoyon bo`ladi. Birinchi ibora qo`llanilayotganda, so`zlovchi biror do`stiga (do`stlariga) murojaat qilib, harakatni birgalikda bajarishga chaqirmoqda: “Ketdik!” (“Ketaylik”, “Ketamiz”). *Let us go* gapida esa so`zlovchi o`zi va hamrohlarini qo`yib yuborishini, ketishga ijozat berishni iltimos qilmoqda: “*Bizga ketishga ijozat bering!*” Demak, bu holatda birinchi shaxs ko`plik eksklyuziv “*biz*”ni anglatadi, tinglovchi-adrest ijozat so`ralayotgan harakat ishtirokchisi ham emas.

Bundan ko`rinib turibdiki, nutqiy muloqotning ikki asosiy ishtirokchisi bo`lmish so`zlovchi va adresatdan boshqa nafaol qatnashchilar ham til tizimida o`z grammatik ifodasini topishi mumkin. Ammo bu ifoda turli tillarda turlicha ko`rinish oladi. Binobarin, yapon tili olmoshlar tizimi shakllarga boy ekanligi ma`lum. Bu tilda so`zlovchi va tinglovchining ijtimoiy mavqei, qaysi jinsga oidligiga nisbatan olmoshlar qo`llanishida farq mavjud. Bu tilda so`zlovchilarning barchasi faqatgina o`ta ehtiromli vatakusi olmoshini bir xilda ishlatishlari mumkin, boku, ore, vasi kabi atasi, atakusi shakllarini ayollar ma`qul ko`rishadi [15,358]. Yapon tilidagi ikkinchi shaxs olmoshlari ham qachon va kimga nisbatan qo`llanishiga nisbatan katta farqqa ega. Bulardan

*omae* qo`pol, qo`rs mazmunida bo`lsa, *anta*-hurmat ma`nosini ifodalaydi, *kimi* esa so`zlovchi biror shaxsni o`ziga yaqin olib murojaat qilganida faollashadi.

Umuman, yapon tili olmoshlar guruhleri o`ta murakkab tizimni tashkil qiladi [37,56] va murakkablik tarjimonlar faoliyatida katta muammolar tug`ilishiga sabab bo`ladi. Buning misoli sifatida A.Remboning “*Mast kema*” she`rining yaponcha tarjimasi yo`lidagi urinishlarni keltirish mumkin. Ma`lumki, farang shoirining ushbu she`ri kema nomidan birinchi shaxsda yozilgan va bir necha tarjimonlar uni yapon tiliga o`girishda turli olmoshlarni qo`llashga harakat qilishgan, lekin qanday olmoshga murojaat qilinishidan qat`iy nazar asl niyatdan boshqa bo`lgan ma`no paydo bo`lavergan. Olmoshni qo`llamaslik esa nutqning sun`iy tus olishiga sabab bo`ladi [37,92].

Shaxs deyxsisini ifodalovchi vositalar haqida gapirayotib, til tizimida uchinchi shaxs olmoshi ham alohida guruhga ajralishini unutmaslik lozim. Bu guruhdagi olmoshlar semantik va kommunikativ mohiyati jihatidan boshqalaridan tubdan farq qilishi allaqachon qayd etilgan. Bilamizki, birinchi va ikkinchi shaxslar bevosita muloqot ishtirokchilaridir va “*men*”, “*sen*” guruhlaridagi olmoshlar “kommunikativ shaxs”larni ifodalaydi. Uchinchi shaxs olmoshlari esa bunday xususiyatga ega emas, ularning referenti – muloqotning bevosita ishtirokchilari bo`lmagan “nokommunikativ shaxs”lardir. A.A.Ufimtseva uchinchi shaxs olmoshlarining bunday semantik xususiyatini hisobga olib, ular bajaradigan asosiy vazifa deyktik mazmun ifodasi bo`lmasdan, balki o`rin almashtirish (olish)deb hisoblaydi [68, 176]. Olimaning ushbu fikrini bir tomondan quvvtlasa bo`ladi, chunki uchinchi shaxs olmoshlari ma`no jihatidan “*men*” va “*sen*” olmoshlaridan ancha farq qilishi ma`lum. Ammo kommunikativ jarayonda uchinchi shaxsningrolini inkor qilib bo`lmasligini ham unutmaslik lozim. To`g`ri, muloqot kechishida nutq subyekti va uning tinglovchisi munosabati markaziy o`rinni egallaydi va deyktik maydon markazi ham shu munosabat doirasida belgilanadi. Balki shu sababli *men* va *en* olmoshlarining deyktik mundarijasi ravshanroq ko`rinadi va tadqiqotchilar ularni deyktik ibora sifatida e`tirof etishdan hech tortinmaydilar. Biroq buning

bilan uchinchi shaxsni kommunikativ jarayon doirasidan butunlay chetga surib qo'yib bo'lmaydi. Bu shaxs muloqotning "nafaol ishtirokchisi" (side participant) yoki unda bayonning ishtirok etmayotgan "kuzatuvchisi" (by stander) sifatida farqlanadi [9,82]. Ikkala turdagi ishtirokchilar, lozim bo'lganda, muloqotning kechishiga bevosita ta'sir o'tkazadilar. Nafaol ishtirokchi va kuzatuvchi G.G.Pocheptsovning e'tiroficha, "men" va "sen"ga qarama-qarshi turadigan "u"dir. Bundan tashqari, bu shaxs "men" va "sen"ning muloqoti jarayonida "shu yerda" bo'lib, shu yo'sina kommunikantlar nutqiy faoliyatiga bevosita ta'sir o'tkazadi [61,37].

Uchinchi shaxsning kommunikativ mohiyati yetarli darajada ekanligini hisobga olib, "u" olmoshini shaxs deysisini ifodalovchi lisoniy vositalar qatoriga qo'shish mumkin. Ushbu olmoshning A.A.Ufimtseva qayd etgan "o'rin almashtirish" vazifasiga [62,153] kelsak, bu vazifa barcha turdagi olmoshlar uchun xosdir. O'rin almashtirish vazifasining bajarilishi nutqiy aktda yoki matnda koreferentlik (hamreferentlik) hodisasi mavjud bo'lishini talab qiladi (qiyoslang: *Men Boltayevni yaxshi bilaman, bunday odamlar hech qachon qiyinchiliklardan chekinmaydilar; Kumush kundalikni doimo to'ldirib boradi va uni hech qachon unutib qoldirmaydi.*).

Voqelik bo'lagining lisonda turlicha ifodalanishidan iborat bo'lgan koreferentlik anafora yoki anaforik ishora vositasida namoyon bo'ladi. Anafora nutqiy tuzilma bo'laklarining mazmunan bog'lanishini ta'minlaydi, u koreferentlik haqida ma'lumot beruvchi lisoniy hodisadir. Tilshunoslar anafora hodisasiga tavsif berayotib, an'anaga binoan anaforik olmoshlarning matnning oldingi qatorlarida eslatilgan referentini izlashgan. Koreferentlik mazmuni paydo bo'lishi uchun old referentning (antitsidentning) mavjud bo'lishi zarur. Ammo referentning matnda turlicha o'rin olishi mumkinligini ham unutmaslik lozim. Ayrim hollarda olmoshlarning referentini ifodalovchi birliklarni matnning keying qatorlaridan izlashga majbur bo'lamiz.matndagi yashirin, bevosita ifoda topmagan yoki matn qismlari munosabatini inobatga olib izlanadigan koreferentlik "assotsiativ anafora" hodisasini yuzaga keltiradi. Bu

turdagi anaforik bog`lanishni aniqlashda matn mundarijasini bilishdan tashqari o`quvchi (tinglivchi)ning umumiy bilim darajasi ham muhim rol o`ynaydi [10, 7]. Mazmuniy bog`lanishning bunday matn va umumiy bilim hamkorligida yuzaga kelishini biz, ayniqsa, metonimiya va metafora tuzilmalari hosil bo`lishida aniq ko`ramiz. Masalan, “*Oybek javonning ustki qavatida. U charm muqovali*” tuzilmasida “*Oybek*” va keyingi qatordagi “*U*” birliklarining bog`liqligini bilishda o`zbek tilida kitobni muallif nomi bilan atash “lisoniy kelishuv” asosidagi umumiy qoida ekanligiga tayanamiz. Bunday “lisoniy kelishuv” barcha tillar uchun ma`lum bo`lgan kognitiv hodisa ekanligi ham ma`lum [18,37].

Shunday qilib o`rin almashtirish-anafora vazifasining bajarilishi ishora vazifasini inkor qilmaydi. Anafora deytik mazmundan xoli emas, bu ikki vazifa yagona bir kontekstda, ayni bir paytning o`zida bajarilishi mumkinligini hozircha hech kim inkor etganicha yo`q. Bu borada J.Layonzning “*Semantics*” asarida keltirilgan misolni eslaylik [24,676]: *I was born in London and have lived there ever since* “*Men Londonda tug`ilganman va shunan buyon o`sha yerda yashayapman*”. Bu misolda there “*o`sha yerda*” o`z koreferenti London bilan anaforik bog`lanishda bo`lishdan tashqari, ushbu nutqiy harakatning Londonda ijro etilayotganligi haqida ishora ma`lumotini ham bermoqda.

Tinglovchi (o`quvchi) matn va nutqiy tuzilmalar idroki, ularning mazmunini anglash jarayonida til birliklarining matndagi bog`lanishini (anafora bunday bog`lanishning bir turi) aniqlash bilangina chegaralanib qolmasdan, balki inson ongida aks topgan voqelik hodisalari haqidagi bilim “tasma”siga ham murojaat qiladi. Mazmun ana shu turdagi matn va voqelik, lisoniy va qomusiy bilim munosabati asosida yuzaga keladi. Farang kognitolog olimi G.Fakonniyerning ta`biricha, “Lison mazmun tashuvchi emas, uni faqatgina boshqarib boradi” [11,84]. Ma`lum bir ma`no yoki mazmuni u yoki bu lisoniy birlikning “mulki”ga aylantirish ushbu birlik mohiyati haqidagi noto`g`ri tasavvarga sabab bo`lishi mumkin. Yaxshisi, mazmuni inson kognitiv faoliyatining natijasi bo`lgan matn tuzilishidan, uning tarkibidagi

bogʻlanishlardan izlagan maʼqul. Uchinchi shaxs olmoshlarining maʼno xususiyatlari ham bundan mustasno emas.

Deyksislarning asosiy turlaridan yana biri ularning joylashuv, oʻringa nisbatan ishorasi boʻlib, ular oʻzbek tilshunosligida makon deyksisi nomi bilan maʼlumdir. Muloqot jarayonida uning ishtirokchilari egallagan oʻringa ishora makon deyksisi mazmunini tashkil qiladi. Voqelikning idrok qilinishi va bu idrokning lisoniy ifoda topishi ikki asosiy lisoniy tafakkur harakatini talab qiladi: birinchidan, voqelik parchasini tavsiflash lozim boʻlsa, ikkinchidan, uni maʼlum makonda joylashtirish talab qilinadi. Ammo makonda joy olishning oʻzi ham ikki koʻrinishda boʻladi. Obyektlar bir-biriga nisbatan joylashadi [62,171]:

a) *Registon Samarqandning markazida joylashgan;*

b) *Rasadxona janubiy kenglikning 50-gradusida joylashgan.*

Bu misollarda makon deytik mazmunga ega emasdek tuyuladi, chunki bunday makon tasavvuri va ifodasida muloqot ishtirokchilarining oʻrni yoʻq. Makon muloqot ishtirokchilarining muloqot kechayotgan paytdagi oʻrniga nisbatan belgilanishi deytik xarakterga ega:

c) *Afrosiyob bir chaqirim narida (uzoqda);*

d) *Rasadxona bu yerdan ikki chaqirim sharqda.*

Makon deyksisini nodeytik mazmundagi makon ifodasidan farqlash ayrim hollara ancha qiyinchilik tugʻdiradi. Har holda, barcha tillarda deytik iboralar tizimi mavjud boʻlib, ular maʼno va grammatik xususiyatlari jihatidan turli guruhlariga ajraladilar:

- 1) Oʻrin ravishlari: *here, there, ever there* – ingliz tilida; *her, da, doh* – nemis tilida; *здесь, там, мым* – rus tilida; *shu (bu) yerda, u (oʻsha) yerda* – oʻzbek tilida.
- 2) Koʻrsatish olmoshlari: *this (these), that (those)* – ingliz tilida; *этом (эму), том (me)* – rus tilida; *bu (bular), oʻsha (oʻshalar)* – oʻzbek tilida.

Ushbu guruhlardagi birliklar shaxs va predmetlarni nutqiy muloqot hududidan “yaqin” yoki “uzoq” joylashishiga nisbatan tavsiflash maqsadida

qo`llaniladi. Bunday tavsifda makonning uzoq yoki yaqinligi nafaqat so`zlovchiga, balki tinglovchiga – adresatga nisbatan belgilanishi ham mumkin. Bundan tashqari, harakatning kim tomonga yo`nalish olishi ham deyktik ibora qo`llanishiga ta`sir ko`rsatadi.

Harakat yo`nalishining qaysi makonga yo`l olishi fe`llar semantikasiga ham deyktik mazmun bag`ishlaydi. Binobarin, “*Xonaga kir*”, “*Uyga kel*”, “*Uyga ket*” kabi buyruq shakllarida deyktik ma`no borligi va ushbu ma`no so`zlovchidan uzoqlashish yoki yaqinlashish harakati bilan bog`liq ekanligi o`z isbotini topgan (ayrim fe`llar deyktik mazmunga ega ekanligini ilk bor qayd etganlardan biri Ch.Filmordir). Deyktik makonning uzoq yoki yaqinligidagi bunday farq nutq ontogenizida o`z aksini topar ekan, so`zlovchi tomon yo`naltirilgan harakat makoni ko`zga tez va aniq tashlanadi va shu sababli bo`lsa kerakki, yosh go`daklar “*bu*”, “*bu yerda*” kabilar bilan ifodalanadigan deyktik ma`noni tezroq o`zlashtiradilar. Boshqalari esa keyinroq o`zlashtiriladi. Bu deyktik iboralar “*u*” va “*u yerda*” birliklaridir, chunki ular mazmunida yosh bolaning bevosita ko`rish hududidan tashqaridagi obyektga ishora anglashiladi.

Eng qizig`i, ayrim tillarda deyktik makonning uzoq va yaqinligi yoki voqelik obyektining so`zlovchi ko`z o`ngida yoki uning nazdidan tashqarida bo`lishi o`z leksik-grammatik ifodasini topadi. Masalan, nemis tilida uzoqroqda joylashgan predmet ko`rinib yoki sezilib tursa, da “*u yerda*” ravishi qo`llansa, bu predmet sizilmay va ko`rinmay turganda dort “*u yerda*” ravishi ma`qul ko`riladi. Shuningdek, Amerika qit`asining shimoliy-g`arbidagi hindular tili tlingitda ko`rsatish olmoshlari “*aynan shu (shu yerda)*”, “*yaqindagi shu*”, “*u tomondagi shu*” mazmunlarini ifodalashlari bilan o`zaro farqlanadilar [21,81]. Bunday farqni biz o`zbek va boshqa turkiy tillar ko`rsatish olmoshlari tizimida ham sezamiz: “*bu*” (“so`zlovchiga yaqin”), “*shu*” (“adresatga yaqin”), “*u*” (“so`zlovchi va adresatdan uzoqda”).

Charlz Fillmor Indiana universiteti lingvistik klubida 1971 yilda o`qigan deyksis haqidagi ma`ruzasida deyktik iboralar nutqda qo`llanishini uch turga bo`lishini taklif qilgan:

- 1) “uzoqdagi” va “yaqinagi” obyektini bevosita ko`rsatish vazifasini bajaruvchi lisoniy belgi – jestlar (gestural use);
- 2) ma`lum axborot, bilim tashuvchisi (bu bilim ushbu muloqot vaziyatidan yoki mustaqil ravishda egallagan bo`lishi mumkin) bo`lgan ramziy belgi (symbolic use);
- 3) anaforik bog`lovchi sifatida [13,42].

Deyktik birlikning birinchi turdagi qo`llanishini *I want you to put it there* “*Uni o`sha yerga qo`yishingni istayman*” misolida ko`ramiz. Bu gap mazmunidan so`zlovchi bevosita makonga ishora etayotganligi anglashiladi. Telefonda gapirayotgan kishining *Is Johnny there? Jonni o`sha yerdami?* deb bergan savolida makonga ishora ramziydir (symbolic) va unda deyktik birlik there “sen(siz) turgan joyda(mi?)” mazmunini oladi. Xuddi shu birlikning anaforik o`rindosh sifatida qo`llanishini esa *I drove the car to the parking lot and left it there* “*Mashinani to`xtash joyiga haydab bordim va uni o`sha yerda qoldirdim.*” gapi misolida ko`rish mumkin. Bu holatda makon mazmunini beruvchi ibora (there) matnda oldindan eslatilgan makon, ya`ni “to`xtash joyi” iborasi bilan hamreferentdir.

Deyktik vositalarning jest-ishoraviy va ramziy (gestural and symbolic) qo`llanishidagi farqni ko`rsatish olmoshlarining turli nutqiy tuzilmalar tarkibida faollashuvi misolida ham sezish mumkin. Masalan, ma`ruza o`qiyotgan professor “*Bu barmoq – bosh barmoq*” desa, talabalar daftardan boshlarini ko`tarib, qaysi barmoq ekanligini ko`rishmoqchi bo`lishadi. Lekin domla “*bu bino*” birikmasini qo`llaganda, talabalar bosh ko`tarib qarashlariga uncha ehtiyoj yo`q, zero, ular, domla “*hozir men (biz) turgan bino*” mazmunini ifodalashga urinayotganligina fahmlab turishibdi. Birinchi holatda deyksis jest xususiyatiga ega, keyingisida esa ramziy.

Deyksis hodisasiga oid masalalar muhokamasi bilan mashg`ul olimlar makon va zamon deyksislaridan qaysi biri asosiy ekanligini aniqlashga intiladilar. Bunday muammo paydo bo`lishining sababi bu ikki turdagi deyksisning matn tarkibida o`zaro munosabatda bo`lishi, biri ikkinchisini taqozo

etishi, lozim bo`lganda, o`zaro o`rin almashtirishi mumkinligidadir. Bundan tashqari, yagona bir ibora vositasida ikkala deytik mazmunni ifodalash imkoniyatining mavjudligidadir. So`zsiz, makon deyksisi zamon deyksisiga nisbatan mantiqan va nutqiy faoliyatdagi o`rni jihatdan muhimroq. Boshqacha aytganda, makon deyksisi doimo yashirin(gan) zamon deyksisi bilan birikib ketadi.

Voqelikda kechayotgan hodisalar bayonida va ular haqida axborot uzatishda uning kechish davri, paytini ko`rsatish muhimdir. Bunday ko`rsatish vazifasini zamon (vaqt) deyksisi vositalari bajaradi. Zamon yoki temporal deyksisni ifodalovchi vositalar voqea sodir bo`layotgan hech qanday paytni ko`rsatmasdan, balki biror bir nutqiy akt ijrosidan oldingi yoki keying avrga ishora qiladi [68,184]. Haqiqatdan ham zamon deyksisi iboralarining ba`zilari ayrim vaziyatlarda o`tgan davrga ishora qilsa, boshqa vaziyatlarda qo`llanganda kelasi zamon mazmunini ifodalaydi:

- 1) *May oyining birinchi haftasidami? Men o`shanda Yaponiyada edim.*
- 2) *To`y shanba kunimi? Yaxshi, o`shanda ko`rishamiz.*

Ushbu turdagi nutqiy tuzilmalar mazmunini to`g`ri anglash uchun ularning aytilgan (bitilgan) paytini fahmlashimiz lozim. Agarda biz idora eshigidagi “Ikki soatdan so`ng qaytaman” yozuvining qachon osilganini bilmasak, xodimni qancha muddatga ketganini bila olmaymiz.

Zamon deyksisi ham (xuddi makon deyksisidek) makon va zamon tushunchalarining nodeytik voqelanishi (kontseptual va lisoniy bosqichlarda) bilan bog`liq hodisadir. Bu bog`liqlik zamon va makon maydonlarining semantic tarkibida o`z aksini topadi. Barcha til va madaniyatlarda zamon maydoniga oid tushunchalar kun vat tun, oy, mavsum, yil kabilarning almashinuvi bilan me`yorlanadigan o`lchovga egadirlar. Bu me`yor, o`z navbatida, *taqvimli* ko`rinishda yuzaga kelishi mumkin. Zamon tushunchalarining taqvimli voqelanishida Ch.Fillmor o`sha mashhur “Santa Kruz ma`ruzasi”da aytganidek, “voqealar biror bir mutlaq origo (lat. “manba”, “boshlang`ich nuqta” bilan bog`langan “mutlaq” davr (zamon)dan joy oladi”.

Masalan, bugun, erta, kecha kabilar deyktik o`lchovli deyktik birliklar qatoriga kiradilar va ular bir kunlik vaqt oralig`i me`yori bilan farqlanadi.

Taqvimli belgilar vaqt oralig`ining aniq o`lchoviga ishora qilmaydilar. Binobarin, *“Dushanba kuni ko`rishamiz”* gapining mazmunini to`liq anglash, qaysi dushanba nazarda tutilayotganini bilish uchun ushbu va`da qachon (qaysi kuni) berilayotganini bilish zarur (bu va`da yakshanba va seshanba kuni aytilishiga nisbatan vaqt o`lchovi bir kundan yetti kungacha farq qiladi). Shuning uchun ham taqvimli temporal birliklar aniq deyktik mazmun olishlarida aniqlovchilar yordamiga muhtojlik sezadilar: *o`tgan yakshanba, kelgusi juma, joriy yilning dekabri, shu kecha* kabilar.

Zamon deyxsisining temporal mazmun ifodasining asosiy manbalaridan bo`lgan zamon kategoriyasi bilan bog`liqligi masalasi muammo bo`lib qolmoqda. Ushbu kategoriyani deyxsis hodisasini shakllantiruvchi manbalar qatoriga kiritish uchun barcha gaplar nutqiy faollashganda zamon mazmunini ifodalaydilar, degan fikrni e`tirof etamiz. Ammo *“Uch karra uch to`qqiz”*, *“Pilla qurti tut bargini yeydi”* kabi gaplar qaysi zamonga (mantiqan) oid ekanligini bilish qiyindir.

Zamon kategoriyasining mundarijasi, uning semantik va shakliy – grammatik xususiyatlari haqida bu risola sahifalarida batafsilroq bayon berishning albatta imkoni yo`q. Ya`ni, haqiqatdan ham bu kategorial mazmunning deyxsis mayonida tutgan o`rni alohidadir. Ammo bajarilayotgan turli ish-harakat, faoliyatlarning zamon maydonida o`rin olishi turlicha kechadi. Ko`pchilik holatlarda kechayotgan faoliyat, hodisaning vaqt oralig`ida oladigan o`rni va davri aniq va ravshan bo`lsa ham, boshqa holatlarda bu o`rin va davr noaniq bo`lib qolaveradi. Sankt-Peterburglik tilshunos Aleksandr Vladimirovich Bondarko *“davriy makonga ega bo`lgan va davriy makonsiz harakat, faoliyat vaziyatlarini”* farqlashni taklif qiladi [44,210]. Ushbu nomuvofiqlikni o`z paytida sezgan polyak olimi E.Koshmider ham *“Uch karra uch to`qqiz”*, *“g`o`l qo`lni yuvadi”* qabilidagi *“umumiy haqiqat”*ni yoki mavhum faktlarni ifodalovchi tuzilmalarni vaqt oralig`i qatoridan o`rin olmaganligini qayd etadi.

Uningcha “vaqt oralig`ida joylashish” va bunday o`ringa ega bo`lmaslik o`rtasidagi farq grammatik shakllarda o`z ifodasini topadi [54, 131].

Yuqorida ko`rsatilgan farq asosan formal semantik xususiyatga ega. Bu hodisa pragmatik tahlil nuqtai nazardan olib qaralganda esa ular o`tasidagi nomuvofiqlikning keskin emasligi ma`lum bo`ladi. Buning isbotini ko`rsatilgan gaplarning matn tarkibida faollashuvi misolida izohlash mumkin.

Umuman, voqea sodir bo`lishi, ish harakat kechishi davriga oid mazmunuig Grammatik shakl mazmuniga mos kelishi doimiy talab emas. Binobarin, “*Teshaboy Boltaboyni urdi*” gapi kechki paytda aytilayotganda, “*Teshaboy Boltaboyni ertalab urdi*” mazmunini bersa, bu gap ertalabki paytda aytilganida esa voqea kecha sodir bo`lganligi haqidagi ma`lumot beradi. Shuningdek, ingliz tilida “*If I had car....Agarda mashinam bo`lganida (edi), (tezda etib kelar edim), If I was rich....Agar boy bo`lganimda (edi), sayohatga chiqqan bo`lar edim*” kabi tuzilmalarda temporal mazmun grammatik shakl bilan bog`liq emas. Boshqacha aytganda, bu tuzilmalardagi o`tgan zamon shakli voqeaning o`tgan yoki nutqiy akt bajarilishidan oldinga davrda sodir bo`lishidan ma`lumot bermaydi. Aksincha, izhor qilinayotgan istak, xohishning ijrosini hozir yoki kelajakda kutish mumkin. Shakl va mazmun o`rtasidagi bunday nomuvofiqlik doim kuzatilib turiladigan holatdir. Shuning uchun ham zamon kategoriyasi o`z formal ifodasini topmagan tillar (masalan, xitoy tili) temporal deyxsis mazmuni ifodasi imkoniyatidan mahrum deb, qaralmasligi kerak. Nutqiy harakat bajarilishi vaqt davriyligi doirasidan tashqarida hech qachon yuzaga kelmaydi. Har qanday muloqot ma`lum davrda kechadi, nutqiy harakat aniq bir vaqt oralig`ida ijro etiladi. Demak, zamon deyxsis nutqiy harakat mazmuni va mundarijasini bajarishda asosiy o`rinni egallaydi. G.Yul aytganidek, “deyktik iboralar chegaralangan miqdorda bo`lishlariga qaramasdan keng ko`lamda qo`llanadilar va ular har bir alohida qo`llanishiga nisbatan ko`proq kommunikativ mazmun ifodalaydilar” [36,16]. Zamon deyxsis ham bundan mustasno emas, bu turdagi deyktik belgilarning pragmatik mundarijasi

kontekst va soʻzlovchi (yozuvchi)ning kommunikativ maqsadi, muloqot intensiyasi bilan bogʻliqdir.

Bundan tashqari, deysis hodisasi muloqot tizimida yagona bir maydonni tashkil qilishini va ushbu maydonda markaziy (yadroviy) oraliq hamda chet qismlar mavjudligini unutmaslik kerak. Eng asosiysi, ushbu qismlarning sarhaddoshligi, oʻzaro munosabati, qayerda va qachin yuzaga kelishini aniqlashdir. Zamon va makon deysisi boshqa deytik mazmun ifodalovchilari uchrashadigan, oʻzaro qorishadigan hudud ekanligiga hech kimning gumoni boʻlmasa kerak. Bunday sarhaddoshlar qatoriga odatda sotsial (ijtimoiy), diskurs va modallik deysislari kiritiladi.

Diskurs turidagi deysisni alohida hodisa sifatida ajratib olib oʻrganish lozimligini targʻib etganlardan biri R.Lakoffdir [20,128]. Olima zamon-makon deysisi bilan bir qatorda emotsional va diskurs deysisini ham alohida ajratib oʻrganishni taklif qilgan. Diskurs yoki matn deysisi matnning maʼlum qismiga ishora qiluvchi iboralarning qoʻllanishida namoyon boʻladi. Masalan, *“har holda”*, *“aksincha”* kabi iboralar matnning oldingi yoki keyingi qismlariga ishora vositasidir. Bunday iboralarning deytiklar qatoriga kiritilishining sababi ular ishtirokida tuzilgan nutqiy strukturalarning referentini matndan izlash imkoni mavjudligidadir. Ular *“navbatdagi bobda”*, *“oxirgi abzatsda”*, *“kelgusi yakshanba”* kabi iboralardek matnda deytik maʼnoni oladilar. Shuningdek, koʻrsatish olmoshlari *“bu”*, *“oʻsha”*, *“u”* ham matnning oldingi va keying qismlariga ishora qiladilar: *Bu hikoyani eshitmaganingiz maʼqul; Bu men oʻqigan hikoyalar ichida eng maʼquli edi.*

Diskurs deysisining anaforaga juda ham yaqin hodisa ekanligi haqida yuqorida maʼlum qilingan edi. Anaforaning birgina gap tarkibida, bir necha gaplar munosabatida, matnda yuzaga kelishi qayd etilgan. Deysis va anaforaning moslashuvi, oʻzaro munosabatda boʻlishi ham eʼtirof etilgan. Deytik iboralar referent haqida maʼlumot bersa, anaforik olmoshlar ushbu voqelik (obyekt)ni qayta takrorlaydilar. Ammo bu ikki hodisa oʻrtasidagi farqni ham topmoq lozim: olmosh yoki boshqa ibora matnning maʼlum qismiga ishora

qilganida diakurs deyksisi mavjud, biroq olmosh va matndagi boshqa bir lisoniy belgi bir xil referent bilan bog`liq bo`lganida, anafora hodisasi namoyon bo`ladi.

Anafora va diskurs deyksisini farqlash muammosi pronominalizatsiya, ya`ni otlashish hodisasi talqini bilan ham bog`liq. Bu borada, dastlab, “yalqovlik olmoshi” (pronoun of laziness) deb nom olgan holatni eslamok kerak [24,673].

*The man who gave his paycheck to his wife was wiser than the man who gave it to his mistress.*

“O`z bank to`lovi (cheki)kitobchasini xotiniga bergan odam o`z xonimiga (sevganiga) bergan kishidan aqllidir”.

Ushbu gap tarkibidagi it olmoshi paycheck bo`lagiga hamreferent bo`lmasdan balki to`liq bir the paycheck of the man whose mistress got it “o`sha odamning sevgilisiga bergan bank to`lovi cheki” mazmunidagi ot frazasining o`rnini oladi deb hisoblaanadi.

Xuddi shuningdek, olmoshlarning nutqiy faollashuvida shunday holatlar uchraydiki, bunday hodisalarni anafora hodisasi doirasiga kiritish mushkuldir:

- *I have never seen him. Men uni hech qachon uchratmaganman.*
- *That`s a lie. Bu yolg`on!*

Ushbu dialogda that “*bu*” olmoshi anaforik bog`lovchi vazifasini o`tamaydi, uning referenti birinchi luqma-gapning propozitsiyasidir. Olmoshlarning “muallaq” holatda qo`llanishiga e`tibor qaratgan J.Layonz bunday qo`llanishda noto`g`ri matn deyksisi “impure textual deixis” yuzaga keladi deb hisoblaydi [24,670]. Ammo that “o`sha” olmoshining matnda anafora yoki unga yaqin vazifada qo`llanishi umumiy holat ekanligini ham unutmaslik kerak. Olmoshning bunday vazifasi faollashuvida referent o`zgarmaydi [9, 332]: *Every girl brought her favorite piece of clothing to school and wore that to the party rather than her\_”Har bir qiz maktabga o`zi yoqtirgan birorta kiyimini olib kelar edi va uni forma sifatida emas, balki tantana (kecha)dagidek kiyar edi”.*

Nutq tizimida bunday holatlarning yuzaga kelishi anaphora har qanday ko`rinishda ham deyksis bilan “to`qnashishi”, bu ikki hodisaning uzluksiz o`zaro munosabatda bo`lishidan guvohlik beradi.

Barcha tillarda nutqiy harakatni muloqot matnining oldingi qismi bilan bog`lovchi iboralar, birliklar to`plami mavjudki, ularning bajaradigan vazifasini diskurs deyksisi sifatida ta`riflasak, xato bo`lmasa kerak. Bunday iboralar qatoriga ingliz tilidagi *but, therefore, anyway, well, besides, all in all, so, after* hamda o`zbek tilidagi *ammo, lekin, biroq, aksincha, shunday qilib, shu bois, har holda, aniqrog`i, bundan tashqari* kabi birliklar kiradi. Ularning asosiy vazifasi matnning oldingi qismiga ishora yoki o`sha qismdagi mulohaza-savolga javobni tayyorlashdir.

Ma`lumki, matnning tarkib topishi, uning mundarijaviy shakllanishi uzatilayotgan axborotning mazmuniga bog`liqdir. Axborot mazmunining muhim qismlari yoki “asosiy mavzu” nutqiy bayonda alohida ajratilib, bo`rttirib ko`rsatilishi talab qilinadi. Mazmunning asosiy, muhim qismlarining bo`rttirib ko`rsatish masalasi tilshunoslar e`tiborini ilgaridan jalb qilib kelmoqda. Praga lingvistik to`garagi vakillari qo`llagan gap tarkibini tema va rema qismlariga ajratib o`rganish an`anasi barcha tillar tizimi tahliliga tatbiq etildi. Ammo ushbu tahlil metodi ko`proq gap sintaksisi doirasida qo`llanilmoqda. Bu hatto “tema” tushunchasining qomusiy ta`rifida ham o`z aksini topgan: tema- ma`lum gapda ta`kidlanadigan ma`lumotdir [62, 180]. Amalda, axborot mazmunining asosiy qismi nutqiy faoliyatda, matn doirasida namoyon bo`ladi. Shuning uchun “topik – izoh” (topic – comment) tushuncha – atamalariga murojaat qilsak to`g`riroq bo`ladi.

Har bir muloqot matni o`z asosiy mavzusiga, topikiga ega va bu asosiy mavzu negizida muloqot birligining makropropozitsiyasi yoki makrostrukturasi yotadi. [36,71]. Makropropozitsiyaning lisoniy voqelanishi topik (asosiy mazmun)ning shakllanishi va uning matndagi ifodasiga sabab bo`ladi.

Kognitologlarning kuzatishicha, makropropozitsiyaning hosil bo`lishi makro propozitsiyalar to`planishi va tartiblashuvi jarayonini aks ettiradi. ma`lum

bir Qatordan o`rin olayotgan mikropropozitsiyadan birortasini faollashuvi, asosiy o`ringa chiqishi natijasida axborotning fokusi (foci) va topik yuzaga keladi.

Topikning matnda ifodalanishi turli holatlarda turlicha kechadi. Ayrim tillarda topikni formal-grammatik ifodalash vositasi mavjud. Masalan, yapon tilidagi *Anohon-wa Kguch-ga kat-ta "Koguchi sotib olgan o`sha kitobni"* gapida *ano-hon-wa "o`sha kitob"* bo`lagi topikdir va ushbu topikni ifodalovchi *-wa* morfemasidir. Gapning egasini esa *-ga* morfemasi belgilaydi. Ingliz va o`zbek tillarida esa axborotning diqqatni qalb qiluvchi qismi ko`pincha intonatsiya va so`z tartibining o`zgarish yo`llari bilan ifodalanadi va ushbu qism nutqiy tuzilmalarning old qismlaridan o`rin oladi.

Topikni belgilovchi va nutqiy ifodalovchi vositalar muloqot matnining oldingi qismida qayd etilgan yoki keyin beriladigan ma`lumotni ko`rsatish, ushbu ma`lumotning muhimligiga ishora bo`lganligi uchun odatda deytik vositalar qatoriga kiritiladilar. Diskurs (matn) deyksisi bevosita topic-izoh hodisasi va bu hodisani shakllantiruvchi strukturalar bilan bog`liq ekanligi hech qanday gumon tugdirmasa ham, ammo ushbu bog`liqlikning nazariy tahlili va ilmiy asosi hozircha o`z navbatini kutmoqda.

Deyksis kategoriyasiga pragmalingvistikaning asosiy tadqiq obyektlaridan biri sifatida qaragan G.Yul shaxs deyksisining uch qisimli ekanligini ("*men*", "*sen*", "*u*") qayd etayotib, e`tiborini dunyoning ko`pgina tillarida so`zlovchi, adresat va uchinchi (kuzatuvchi yoki muloqot ishtirokchisi bo`lmagan) shaxs-jamiyatda turgan ijtimoiy mavqeiga nisbatan nomlanishlariga e`tiborni qaratadi. Eng asosiysi, bu tillarda shaxs ijtimoiy mavqei maxsus lisoniy birliklar, grammatik shakllar vositasida ifodalanadi. "Honorifiklar" (honorific) deb atalayotgan ushbu birliklarning nutqiy muloqot matnlarida qo`llanishi sotsial deyksis hodisasining namunasi sifatida talqin qilinadi [36, 11].

Sotsial deyksisni faqatgina Janubiy-Sharqiy Osiyo tillari (masalan, xitoy, yapon, koreys tillari)da tarqalgan maxsus grammatik shakllar – "honorifiklar" tizimi bilan bog`lash ushbu hodisaning tor ma`nodagi talqiniga sabab bo`lishi

mumkin. Menimcha, Ch. Fillmorning sotsial deyksisni “gaplarning nutqiy akt ijro etilayotgan ijtimoiy muhitning amaliyligi bilan shartlangan va ushbu amaliylikni aniqlab, aks ettiruvchi xususiyatlarga oid hodisa” [13, 78], deb qarashi ancha haqiqatga yaqindir. Ammo ushbu ta`rif ham to`liq darajada qoniqarli emas. Birinchidan, sotsial deyksis mazmunini gap doirasida amas, balki muloqot matni tarkibida hosil bo`luvchi fakt sifatida qarash lozim. Ikkinchidan, kommunikantlar ijtimoiy mavqeining qaysi belgilari qanday holatlarda kommunikativ munosabatlarda aks topib, matn tarkibida lisoniy voqelanish darajasiga yetib kelishini e`tiborga olmasdan turib, sotsial deyksisning mundarijasini va mohiyatini yoritib bo`lmaydi.

Ushbu fikrni isbotlash uchun g.Yul keltirgan bir misolga murojaat qilishga to`g`ri keladi. Ma`lumki, hozirgi zamon ispan tilida ikkinchi shaxs olmoshlari, xuddi o`zbek tilida bo`lganidek, “*sen*” va “*siz*” ko`rinishiga ega: tu / usted. Ammo hozirgi paytda hurmat ma`nosida qo`llanilayotgan “Usted” tarixan uchinchi shaxs olmoshi bo`lgan. Muloqot jarayonida uning ishtirokchilari o`rtasidagi kommunikativ masofani ifodalashga bo`lgan ehtiyoj uchinchi shaxs olmoshinong vazifaviy ko`chishiga sabab bo`lgan va Usted sotsial deyksisning ifoda vositasiga aylangan. Aynan shunday vazifaviy ko`chish holatlari o`zbek tilida ham kuzatiladi: “*O`zlari keldilarmi?!*” (“*Keldingizmi?!*” ma`nosida) yoki “*Unga gapiraman sen eshit*” qabilidagi “*O`rinlarini yig`ishtirib olsalar yaxshi bo`larmidi?!*” bilvosita nutqiy aktlaridir.

Lison borliqni idrok etish va uning haqida axborot uzatish vositasi ekanligi haqida gapirildi. Ammo lison borliqni aynan aks ettirmaydi, u borliq bilan o`z ichki tuzilishi orqali munosabatda bo`ladi. Tillar o`z tuzilishi va grammatik tuzilishi bilan farq qiladilar. Hind-yevropa va turkiy tillar oilasiga mansub tillar grammatik tizimada birlak va ko`plik (ba`zan juft) son shakllari mavjud bo`lgan bir paytda, Janubiy-Sharqiy Osiyo tillarida idrok qilinayotgan xususiyatlarning sonini ko`rsatish shart emas. Shuningdek, oxirgi guruhdagi tillarda fe`llar shaxs kategoriyasiga ega emas, ammo ularda sotsial mavqe tizimiga ishora qiluvchi shakllar mavjud. O`zbek tilida ham fe`l shakllarida

hurmat kategoriyasi o'z ifodasini topadi ("Janobi oliylari tashrif buyurdilar"), ammo ot tizimida, german va roman tillarida bo'lganidek, aniqlik/noaniqlik ma'nolari grammatik ko'rinishni olmaydi. Masalan, ingliz tilidagi *A house is on the hill gapidagi noaniqlik mazmuni "Tepalikda qandaydir uy turibdi"* qabilida tushunilsa, *The house is on the hill gapi esa "(Bu/O'sha) uy tepalikda turibdi"* ko'rinishida o'giriladi.

Lisoning borliqni idrok etishdagi rolining muhimligini uqtirgan E.Sepir o'z paytida, bu idrokni lison ishtirokisiz kechishi mumkinligi haqida o'ylab ham ko'rmaslikka chaqirgan edi: "Odatda, o'ylaganlaridek, insonlar obyektiv dunyoda va ijtimoiy faoliyat dunyosida oddiygina emas, balki ular katta miqyosda ushbu jamiyat uchun ifoda vositasi xizmatini o'tayotgan tilning ta'siri ostida yashaydilar. ... aslida, ushbu "obyektiv borliq" beixtiyor ma'lum guruhga xos bo'lgan lisoniy normalar (me'yorlar) doirasida tarkib topadi. Biz u yoki bu hodisalarni asosan bizning jamiyatimizda barqaror bo'lgan lisoniy me'yorlar aynan shu ifoda shaklini tanlaganligi sababli xuddi shu yo'sinda ko'ramiz, eshitamiz hamda idrok etamiz". Ustozining ushbu ta'rifini o'z maqolasida epigraf sifatida tanlagan Benjamin Uorf lisoning inson faoliyatiga ta'sirini uning qo'llanishidagi umumiy qonuniyatlardan izlash bilan chegaralanib qolmasdan, balki hodisalar bahosida ham ko'rish lozimligini alohida ta'kidlaydi [67, 198].

Keyinchalik tilshunoslar tomonidan "Sepir-Uorf farazi" deb nomlangan ushbu g'oyani eslatishdan maqsad – sotsial deyksis mazmuni va ifodalanishini faqatgina grammatik shakllar tizimidan izlash shart emasligini isbotlashdir. Ushbu mazmuni ifodalovchi manba turli tillarda turlicha bo'lishi aniq, har qanday tilde so'zlashayotgan shaxs axborot uzatish bilan bir qatorda ushbu axborotga hamda muloqotdoshga bo'lgan munosabatlarini ham bildirishga majbur. Suhbatdoshga nisbatan bildirilayotgan munosabat yashirin yoki ochiq, ijobiy yoki salbiy, bevosita yoki bilvosita va boshqa ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Bu turdagi munosabatlarning barchasi sotsial deyksis mundarijasida o'z aksini topadi. Sotsial deyksisga xos bo'lgan belgi-munosabatlarning turli

ijtimoiy guruh va muloqot muhitlarida turlicha namoyon bo`lishini ham unutmaslik kerak. Bunday farq hatto muloqot ishtirokchilarining jinsiga ham bog`liqdir. Masalan, honorifik vositalarning ayollar nutqida ko`proq uchrashi ma`lum. Yapon ayollari erkaklar faqatgina yuqori tabaqali shaxslarga nisbatan qo`llaydigan hurmat shakllarini oddiygina notanish shaxslar bilan tanishuv vaziyatlarida ham qo`llashlari qayd etilgan [62, 193].

Har qanday til va madaniyatda sotsial deyksisning ikki asosiy turi o`z belgisiga ega. Bular, ijtimoiy mavqening doimiyligi va o`zgaruvchan yoki nisbiyligi aks topishiga nisbatan, mutlaq sotsial deyksis (absolute) va nisbiy (relational) sotsial deyksis yorliqlarini olishgan [21, 90]. Sotsial deyksis mazmunining nisbiyligi o`z navbatida, so`zlovchining referent, adresat, kuzatuvchi (3-shaxs) va ijtimoiy muhitga bo`lgan munosabatida, nutqiy faoliyat harakatlarining ular bilan bog`liq holda kechishida namoyon bo`ladi. Bundan tashqari, bu bog`liqliklar ko`pgina holatlarda ma`naviyat va madaniyat qadriyatlariga qaram holda shakllanadilar. Xususan, ayrim tillarda suhbatdoshlar ijtimoiy mavqening grammatik tizimda aks etishini qarindoshlik, urug`chilik kabi tabaqalanishlar munosabatida ham ko`rish mumkin. Barcha madaniyatlarda mavjud bo`lgan murojaatning tabu shakllari (masalan, er-xotinning bir-biriga farzandining ismi bilan yoki “*dadasi*”, “*onasi*” shakllaridagi murojaati) shunday munosabatlarning lisoniy voqelanishiga misoldir.

Muloqot shakllarining ijtimoiy muhit bilan bog`liqligi haqida aytib o`tilgan edi. Bunda muloqotning rasmiy va norasmiy ruhda kechayotganligi alohida e`tiborga loyiq. Chunki rasmiy va norasmiy munosabatlarning grammatik va lug`aviy birliklar vositasida belgilanishi qariyb barcha tillar uchun umumiy qoidadir. Ammo ba`zi tillar uchun bu qoida o`ta majburiy xususiyarga ega bo`lib, ushbu tillar grammatik tizimidan mustahkam o`rin egallaydi. Bu borada, ayniqsa, yapon va koreys fe`l tizimi alohida ajralib turadi. Birgina “*o`qi*” imperativi “*yo me*” (*o`ta qo`pol*), “*yonde*” (*buyurilganda*), “*yonde kure*” (*biroz yumshoqroq, o`zidan past mavqedagiga buyurilganda*, “*yonde o-kure*” (*yanada yumshoqroq*), “*yonde yare*” (*qo`pol*, “*uchinchi shaxsga o`qib*

*ber*” mazmunida), “*o-yomi, yonde tyoday, yominasay, yomitamae*” (norasmiy muloqotda), “*o-yominasay*” (bir oz hurmat ma`nosida), “*yonde kudasay*” (hurmat shakli), “*o-yomi kudasay*” (ehtiroimli “*marhamat, o`qing*” mazmuniga ega), “*o-yomi kudasaimasi*” (o`ta ehtiroimli) kabi shakllarda ifodalanishi mumkin [38, 73].

Sotsial deyksis belgilari, ayniqsa, marosimiy (ritual) nutqiy faoliyatda yaqqol ko`zga tashlanadi, zero, bu faoliyatda shaxslar o`rtasidagi munosabat mutlaq (absolyut) ko`rinishni oladi. Bu munosabatlar doirasida muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeini farqlashda tinglovchi va so`zlovchining tabaqasi bir xilda e`tiborga olinadi hamda shunga nisbatan ularga vakolat beriladi. Bunday vakolatlarni farqlash rituallashgan nutqiy faoliyat kechishining asosiy me`yorlaridan biridir.

Rituallashgan nutqiy faoliyatning talabi jamiyatda qabul qilingan etiket qoidalariga amal qilish va “ma`lum hududdagi o`yin qoidalarini bilishdir” [52, 48]. Ushbu turdagi nutqiy faoliyat muloqotning qat`iy tartibga tushirilgan barcha tillariga oid bo`lishi mumkin. Uning *salomlashish, tabriklash, tashakkur izhor qilish, hamdardlik bildirish* kabi turlari bilan bir qatorda, *nikoh o`qish, duo o`qish* kabi murakkablashgan turlari ham mavjud. Rituallashgan nutqning eng murakkab ko`rinishlari sifatida parlament muloqoti, diplomatik muloqot, davlat rahbarlarining maktub almashinuvlari kabilarni keltirish mumkin. Muloqotning oddiy turlarida sotsial deyksis belgilari ma`lum sharoitlarda o`zgarib turishi mumkinligi ma`lum. Ammo ritual nutqda bu narsa qariyb kuzatilmaydi, sotsial deyksis mazmunan va shaklan turg`un ko`rinishga ega bo`ladi.

Demak, sotsial deyksis muloqotning samarali kechishini ta`minlovchi hodisalardan hisoblanadi. Ammo ushbu hodisaning mohiyatini aniqlashda “o`lchov me`yori” sifatida faqatgina nutq muallifining ijtimoiy mavqeiga murojaat qilish yetarli emas. Muloqot shaklida tinglovchining mavqei ham muhim o`rin egallaydi. Bunday yondashuv sotsial deyksisning pragmatik hodisa sifatida mavjudligiga hech qanday shubha qoldirmaydi hamda Sankt-Peterburg universitetining marhum professori V.V.Burlakovanning muloqot jarayonida

“soʻzlovchining oʻzgarishi va uning oʻrnining oʻzgarishi shaxsning ijtimoiy statusiga taʼsir oʻtkazmaydi”, degan daʼvosi [46,88] qanchalik asossiz boʻlganligidan darak beradi. Yaxshisi ijtimoiy mavqe doimiy va oʻzgaruvchan xususiyatga ega boʻlgani kabi matnda sotsial deyksis belgilari ham koʻchib turishi mumkin, desak toʻgʻriroq boʻlardi.

## **I BOB YUZASIDAN XULOSALAR**

Deyksis hodisasi va uning tadqiqot obyekti tilshunos olimlarimizning fikr-mulohazalariga asoslangan holda yuqorida koʻrib chiqildi. Ana shu qarashlarga muvofiq tarzda deyksisning ahamiyati, uning til tizimida tutgan oʻrni va turlari borasida quyidagi xulosalarga kelamiz:

1. Deyksislar boshqa til birliklari singari ifodalovchi va ifodalanuvchi jihatlarga ega. Faqatgina ularning semantik maʼnosi paradigmatic qatorda turgan paytda nisbatan mavhumroq boʻladi. Deyktik birliklar sintagmatic qatorga oʻtgandan soʻng, albatta, ularning ifodalanuvchi, yaʼni maʼno jihati yaqqol koʻzga tashlanadi. Zero, tilimizdagi barcha birliklar nutq faoliyatida aktuallashtirish maʼlumot almashish vazifasini oʻtaydi.
2. Deyktik birliklar hozirgi zamon tilshunosligining asosiy tadqiqot obyektlaridan hisoblangan makrolingvistik mahsul boʻlib, katta sintaksis birliklarining boʻgʻlovchilari hisoblanadi.
3. Deyksislar pragmatiklikning mahsul boʻlsada, boshqa til sathlari bilan bogʻliq ravishda ish tutadi. Chunki deyktik birliklarni oʻrganish jarayonida biz ularning morfologik xususiyatlari, sintaktik sathdagi tutdan oʻrni, hatto semantik maydoniga eʼtibor qaratgan holda koʻrib chiqamiz.
4. Deyktik birliklar shaxs, zamon va makonni ifodalash, koʻrsatish bilan bir qatorda aytilgan fikrga yoki aytiladigan fikrga munosabatga ishora (diskurs deyksisi), voqelikni baholashga boʻlgan munosabatga ishora (emotsional deyksis) va ijtimoiylikka boʻlgan ishora(sotsial deyksis)ni ifodalab kelishi mumkin.

## II BOB. EMOTSIONALLIK – PRAGMATIK JARAYON

### 2.1. Emotsionallik kategoriyasi lingvistikaning tadqiqot obyekti sifatida

Emotsionallik va uning pragmatikaning obyekti ekanligi haqida ushbu bobning birinchi qismida to`xtalib o`tildi. Ma`lumki, emotsionallik shaxsning voqelikni baholash jarayoni, uning natijasi bo`lib, ma`lum bir til birligi yoki boshqa vositalar yordamida (masalan, ohang) namoyon bo`ladi. Ana shu til birliklari esa emotsional deysis hisoblanadi. Emotsionallikning ifodalanishi har bir tilda o`z ichki qonuniyatlariga asoslangan holda ro`yobga chiqadi. Har qanday voqelikni baholashda uch unsur mavjud bo`ladi. Bular voqelikni qiyosan baholash uchun namuna sifatini o`tovchi etalon, me`yor va ning ahamiyati hisobga olinadi. Emotsionallikni ifodalashda bevosita his-hayajonni bildiruvchi so`zlar ishtirok etadi. Ammo buning o`zi bilan kifoyalanib bo`lmaydi. Chunki so`zlovchi voqelikka bo`lgan munosabatini boshqa deytik birliklar vositasida ham namoyon qiladi.

Emotsionallikni ifodalashning eng oddiy yo`llaridan biri his-hayajon ifodalovchi va undov so`zlar yordamida ifodalanishidir.

Deyksisning boshqa turlari haqida yuqorida atroflicha ma`lumotlar keltirib o`tildi. Ammo ularning ichida emotsional deysis haqida alohida to`xtalib o`tilmadi va buning boisi , ushbu bobning keyingi qismida deysisning emotsional turiga alohida urg`u bilan to`xtalishimiz edi. Umuman olganda, emotsionallik bu insonga xos hissiyot, uning ichki kechinmalari bo`lib, sodir bo`ladigan yoki bo`lib o`tadigan voqea-hodisalarga nisbatan berilgan bahosi, uni qay yo`sinda idrok qilib o`z shaxsiy kechinmalarini til birliklari vositasida ma`lum qilishi nazarda tutiladi. Shuningdek, emotsionallik kishilarning madaniyati, yashayotgan muhiti, jamiyatda tutgan o`rni, yoshi, kasbi va shaxsiy individual xususiyatlariga qarab turlicha bo`ladi. Bunga sabab esa, voqelikka bo`lgan munosabat va uni baholash darajasi har bir insonning o`z ixtiyoriga bog`liq ravishda paydo bo`ladi. Voqelikdagi predmet-hodisalarning idroki bir xilda kechmaydi. Turli shaxslar yagona bir voqelikka turlicha, o`z nuqtai

nazarlari bilan qaraydilar, uni idrok etishda shaxsiy motivlariga ega bo`ladilar. Har bir shaxsning voqelikni baholash me`yori (o`lchovi) mavjud va bu “shaxsiy o`lchov” to`g`ridan-to`g`ri nutqiy faoliyatda o`z aksini topadi. Umumiy tilshunoslik fanining asoschilaridan biri bo`lgan Vilgelm fon Humboldt predmetlar idroki subyektivlik xususiyatiga ega ekanligini va bu subyektivlik til qurilishida aks etishini ta`kidlab, so`zni predmetning aynan aksi emas, balki inson qalbida hosil bo`lgan timsol (obraz)ning in`ikosi sifatida qarash lozimligini uqtiradi. Har qanday obyektiv idrokka subyektivlik hamroh bo`lishini inobatga olib, “Har qanday individual insonni, hatto lisonga e`tibor bermagan holda ham, olam idrokida alohida nuqtai nazarga ega deb hisoblash kerak” [50, 80]. Olmon faylasuf-tilshunosining ushbu fikri ko`pchilikka ma`qul kelishi aniq. Lisona subyektivlik mavzusini davom ettirgan farang tilshunosi Emil Benvenist “lisoniy faoliyatda insonning o`rni betakroridir”, deb xitob qiladi, chunki “har bir so`zlovchi shaxs o`zini nutqda o`ziga “men” sifatida ishora qilayotgan subyektdan tasavvur qiladi” [62, 182]. Voqelikning tafakkur va lisonidagi aksi, ifodasining subyektivligi psixologlar tadqiqotlarida ham o`z tasdig`ini topgan. L.S.Vigotskiy birinchilardan bo`lib tafakkur faoliyatining affektiv manbalari mavjudligini nazariy jihatdan asoslashga harakat qildi. U mazmun (“смысл”) tushunchasini lisoniy belgi ma`nosiga nisbatan subyektiv shaxsiy tajriba jarayonida tug`iladigan emotsional munosabatlarni atashda qo`llashda tavsiya qilgani ma`lum [47, 369]. “Shaxsiy mazmun” atamasini amaliyotga kiritgan A.N.Leontyev (1977) ham his-tuyg`u subyekt faoliyatida paydo bo`ladigan shaxsiy mazmuni shakllantiruvchi omil, vosita bo`lishini e`tirof etadi.

Bularning barchasi nutqiy faoliyatning shaxsiga oid tomonlari, individual deyksisning mavjud ekanligidan darak beradi. Bunday deyksis emotsional deyksis ko`rinishiga ega va u nutqiy muloqot ishtirokchilarining lisoniy faoliyati amallarini belgilab beradi.

Ma`lumki, til olamni bilish vositasidir. Uning vositasida inson ijtimoiy-madaniy voqelikda o`z o`rnini topadi, faoliyat mo`ljalinini oladi. Mo`ljalni toppish

uchun me`yoriy o`lchov belgisi, ya`ni etalonni aniqlash lozim. Ushbu etalon – namuna asosida idrok qilinayotgan voqelikning idrok etuvchi shaxs uchun muhim, “qadrli” tomonlari aniqlanadi. Obyektning muhim tomonlari uni baholash uchun asosdir. Nutq va matn faoliyati insonning mo`ljol olish faoliyati sifatida qaralishi mumkin va bu faoliyat jarayonida voqelik “qiymatli qismlarga ajratiladi. Bu qismlarning ajratilishi, birinchidan, lisoniy me`yorga ega bo`lsa, ikkinchidan, so`zlovchi – subyektning shaxsiy ehtiyoji, tanlovi talablariga javob berishi kerak [45;55]. Xuddi shu faoliyat asosida yana bir mantiqiy jarayon, ya`ni qadriyatga nisbatan qiyoslash harakati yuzaga keladi. Qiyoslash ham turli ko`rinishni oladi va baholash, me`yorlashtirish harakatlari bilan hamrohlik qiladi. Qiyoslash asosida yuzaga keladigan baho darajasi esa doimiy ravishda pragmatic omillar ta`sirida bo`ladi. Pragmatikaning ta`sir doirasi shu qadar kuchliki, hatto qiyoslash namunasi (etaloni) tanlovi ham ixtiyoriy tus olib, erkin kechadi. Shu sababli bo`lsa kerakki, darajalanish muammosiga ko`p vaqti va kuch-quvvatini sarflagan olimlardan biri D.Bolindjer “Gradatsiya (darajalanish) so`zlari tilni qat`iy va majburiy tizim sifatida tasavvur qilish noto`g`ri ekanligidan guvohlik beradi” da`vosida o`zini haqli deb hisoblaydi [7, 19].

Umuman olganda, har qanday hissiyotli harakat kognitiv asosga ega ekanligini unutmaslik kerak. Borliq idroki bilimsiz kechmaydi, idrokning har qanday bosqichi ongli ravishda shaxsning bilimi doirasida kechadi. Demak, qiyoslash va baholash harakatlari qanchalik emotsional xususiyatga ega bo`lmasin, oxir oqibatda kognitiv faoliyatning bir qismi bo`lib qolishadi. Qiyoslash va baholash insonning qaysi namunani va qanday qarajalanish me`yorini tanlashi bilan bog`liq. Kognitiv psixologiyada idrokning epistemologik (bilish) faoliyati bilan doimiy aloqadorligi alohida ta`kidlanadi. Inson idrok qilinayotgan obyektning qaysi tomonga, jihatlariga ko`proq e`tibor berishi uni idrok faoliyatiga undayotgan vaziyat va maqsad bilan hamda uning shaxsiy kommunikativ “dasturi” bilan bog`liqdir. Bu “dastur” tanlovga undaydi va shaxs, har qanday faoliyat turida bo`lganidek, tanlov faoliyatida ham o`z ijtimoiy tajribasiga tayanadi.

Ingliz faylasufi P.Nouell-Smitning “dunyoda tanlov imkoni bo`lmagan taqdirda qadriyatlarni baholash (appraising) va darajalash (grading) tushunchalari ham tug`ilmas edi” degan fikrini davom ettirgan N.Arutyunova “Baho predikatlarining barcha vazifalari va qo`llanish usullari tanlov tushunchasi doirasida birikadilar” deb ta`kidlaydi [41, 50]. Haqiqatdan ham, nutqiy faoliyat tashabbuskori, ya`ni so`zlovchi shaxs obyekt haqidagi ma`lumotni tinglovchiga yetkazish uchun ushbu obyektning “qandaydir” xislatini tanlaydi va shu xislat asosida obyektga baho beradi hamda baho ma`lumotini adresatga uzatadi. Bunday baho berish axboroti esa, o`z navbatida, tinglovchiga ta`sir o`tkazish va uni biror bir hatti harakat, faoliyatga undash maqsadi uchun xizmat qiladi. Oksford maktabiga mansub yana bir ingliz mantiqshunosi P.Xearning yozishicha, baho – nutqda tavsiya, maslahat, ko`rsatma va hatto amr mazmunlarini ifodalash qobiliyatiga ega. Masalan, “qizil mashina” va “yaxshi mashina” iboralarini solishtirsak, ulardan birinchisida obyektning tavsifiy, ya`ni deskriptiv (descriptive) xususiyati ifodalanadi, ikkinchisida esa, obyektning ta`rifiy xususiyati aniqlanib, baho (evaluative) belgisiga ishora qilinmoqda. Natijada “Bu yaxshi mashina” nutqiy harakati nutqiy adresatga shu rusumli mashinani sotib olish tavsiyasini berishi mumkin. Bunday hollarda baho predikatining tavsiya, maslahat mazmuni va vazifasi (recommendatory function) faollashadi [69,187; 65,129].

Nutqiy birliklarning evolyuativ, ya`ni baholash vazifasini keng ma`noda tushunish lozim. Zero, tafakkur faoliyati qiymatlarga tayanadi va baho mezoni bo`lgan qiymat tabiiy va madaniy asosga ega bo`lishdan tashqari, etik, estetik hamda lisoniy xususiyatga ega bo`lishi ham mumkin. O`tgan asrning 20-yillarida rus filologi M.M.Baxtin (Voloshinov) “har qanday nutqiy birlik baholash mo`ljolidir” deb xitob qilgan edi. Bunday xitobning sababi bor, chunki inson diskursiv faoliyatining o`zi baholash harakatlarining bosqichma-bosqich munosabatini yuzaga keltiradi. Farang tilshunosa Djan Peytarning ta`biricha, baholash faoliyati qiymatlar qiyosi sifatida ijtimoiy xususiyatga ega va u “sotsial baholash harakati biror bir nutqiy harakatni boshqalariga nisbatan vaziyatga

moslashtirish istagi natijasida paydo bo`ladi” [25,21], deb hisoblaydi. Demak, baholash faoliyati inson lingvokognitiv faoliyatining mahsulidir. Baholash harakatining har qanday ko`rinishi idrok va nutq subyekti faoliyati bilan bog`liq holda tavsiflanishi sababli bu harakatlarni emotsional deysis hodisasining ajralmas qismi sifatida ta`riflash ma`qulroqdir.

Deyksis hodisasining tabiati va vazifaviy xususiyatlari haqida ushbu bobda bildirilgan mulohazalarni umumlashtirilgan holda quyidagi fikrlarni keltira olamiz.

Deyksisning kategorial belgilari va ifoda vositalarini qiyosiy-tipologik tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish niyatini ko`zlagan professor Sotiboldi Raximov qariyb 20-yil oldin ushbu hodisaning til tizimining qaysi sathiga oidligini aniqlash muammosini muhokamaga qo`yganligini bilamiz. Bu muammo ustida bosh qotirgan olim til tizimi bilan bir qatorda *til birliklarining qo`llanish tizimi* ham mavjulgini qayd etadi, bu tizim til birliklarining nutq tarkibiga kirishi va uning tuzilishida ishtirok etishini ta`minlovchi qoidalar majmuidan iborat. Deyksis aynan shunday til birliklari qo`llanishi tizimining bir qismi bo`lib, matnning mazmuniy yaxlitligini ta`minlovchi vositadir. Deyksis vositasida matn mazmuni zamon va makon mo`ljallariga ega bo`ladi, uning modallik xususiyatlari shakllanadi [62,196]. Sh.Safarovning fikriga ko`ra, haqiqatdan ham deysis iboralarining barcha vazifaviy xususiyatlari muloqot matnida namoyon bo`ladi hamda u matn mazmunini tarkib toptiruvchi eng muhim vositadir. Shu o`rinda prof. S.Raximov ko`targan muammoning o`zi mavjudmikan yoki unga javob toppish muhimmikan? degan savolning tug`ilishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Isroillik professor Y.Bar-Hillelning o`z ishida keltirib o`tgan misollariga e`tiborni qaratamiz. I am hungry “Men ochman (och qoldim)” va Ice floats on water “Muz suvda suzayapti” gaplarini qiyoslagan olim bu gaplar mazmunini aniqlashda ikki yo`lni tanlashni taklif qiladi. Deyktik tuzilma sifatida qaralayotgan birinchi gapning to`liq ma`nosi kontekstga, uning qo`llanish matniga bog`liq holda aniqlanadi. Ikkinchi gap ma`nosining matnga bog`liq

emasligini olim ushbu gapning har qanday kontekstda ham o`z ma`nosini saqlashi, o`zgartirmasligi bilan o`zgartirmoqchi. Bu gaplardan birinchisining mazmun tadqiqini pragmatika qaramog`iga o`tkazib, ikkinchisini semantikaga qoldirgan Y.Bar-Hilleldan unchalik xafa bo`lmaslik kerak. Chunki lisoniy birliklar ma`nosini ular faollashadigan matndan uzib qo`yish va mavhum hodisa sifatida talqin qilish bizning fanimizning uzoq davom etayotgan an`anasidir. Zamonaviy tilshunoslik bu an`anadan uzoqlashayotgan bir paytda, yana ma`noning qaysi tizimga va sathga oidligi masalasiga alohida e`tibor berishga qanchalik ehtiyoj bor ekan?! [62,197].

Bu ehtiyojning tug`ilishi ham bekorga emas. Yunon faylasufi Demokrit “hech bir narsa sababsiz paydo bo`lmaydi, aksincha, hamma narsa ehtiyojga nisbatan paydo bo`ladi va biror bir asosga ega bo`ladi” deganidek, inson tafakkurida hosil bo`ladigan savol va muammolar ham tashqi dunyodagi predmet va hodisalar bog`liqligini aks ettiradi. Har bir hodisa oldingi bir hodisa ta`sirida shakllanadi, dastlabki “tayyorgarlik” bosqichidan o`tadi. Lisoniy hodisalarni tizimlararo va sathlararo taqsimlash harakatining tug`ilishi ham o`z sababiga ega. Lisonning yaxlitligini isbotlash uchun uning tizimiy xususiyatlarini topish kerak edi. Tizimiy xususiyatlar mavjudligini isbotlash uchun ushbu tizim tarkibidagi birliklar va qismlar munosabatini aniqlash talab qilinadi. Xuddi shu yo`sindagi talablarni qondirish yo`lidagi izlanishlar til tizimini sathlarga ajratish va sathlararo munosabatlarni hosil qiluvchi manbalarni aniqlash an`anasini tug`dirdi. Sistem tilshunoslikning bu an`anasini qoralab bo`lmaydi, zero, bu yo`sinda bajarilgan tadqiqotlarning ilmiy-amaliy ahamiyati kattadir. Tilshunoslik fani bu bosqichdan o`tmaganida, lisoniy hodisalar tabiatini va umuman til qurilishining o`ziga xos xususiyatlarini batafsil yoritish imkoniyatiga ega bo`lmas edi. Ammo “tizim” tushunchasini xuddi strukturalizmning “o`ta tajovuzkor” oqimlarida bo`lganidek, bir tomonlama, chegarali hodisa sifatida talqin qilish lisoniy hodisalar mohiyatini faqatgina ma`lum bir kichik tizim, guruh doirasida namoyon bo`luvchi xususiyatlar jamlanmasi sifatida ta`riflashga olib keladi.

Afsuski, til va nutqni bir-biridan keskin farqlash, tizimlilikni faqatgina tilga xoslash, nutqni esa xususiylikdan iborat hodisa sifatida talqin qilish harakati hozirgacha davom etmoqda [57, 9]. Lekin shunisi qiziqki, nutq tizimiy belgilardan mahrum bo`lsa va u faqatgina xususiyliklar to`plamidan iborat bo`lsa, unda insonlar bir-birlarini qanday tushunishadi?! Qolaversa, lisonning tizimliliigi uning nutqiy faoliyatga ko`chishi jarayonida qayoqqa yo`qoladi?! Shu o`rinda, Sh.Safarov, “bu savollarni javobsiz qoldirish mumkin emas. Axir bordan yo`q bo`lmaydi deganlaridek, mavjud hodisa (sistemlik) o`z-o`zidan yo`qolishning o`rniga boshqa bir ko`rinishda nutqda ham saqlanmaydimi?” deb xitob qiladi [62, 198].

Bir vaqtlar, Arastu “*U o`tiribdi*” jumlasini mantiq jihatidan har qanday holatda yagona hukm (fikir) bo`lib qolishini, ammo “vaziyat o`zgarishiga nisbatan ba`zan rost yoki yolg`on bo`lishi” mumkinligini qayd etib o`tgan edi [40, 34]. Bildirilayotgan hukmning haqiqat yoki yolg`onlik qiymatini belgilash uchun nutqiy faoliyatning zamon va makon ko`rsatkichlariga tayanish lozimligi boshqa mantiqshunoslar tomonidan ham e`tirof etilgan. Fin mantiqshunosi Yaakko xintikka ham Arastu izidan borib, “*Yomg`ir yog`ayapti*” xabarining rost yoki yolg`onlik qiymati ushbu xabar kecha yoki bugun aytilayotganligi bilan bog`liq bo`lishini e`tirof etadi, biroq fin olimi, Arastudan farqli o`laroq, bu ikki holatda ifodalanadigan fikr(hukm) bir xil emasligini uqtiradi [69, 196]. “Nazariy – o`yin” semantikasi yo`nalishining asoschisi nomini olgan fin olimining Arastu bilan kelisha olmaganliklarining ham o`z sababi bor. Yunon faylasufi nutqiy harakatlarning mantiqiy qiymatini aniqlashda substansional nuqtai nazardan yondashgan bo`lsa, Y.Xintikka va uning izdoshlari substansiyaning turli atributlar (ko`rinish, xususiyatlar) olishini va bu atributlarning o`zgaruvchanligi substansiya xususiyatlari majmuasiga ta`sir o`tkazishini e`tiborga olish lozimligini uqtiradilar (ya`ni voqelikdagi faktlarning o`zgarishi axborot mazmuniga ta`sir o`tkazadi). Darhaqiqat, yagona popozitsiya negizida shakllanadigan nutqiy harakatlarning mantiqiy qiymatining ko`chishi va turli vaziyatlarda turlicha mazmun ifodalay olish qudrati *lisonning botiniy*

*imkoniyatlari* namunasidir. Zaxiradagi imkoniyatgina yuzaga chiqishi mumkin. Albatta, bunday zohiriylashuv kerakli sharoit mavjud bo`lishini taqozo etadi. Mana buni til va nutqning tizimiy munosabatlari desa bo`ladi. Nutqiy faoliyatning tizimiyligi til tizimi imkoniyatlarida reallashadi hamda voqelanadi. Ushbu tizimiy munosabatlar bo`lmagan taqdirda, nutqiy faoliyat samarasiz kechib suhbatdoshlar bir-birlarini tushunmas edilar.

Til va nutqning tizimiy munosabatlari negizida lisoniy birliklarning ma`no va mazmun munosabati, boshqacharoq aytganda, semantika va pragmatikaning uyg`unlashuvi yuzaga keladi. Masalan, *“Bu kitob qiziqarli”* gapining mazmunini, axborot uzatish jarayonidagi qiymatini aniqlash uchun aynan qaysi kitob haqida gap ketayotganligini bilish kerak bo`ladi. Ushbu gapning propozitiv ma`nosiga “bu” deyksisi qo`shimcha qiymat bag`ishlagan va shu vosita uning mazmunini muloqot matnida voqelanishiga ko`mak beradi. Xuddi shuningdek, *“Taqsirimga ovqat suzib beraymi?”* gapining ona lahjasida eshitilishi bolaga nisbatan mehrni ifodalovchi emotsoinal deyksis hodisasini ifodalaydi. Ayrim mutaxassislar deyksisning kinoya (ironiya) mazmunida qo`llanishi sifatida qarayotgan ushbu hodisani til tizimi zahirasining nutqiy muloqot tizimida faollashuvi natijasida yuzaga keladigan hodisalar tizimiga kiritsa to`g`riroq bo`ladi.

Deyktik iboralarning “jonsiz” (meager) lug`aviy ma`nosi va ularning aniq referensiyasi (determinate reference) o`rtasida bo`shliq borligina qayq etgan hamda ushbu bo`shliq ustidan qanday “ko`prik” qurish ustida bosh qotirgan Hovard Uettshaynga [35, 161] “keling birodar, bu ko`prikni til va nutqning tizimiy munosabatlari poydevoriga qo`yaylik degim keladi, deb fikr bildiradi Sh.Safarov [62, 199].

Deyksis ham xuddi shu ko`prikning ustunlaridan biridir. Ma`lumki, lison muloqot vositasi, muloqot faoliyatida shaxs va lison munosabatining yuzaga kelishi muqarrar. Ammo bu munosabatda muloqot, lisoniy faoliyat subyekti qanday bir noma`lum, “shaxssiz” kishi emas. Subyekt lisoniy belgiga (birlikka) nisbatan munosabatini ifodalashda o`zining “Men”ini tasdiqlashga harakat qiladi

va shu yo`sinda “tilni butunlay o`ziniki qilib o`zlashtirib oladi” hamda so`zlashuv jarayonida nutqiy harakat vaqti, o`rni kabilarga ishorani ifodalashga va so`zlovchini ushbu ishoralarni qabul qilishga, ular bilan moslashmoqqa (muvofiq ish tutmoqqa) undaydi” [63, 18].

Shunga muvofiq, akademik Y.S.Stepanov lisoniy belgi va muloqot shaxsi munosabati bilan mashg`ul bo`ladigan fanni atashda an`anaviy “pragmatika” o`rniga “deyktika” (yunoncha, dektikos “ta`sirlanuvchi, moyil”) atamasini qo`llashni tavsiya etadi. Bu tavsiya deyksis hodisasining lisoniy faoliyatning pragmalingsvistik tahlilida ahamiyatga molik ekanligidan dalolatdir.

## **2.2. Ingliz tilida emotsionallikning ifodalanishiga doir**

Emotsionallik tilshunoslik sohasida pragmatik jarayon sifatida talqin qilinsada, uning o`rganilishi keng qamrovli bo`lib, tilshunoslikda tashqari psixologiya, kibernetika, meditsina va boshqa ko`plab sohalarning o`rganilish obyekti sifatida olinishi muqarrar.

Emotsionallik kishining ichki kechinmalari, uning voqelikdan ta`sirlanishini ifodalab kelar ekan u juda ko`b vositalar yordamida berilishi mumkin. Emotsionallikni ifodalash yo`llaridan keng qo`llanadigan vositalardan biri bu ohangdir. Ohangning odatdagi ko`rinishidan o`zgartirish vositasida ijobiy yoki salbiy emotsionallik ifodalanishi mumkin. Ohang vositasida so`zlovchi adresatga qo`rquv hissi, mehr, yaqinlik yoki samimiyluk hissini uyg`otishi ehtimoli mavjud.

Ingliz tilida emotsionallikni ifodalashda maxsus til birliklari mavjud bo`lib ular undov so`zlar hisoblanadi. Undov so`zlar nafaqat ingliz tilida balki har qanday tilning emotsionallikni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiluvchi birliklari hisoblanadi. Undov so`zlar tilning paradigmatic qatorida turli xil variantlarta tayyor holatda tursada, sintagmatik qatorga ko`chishda vaziyatga muvofiq tarzda kechadi. Zero, emotsional holatlar yuz berganda kishi o`ylab o`tirmasdan uni ma`lum bir til birligi vositasida ifodalashga harakat qiladi. Shunday bo`lsada, tabiiy refleklar yordamida ushbu undov so`zlardan o`rinli

foydalaniladi. Jumladan, *Oh, Alas, Ah, Damn, Poor, Push, Well* kabilar o`z ma`nosiga ega bo`lgan emotsionallikni ifodalashda xizmat qiladi.

Pragmalingvistika bevosita matn lingvistikasi bilan bog`liqdir. Matn lingvistikasining o`rganilishi esa badiiy matnni obyekt sifatida olish vositasida amalga oshadi. Badiiy matnda mazmundorlikni oshirish va emotsionalikka alohida urg`u berish maqsadida badiiy tasvir vositalaridan foydalaniladi. Bular metafora, motonimiya, o`xshatish, epitet va boshqalarning badiiy mazmundorlikni oshirish maqsadida ishlatilishida yaqqol ko`zga tashlanadi. Masalan, "*She liked her in her bones*" gapida oddiy metafora yordamida onaning qiziga bo`lgan his-tuyg`usining chechsizligi ifodalangan.

Shuningdek, emotsionallik sifat darajalari yordamida ham ifodalanishi mumkin. Ma`lumki, sifat darajalari aniq bir me`yorga asoslanib namunadagi sifatga nisbatan yuqorilik yoki past darajalikni bildirish barobarida emotsionallikni ifodalaydi.

Yuqoridagilardan tashqari, emotsionallik matn ichida ma`lum bir holatga ishora sifatida olmosh, ravish kabi deyktik vositalar (*so, such, what, how*) yordamida ham ifodalanishi mumkin. Misol sifatida "*What a wonderful life!*" gapini keltirish mumkin.

Emotsional deyksis shaxsning (aniqrog`i – lisoniy shaxsning) voqelik bilan munosabati natijasidir va uning ifoda vositasi til qurilishining turli sathlariga oid lisoniy birliklardir. Dastlab unutmaslik kerakki, emotivlik har qanday nutqiy harakat mundarijasiga xosdir, zero, so`zlovchi kechayotgan voqea-hodisa idrokida betaraf bo`lib qola olmaydi hamda nutqiy bayonida, axborot uzatishda o`z hissiyotini izhor etishga majburdir. Ammo hissiyot darajasi har xil, uning miqdori tinglovchiga (o`quvchiga) qaysi darajada ta`sir o`tkazish va qanday faoliyatga undash maqsadi bilan belgilanadi. Lisoniy faoliyatda emotsionallik va ratsionallik (mulohazakorlik) munosabati nisbatini qarlash talab qilinadi. Emotsionallikning nutqiy faoliyatda turli ko`rinish va darajalarda ifodalanishi his-tuyg`uni izhor etish maqsadi, modallik mazmuni, tonallik (ohangdoshlik) kabi nutqiy birliklar mazmun doirasini shakllantiruvchi hodisalar ishtirokida

hosil bo`ladi. Emotsionallikning nutqiy faoliyatda aks etishi muammolari bilan ko`p yillardan beri shug`ullanib kelayotgan tilshunos-olimlardan biri V.I.Shaxovskiyning qayd etishicha, turli so`zlovchilar qo`llaydigan emotive nutqiy tuzilmalarning mazmun va ifoda doiralariga oid xususiyatlari muloqotdoshlarning emotsionallik ifodasiga bo`lgan ehtiyoji, maqsadi bilan bog`liq. Bu ehtiyoj esa so`zlovchi shaxslarning voqelikka munosabati, uni idrok etish maqsadi bilan belgilanadi. Aynan shu maqsadning lisoniy aks topishi emotsional deysisning voqelanishidir [70, 45].

Zamonaviy tilshunoslikda deysis hodisasi keng ma`noda talqin qilinib, uning nutqiy faoliyatning barcha turlariga oidligi e`tirof etilmoqda. Deytik mazmun kommunikativ harakatning “zamon-makon-ijtimoiy tuguni qo`shimchasi” [53, 88] sifatida hosil bo`ladi hamda turli shakl, ko`rinishda namoyon bo`lish imkoniyatiga ega. His tuyg`uning nutqiy faoliyat kechishidagi ta`siri emotsiya eyksisining turli ko`rinishlarini namoyon qiladi. V.I.Shaxovskiy va uning shogirdlarining fikricha, emotsional nutqiy faoliyatning kechishi to`rt asosiy xususiyatning o`zaro munosabati natijasidir. Bunday ko`rsatkichlar quyidagilardir: 1) so`zlovchining emotiv maqsadi (intentsiyasi); 2) uning hissiyotining modalligi; 3) emotsionallik darajasi; 4) emotsiyaning yo`naltirilishi, ya`ni mo`ljali [70, 47].

Y.M.Volf emotsional nutqiy birliklarning ikki xil intentsiyaga (maqsadga) ega bo`lishini ta`kidlamoqchi bo`lgan edi. Birinchi turida tinglovchida ma`lum bir his-tuyg`u tug`dirish maqsadi ko`zlansa, ikkinchisida esa so`zlovchi o`z hissiyotlarini ma`lum qilishga harakat qiladi [48, 166]. Biroq bu ikki turdagi maqsadni bir-biridan ajratish qiyin, har ikkala holatda ham kommunikativ vazifa bir xilda namoyon bo`ladi va nutqiy harakatdan kutiladigan samara ham yagonadir. Chunki har qanday holatda ham nutq subyekti bayon qilinayotgan hodisa va nutq vaziyatiga emotsional baho beradi hamda tinglovchining hatti-harakatiga ta`sir o`tkazadi.

Baholash harakatining yuzaga kelishida besh unurning mavjudligi majburiydir, bular, subyekt, obyekt, asos, etalon (namuna) va baholash belgisi.

Baholash dastlabki o`rinda subyekt-obyekt munosabatida, ya`ni subyekt tomonidan obyektning muhimligi, e`tiborga molikligi, miqdor va sifat jihatidan ajralib turishini aniqlash jarayonida hosil bo`ladi. Ushbu jarayonda subyekt obyektning baholanayotgan xususiyatini ideal namuna yoki me`yorga qiyoslaydi hamda ushbu me`yorga qay darajada mos kelishi yoki uzoqlashishiga nisbatan beriladi. Nihoyat, barcha “o`lchov”lar bosqichidan o`tgan baho lisoniy belgi vositasida voqelanadi. Bahoning yuzaga kelishi va baholash harakatining faollashuvi uchun mantiqiy asos talab qilinadi. Bunday asossiz aqliy va lisoniy faoliyat besamar, hatto nojo`ya tus olishini bilamiz. Asossiz qiyos va bahoga hojat yo`q. Baholash harakatining mantiqiy asosida emotsiya intentsiyasi yotadi.

O`z paytida Gegel subyekt va obyekt munosabatining gnoseologik xususiyatlari haqida gapirayotib, bu munosabatda hech qanday qarama-qarshilik, biri ikkinchisini inkor qilish holatlari yo`qligini uqtirgan edi. Darhaqiqat, voqelikni idrok etish jarayonida subyekt o`zini hech qachon ushbu voqelikdan ayri holda tasavvur qilmaydi va bunga uning hissiyoti ham yo`l qo`ymaydi. Hissiyot, emotsiya idrokning mantiqiy tafakkur bosqichidan oldingi holatdir, emotsional his etish idrok hosil bo`lmaydi. Shuning uchun ham har qanday ratsional (mulohazali) idrok baholash harakatiga asoslanadi deb hisoblanadi [48, 85].

Shu o`rinda emotsional baho berish vositasi bo`lgan gaplarning haqiqiy mazmunini matnsiz aniqlash qiyin vazifa ekanligini eslatib o`tamiz. Binobarin, ingliz tilidagi “*What a life that is!*” undovini intonatsiyaning o`zgarishi hamda qaysi vaziyatda qo`llanishiga nisbatan “*Qanday yaxshi hayot!*” va “*Qanday yomon hayot!*” muqobilligida tarjima qilish mumkin.

Bundan tashqari, so`zlovchi shaxsning voqelikka berayotgan emotsional bahosi “bamaylixotir bayon” usulida ham ifodalanishi ham mumkin: “*E`tirozlarimiz juda o`rinli bo`ldi*”.

Xuddi shuningdek, emotsional baho mazmunini ifodalash “yuki” maxsus grammatik tuzilmalar zimmasiga tushishi mumkin. Masalan, ingliz tilida bir tarkibli nominative tuzilmalar salbiy bahoni ifodalash imkoniyatiga ega (*What*

*an idea? “Bu qanday xomxayol!”*), ushbu tuzilmalar tarkibida fe`l bo`lganda esa, ijobiy baho ifodalanadi: *That is an idea! “Mana bu (ajoyib) fikr!”*.

Deyksisning til lug`at va grammatik tizimlarida aks topishini maxsus tahlil qilgan tilshunoslardan biri Y.D.Apresyan borliqdagi obyektlar va ularning lisoniy tafakkur idrokida bog`liqlik doimo bir xilda bo`lmasligini sezib, so`zlovchining “shaxsiy hududi” tushunchasidan foydalanishni maslahat bergan edi [39, 266]. Bu tushunchaning mazmuni shundan iboratki, inson tashqi dunyodagi obyekt, voqealarni his va idrok etarkan, ularga daxldorligini aniqlamoqchi bo`ladi. Obyekt va subyekt munosabati esa, o`z navbatida, ikki xil ko`rinishda namoyon bo`ladi. Birinchisida, obyekt subyektga tobe holatni oladi, ya`ni subyekt voqeaning tashabbuskori va uning kechishini o`z nazoratiga oladi, bundan shaxsning nazorat hududi hosil bo`ladi. Ikkinchi holatda esa, shaxs voqelikni bevosita nazorat qilmaydi, ammo unga o`zini daxldor deb hisoblaydi. Bunda subyekt-obyekt munosabati kuchsiz, voqea shaxsning daxldorlik hududi doirasida kechadi.

Obyektning bu ikki turdagi idroki kontseptual tuzilmalarning lisoniy voqelanishida o`z aksini topishi muqarrar. Misol tariqasida turli tillarda shaxssiz gaplarning nutqiy faollashuvi darajasini keltirish mumkin. Ma`lumki, egasi ifodalanmagan gaplarda ish-harakat subyektini noaniq, mantiqan umumlashgan bo`lib qoladi. Bu esa aynan subyekt tomonidan nazoratning yo`qligidan, uning voqeaga faqatgina daxldor, oddiygina munosabat bildiruvchi shaxs bo`lib qolishidan darak beradi.

Subyektning idrok obyektiga bo`lgan munosabatining bu shaklda turli ko`rinishlarda kechishi emotsiyaning modalligi belgilarida va ushbu modallikning lisoniy ifodalanishida namoyon bo`ladi. Emotsiyaning darajalanishi (gradualligi) uning sifat ko`rsatkichidir, shuning uchun ham modallik inson hissiyatining alohida turlarini (masalan, qo`rquv, ehtiyotkorlik, vahima, dahshat kabilar) lisoniy belgilaydi. Bundan darajalanishning nutqiy faoliyatda aks etishi esa nutqiy tuzilma tarkibida so`zlovchi-subyektning obyektga va uzatilayotgan axborotga nisbatan fikri, nuqtai nazarining

“soya”sidan boshqa narsa emas. Umuman, nutqiy harakatda deysis va modallik munosabati muhim rol o`ynaydi [74, 154].

Darajalanish hodisasining mantiqiy va lisoniy bosqichlari o`rtasida mavjud bo`lishi mumkin bo`lgan farqlarni birinchilardan bo`lib ajratishga harakat qilgan E.Sepir har ikkala holatda ham daraja miqyosini belgilash istagi ma`lum bir me`yorga, normaga asoslanishini qayd etgan edi [31, 59]. Me`yor – baho berish o`lchovi, asosidir. Har qanday me`yor boror bir etalin – namunaga nisbatan belgilanadi va obyektlarni qiyoslash uchun xizmat qiladi. Darajalanishning lisoniy ifodasi turlicha, turli sathlarga oid birliklar vositasida kechishi ma`lum [43, 21; 6, 200], ammo ushbu vositalarning emotsiya modalligini ta`minlashdagi o`rni masalasiga unchalik e`tibor berilganicha yo`q. holbuki, E.Sepir o`tgan asrning birinchi yarmidayoq barcha turdagi graduatorlarning (darajalanish vositalarining) hukmni, bildirilayotgan fikrni ma`qullash yoki ma`qullamaslik mazmunini yuzaga keltirish yashirin imkoniyatiga ega ekanligini ta`kidlagan edi [31, 66].

### **2.3. O`zbek tilida emotsionallikning ifodalanishiga doir**

Emotsionallik atamasi o`zbek tilida o`zlashgan so`z sifatida ishlatilsada, bu tushunchaning asl mohiyatini beruvchi hissiyot yoki his-tuyg`u kabi atamalar keng qo`llaniladi. Bu esa kishining ichki kechinmalari, voqelikka bergan bahosi bilan belgilanadi.

«Hissiyot» (emotsiya) va «his-tuyg'u» degan so'zlar ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. Torroq ma'noda olganda, hissiyot bu qandaydir biroz doimiyroq his-tuyg'ularning bevosita va vaqtincha boshdan kechirilishidan iborat. «Emotsiya» so'zi o'zbek tiliga aniq tarjima qilinganda, u ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan ma'nolarni bildirib kelishi mymkin. Ayrim holatlarda emotsiyalar ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Ular xatti-harakatlarga, fikr-mulohaza bildirishga turtki beradigan kuch bo'lib, g'ayratni oshiradi va bu holat stenik hislar deb ataladi. Boshqa bir hollarda emotsiyalar (astenik deb atalmish emotsiyalar) faollikning sustligi yoki loqaydligi bilan

ajralib turadi, his-tuyg'ullarning boshdan kechirilishi kishini bo'shashtirib yuboradi.

Hissiyotlar shaxs faoliyatining muhim jabhasi sifatida insondagi keng emotsional sohasining rang-barangligi, ko'p qirraligi haqida emotsional ton (yunoncha tonos - zo'riqish, urg'u berish ma'nosini bildiradi), emotsiyalar (lotincha emovere - qo'zg'atish, hayajonlanish demakdir), affektlar (lotincha affectus - ruhiy hayajon, shijoat, ehtiros ma'nosini anglatadi), stress (inglizcha stress - zo'riqish deganidir) va kayfiyat kabi tushunchalar orqali muayyan tasavvur berish imkoniyati- tanga ega.

Kishi idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqelikni bilib qolmay, balki shu bilan birga, hayotdagi u yoki bu narsalarga, qanday bo'lmasin, munosabat bildiradi, unda bularga nisbatan u yoki bu tarzda his-tuyg'u paydo bo'ladi.

His-tuyg'ular kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'ziga turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

«Hissiyot» tushunchasi kundalik turmushda va ilmiy psixologik manbalarda har xil ma'noda qo'llaniladi. Jumladan, hissiyot o'rnida sezgilar, anglanilmagan mayllar, anglanilmagan xohishlar, tilaklar, maqsadlar, talablar kabi tushunchalardan foydalaniladi. Ilmiy nuqtai nazardan kelib chiqib tahlil qilinganda, «hissiyot», odatda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning (odamning) munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Jahon psixologiyasida «hissiyot» bilan «emotsiya» terminlari (ayniqsa, chet mamlakatlarda) bir xil ma'noda ishlatiladi, lekin ularni aynan bir xil holat deb tushunish mumkin emas. Bunday nuqson ommabop adabiyotlarda, chet ellarda chop etilgan darsliklarda ko'p uchraydi. Odatda tashqi alomatlarini yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularning ichki kechinmalarda ifodalanishidan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shaklini emotsiya deb atash maqsadga muvofiq. Masalan, ranglarning o'zgarishi, yuzlarning tabassumlanishi,

lablarning titrashi, ko'zlarning yarqirashi, kulgu, yig'i, g'amginlik, ikkilanish, sarosima va boshqalar emotsiyaning ifodasidir.

Lekin vatanparvarlik, javobgarlik, mas'uliyat, vijdon, mehr-oqi- bat, sevgi-muhabbat singari yuksak xislatlarni emotsiya tarkibiga kiritish g'ayritabiiy hodisa hisoblanadi. Ushbu emosional kechinmalar o'zining mohiyati, kuch-quvvati, davomiyligi, ta'sirchanligi, yo'nal- ganligi bilan bir-biridan keskin farq qilishlariga qaramay, ularni emotsiya sifatida talqin qilish oddiy safsataga aylanib qolgan bo'lar edi. Shu boisdan ularning o'zaro eng muhim farqi shundaki, birisi ijtimoiy (hissiyot), ikkinchisi esa (emotsiya) individual, xususiy aha- miyat kasb etadi.

His-tuyg'ularning kechishi subyekt alohida his etayotgan psixik holat sifatida gavdalanadi. Bunda biron-bir narsani idrok etish va tushunish, biron-bir narsa to'g'risida bilib olish idrok etilayotgan, tushunib olinayotgan, ma'lum yoki noma'lum narsalarga nisbatan shaxsiy munosabat bilan birgalikda ro'y beradi. Ana shu hollarning barchasida his-tuyg'ularning boshdan kechirilishi xususida, kishining alohida emotsional holati haqida gapiriladi. Shu bilan birga, his-tuyg'ularning kechishi o'z rivojlanishiga ega bo'lgan joriy va o'zgarib turadigan psixik jarayondir.

His-tuyg'uni boshdan kechirishning turli shakllari - emotsiya, affekt, kayfiyat, kuchli hayajonlanish (stress holati) ehtiros va nihoyat, tor ma'nodagi his-tuyg'ular kishi xulq-atvorini tartibga solib turadi. Bilishning jonli manbai bo'lib, odamlar o'rtasidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatlarning ifodasi hisoblanadi.

Kishi uchun subyektiv hisoblangan his-tuyg'ular uning ehtiyojlari qondirilish jarayoni qanday kechayotganligining belgisi sifatida na- moyon bo'ladi.

His-tuyg'ular voqelikni aks ettirishning o'ziga xos shakllaridan biridir. Agar bilish jarayonlarida narsalar va voqelikdagi hodisalar aks etsa, his-tuyg'ularda esa subyektning o'ziga xos ehtiyojlari bilan qo'shilib, o'zi bilib olayotgan va o'zgartirayotgan narsalarga va voqelikka nisbatan uning munosabati aks etadi.

Emotsiyalar nafaqat insonlarga, balki rivojlangan jonli mavjudot- larga ham taalluqli ruhiy (psixik) holatdir. Hayvonlardagi emotsiyalar o'zgarishi murakkab bo'lgan tabiiylik (irsiy) alomatlarga asoslanuvchi sodda tuzilishga egadir. Odam bilan hayvon emotsiyalari o'zlarining mohiyati, tuzilishi, ta'sirchanligi, jadalligi, sifati, shakli bilan keskin tafovutlanadi.

Emotsiyalar tashqi ko'rinishga xosligi va muvaqqat xususiyatga ega ekanligi bilan hissiyotdan farqlanadi. Shuni aytib o'tish joizki, hissiyot hayvonot olamiga xos kechinma emas, u aql-zakovat subyekti sanalmish hazrati insongagina xos, xolos. Chunki empatik (hamdardlik) his-tuyg'ular shaxsning mukammallik bosqichiga ko'tarilishiga kafolat negizidir.

Ehtiyojlarning qondirilishi yoki qondirilmasligi kishida turli xil shakldagi o'ziga xos kechinmalarni: emotsiyalarni, affektlar (emotsional buhronlar)ni, kayfiyatlarni, kuchli hayajonlanish (stress holatlari)ni va his-tuyg'ularni hosil qiladi.

Emotsiyalar. Emotsional jarayonlar, holatlar yoki tor ma'noda emotsiyalar emotsional kechinmalarning o'ziga xos jihatga ega shakllaridan biridir. Emotsiya u yoki bu hissiyotni insonning bevosita kechirishidan iborat. Masalan, shaxsning musiqani sevishi emotsiyani vujudga keltirmaydi, balki buning uchun musiqani eshitish, ijrochi mahoratiga tasanno aytish, undan hayajonlanish yoki asar ijrosi yoq- masa, g'azabli emotsional kechinma hosil bo'lishi ijobiy yoki salbiy emotsiya deyiladi.

Qo'rqinch, dahshat emotsional kechinma sifatida obyektarga shaxsning munosabatini aks ettirib, turlicha shaklda namoyon bo'lishi mumkin: odam dahshatdan qochadi, qo'rquvdan serrayib qoladi, o'zini idora qila olmay har tomonga uradi, hatto o'zini xavf-xatarga tashlashi ham mumkin.

Har qanday vaziyatda ham emotsional xatti-harakat, faoliyat motivlari bo'lishidan tashqari, ba'zida faoliyatni tashkil qiluvchi, goho uni izdan chiqaruvchi omilga ham aylanishi mumkin. Emotsional holatlar yo haddan tashqari kuchaysa yoki susaysa, xullas, me'yori, maromi izdan chiqsa, u holda shaxs faoliyati maqsadga yo'nalishini yo'qotadi, buning natijasida obyektlar

noto'g'ri aks ettiriladi, ular xolisona talqin qilinmaydi, baholashda mantiqiy nuqsonlarga yo'l qo'yiladi.

Emotsional portlash ro'y bergan taqdirda, uning keyingi bosqich- larida kishi o'zini tuta olmasdan qoladi, qilayotgan ishining oqibatini o'ylamaydi va aql-hushini yo'qotib qo'yadi. Tormozlanish miyaning qobig'ini egallab oladi va kishining tajribasi, uning madaniy va ma'naviy negizlari mustahkamlangan muvaqqat bog'lanishlarning tarkib topgan tizimini ishlatmay qo'yadi.

Affektiv portlashdan keyin holdan toyish, majolsizlik, barcha narsalarga befarqlik bilan munosabatda bo'lish, harakatsizlik, ba'zan esa mudroq bosish boshlanadi. Psixologiyada «telbalarcha» ishq- muhabbat hissining affektiv tarzda kechishi atroflicha o'rganilgan va badiiy adabiyotda esa yana ham yaxshiroq tasvirlangan.

Affekt holati boshlanganda shaxs insoniy qadriyatlarning barcha- sidan uzoqlashib, o'z hissiyotining oqibati to'g'risida o'ylamaydi, hatto tana o'zgarishlari, ifodali harakatlar unga bo'ysunmay qoladi. Kuchli zo'riqish natijasida mayda, kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po'stini to'liq egallay boshlaydi, qo'zg'alish po'stloqosti asab tugunchalarida, oraliq miyada avj oladi, xolos. Buning natijasida shaxs o'zida emotsional kechinma (dahshat, g'azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar)ga nisbatan kuchli xohish sezadi.

Affektlar vujudga kelishining dastlabki bosqichida har bir shaxs o'zini tutishni, o'zini qo'lga olishni uddalay olish qurbiyatiga ega bo'ladi. Keyingi bosqichlarda irodaviy nazorat yo'qoladi, irodasiz harakatlar amalga oshiriladi, xatti-harakatlar o'ylanmasdan qilinadi. Affektiv holatlar mas'uliyatsizlik, axloqsizlik, mastlik alomatida sodir bo'ladi, lekin shaxs har bir xatti-harakati uchun javobgardir, chunki u aql-zakovatli insondir.

Affektlar o'tib bo'lganidan keyin shaxsning ruhiyatida osoyishtalik, charchash holati hukm suradi. Ba'zi hollarda holsizlanish, jamiki narsaga loqayd munosabat, harakatsizlik, faollikning barham topishi, hatto uyquga moyillik yuzaga keladi.

Kayfiyatlar ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy emotsional holatini ifoda etadi.

Kayfiyatlar ko'proq kishi salomatligining umumiy holatiga, ayniqsa, asab tizimi va modda almashinuvini to'g'rilab turuvchi ichki sekretsiya bezlarining holatiga bog'liqdir.

Shaxsning xatti-harakatlariga va ayrim ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holat kayfiyat deb ataladi. Shaxsning hayoti va faoliyati davomida shodonlik, hazilkashlik, umidsizlik, jur'atsizlik, zerikish, qayg'urish singari his-tuyg'ular uning ruhiy holatining umumiy tizimiga aylanadi. Ushbu vaziyat ba'zi emotsional taassurotlarning vujudga kelishiga qulay zamin hozirlaydi, boshqasi uchun esa qiyinchilik tug'diradi.

Affektlar (emotsional portlashlar) deb kishini tez chulg'ab oladigan va shiddat bilan o'tib ketadigan jarayonlarga aytiladi. Ular ongning anchagina darajada o'zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning o'zini o'zi idrok qila olmasligi, shuningdek uning butun hayoti va faoliyati o'zgarib qolganligi bilan ajralib turadi. Affektlar birdaniga katta kuch sarf qilinishiga sabab bo'lganligi uchun ham qisqa muddatli bo'ladi. Agar oddiy hissiyot faqat ruhiy hayajonlanishni ifoda etsa, u holda affekt buhrondir.

Inson xafa, ma'yus emotsional holat hukmronligida bo'lsa, tengdoshlarining haziliga, keksalarning o'git-nasihatlariga, maslahatlariga quvnoq kayfiyat chog'idagiga nisbatan mazmun va sifat jihatidan boshqacharoq tusda munosabat bildiradi. Shuning uchun ishlab chiqarish va xalq ta'limi tizimi jamoalarida, rasmiy guruhlarda ishchanlik, o'zaro yordam, hamkorlik, hamdardlik, iliq ruhiy muhit yaratish, samimiy muomala maromini shakllantirish ham jismoniy, ham aqliy mehnat samaradorligini oshirishning kafolatidir.

Kayfiyat nihoyatda xilma-xil, uzoq va yaqin manbalar negizida vujudga keladi. Uni barqarorlashtirib turadigan asosiy manbalardan biri shaxslarning ijtimoiy jamiyatda hukmronlik qilayotgan umumiy nuqtai nazarlari, hayotning turli jabhalarida aks etuvchi ta'sirlar, chunonchi, mehnat muvaffaqiyati va ta'lim

yutug'i, rahbar va xodim, o'qituvchi va saboq oluvchi o'rtasidagi munosabatlar, oiladagi shaxslararo muomala maromi, har xil vaziyatlarda paydo bo'lgan turmush- dagi qarama-qarshiliklar, shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari va talablarining qondirilishidan qanoat hosil qilish yoki qanoat hosil qilmaslik kayfiyatning manbalari bo'lib hisoblanadi.

Shaxsning ma'lum muddat ruhi tushib, noxush kayfiyatda yurishi uning turmushida muammolar yuzaga kelganligidan, halovati buzilganligidan dalolat beradi. Bunday vaziyatlar namoyon bo'lganida shaxsga oqilona mulohaza mahsulidan kelib chiqqan holda xushtavozelik bilan ijobiy ta'sir o'tkazish, ruhini tetiklashtiruvchi vositalarni qo'llash, kayfiyatini buzib turgan omillarni batamom bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Stress, psixologik ta'rifga ko'ra, affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomlilikiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin his-tuyg'ular boshdan kechirilishining alohida shakli bo'lgan kuchli hayajonlanish (stress) holati (inglizcha stress - tazyiq ko'rsatish, zo'riqish degan so'zdan olingan)dan yoxud emotsional zo'riqishdan iboratdir. Emotsional zo'riqish xavf-xatar tug'ilgan, kishi xafa bo'lgan, uyalgan, tahlika ostida qolib ketgan va shu kabi vaziyatlarda ro'y beradi.

Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari o'ziga xos tarzda o'zga- radi, unda qo'zg'alishning umumiy reaksiyasi paydo bo'ladi, uning harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustunlik qila boshlaydi.

Lekin stress holatida fiziologik o'zgarishlar tashqi tomondan qariyb ko'zga tashlanmasligi mumkin. Biroq muammoni yechishdagi qiyinchilikni, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalikni stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilsa bo'ladi. Shaxs stress holatida telefon raqamini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati yengil tormozlanadi, idrok ko'lami torayadi va boshqa holatlar kuzatiladi.

Stress holatida shaxsning psixologik xususiyatlari, turmush tarbiyasi, shakllangan malakasi muhim o'rin tutadi. Keskinlikning oldini olishda shaxsning oliy asab faoliyati, asab tizimining xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Undagi yuksak his-tuyg'ular (mas'uliyat, burch, javobgarlik, vatanparvarlik, sadoqat va hokazo) stress holatida xatti-harakat buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Frustratsiya kishi o'z maqsadiga erishish yo'lida real tarzda bartaraf etib bo'lmaydi deb hisoblagan yoki shunday deb idrok etilgan to'sqinliklarga, g'ovlarga duch kelgan hollarda yuz beradi.

Frustratsiyaning yuz berishi shaxsning xulq-atvorida va uning o'zini anglashida turli xil o'zgarishlarga olib keladi.

Frustratsiya his-tuyg'ularning hissiyot (emotsiya)lar, kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilarga ham ega bo'ladi. Yuzlarning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, turq-tarovat, ohang, ko'z qorachiqklarining kengayishi yoki torayishi kabilar shular jumlasiga kiradi. Bu ifodali harakatlar ayrim hollarda o'ziga o'zi hisob bermagan tarzda yuz bersa, boshqa bir holatda ongning nazorati ostida sodir bo'ladi.

Kishining his-tuyg'ulari ro'y berishiga ko'ra murakkab shartsiz reflekslarga bog'liq bo'lgani holda ijtimoiy xususiyatga egadir. His-tuyg'ular kishi shaxsining ancha yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lib, u bilish jarayonlari va xulq-atvor hamda faoliyatni irodaviy boshqarish bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Shaxsning o'zi bilib olayotgan va bajarayotgan narsaga barqaror munosabati his-tuyg'ularning mazmunini tashkil etadi. Shaxsni ta'riflash degani ko'p jihatdan muayyan bir odam umuman nimani sevadi, nimani yomon ko'radi, nimadan nafratlanadi, nimadan xursand bo'ladi, nega uyaladi, nimaga havas qiladi va hokazolar degan ma'noni anglatadi.

Individning barqaror his-tuyg'ularining predmeti, ularning jadalligi, kechinmalarning xususiyati va hissiyotlari, affektlar, kuchli hayajonlanish holatlari va kayfiyatlar shaklida tez-tez namoyon bo'lishi kuzatuvchi ko'z

o'ngida kishining emotsional dunyosini, uning his-tuyg'ularini va shu asosda uning individualligini namoyon etadi. Aynan shuning uchun ham emosional jarayonlarni tahlil qilish vaqtida o'tkinchi holatlarni o'rganishdan kishi shaxsini belgilaydigan barqaror his-tuyg'ularga o'tish lozim.

Vaziyat bilan bog'liq xususiyatga ega bo'lgan va individning muayyan paytda obyektga nisbatan munosabatini aks ettiradigan hissiyotlardan, effektlardan, kayfiyatlardan va emotsional zo'riqishlardan farqli o'laroq, ular paydo bo'lishi paytiga kelib tarkib topgan aniq holatlarda his-tuyg'ular (tor ma'noda olganda) kishi shaxsining yo'naltirilganligida mujassamlashgan barqaror ehtiyojlari obyektga nisbatan uning munosabatini aks ettiradi. Shu sababli, his-tuyg'ular barqarorligi bilan, ular subyektning hayot soatlari va kunlar emas, balki oylar, yillar vositasida o'lchanadigan darajada davomiyligi bilan belgilanadi.

Ehtiroslar kishidagi barqaror his-tuyg'ularning alohida turini tashkil etadi. Kishining fikrlari va xatti-harakatlari yo'nalishini belgilaydigan barqaror, chuqur va kuchli his-tuyg'u ehtiros deb ataladi.

Hukmron ehtiros bilan bog'liq bo'lmaganlari ikkinchi darajali ahamiyatga egadek bo'lib tuyuladi, orqa o'ringa surilib qo'yiladi, kishini hayajonlantirmay va qiziqitirmay qo'yadi, ba'zan umuman unutilib ketadi. Bog'liq bo'lganlari esa kishini o'ziga rom etadi, hayajonlantiradi, diqqatini jalb etadi, esda saqlanib qoladi. Qoniqtirmay qolgan ehtiros odatda kuchli hissiyotlarni va hatto affektiv portlashlarni (g'azablanish, norozilik, umidsizlik, ranjish va boshqalarni) keltirib chiqaradi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, his-tuyg'u (emotsiya)lar kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'ziga turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

## II BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Emotsionallik atamasi birinchi eshitishdayoq uning psixologiyaning obykti ekanligi kishi ongida gavdalanadi. Ammo u psixologiyaning obykti bo`lsada boshqa sohalar bilan hamkorlikda ish tutadi. Zero, har bir shaxsning emotsional holati til vositasida, til birliklari yordamida ifodalanadi va adresatga ma`lum qilinadi. Demak, emotsionallikning ifodalanishi, uning turli yo`llar yordamida ma`lum qilinishi lingvistikaning galdagi vazifasi hisoblanadi.

Emotsionallik bevosita kishining voqelikni baholash natijasi hisoblanadi. Voqelikka baho berishda esa besh unsurning mavjudligi nazarda tutiladi. Bular subyekt, obyekt, etalon, me`yor va baholash hisoblanadi. Ma`lum bir voqelikni baholashdan oldin kishi engida etalon, ya`ni namunadagi me`yordagi voqelik singib ketgan bo`ladi. Ana shu me`yorning o`zgarishi natijasida shaxsda ijobiy yoki salbiy emotsional holat yuzaga keladi.

Emotsionallik kishining ruhiy holati, ruhiy ta`sirchanligi bilan bog`liq bo`lganligi sababli paradigmatic qatordan sintagmatic qatorga ko`chish jarayoni nisbatan "tartibsiz", vaziyatga muvofiq tarzda amalga oshadi. Shuning uchun, emotsionallikning ifodalanishi undov so`zlarning ishlatilishi, sifat darajalari yordamida, badiiy tasvir vositalari, ohang, shuningdek, emotsional holatlarga ishora qiluvchi deyktik vositalar yordamida ifodalanishi mumkin.

Yuqorida emotsionallikni ifodalashning turli vositalar yordamida berilishi keltirib o`tildi. Olib borayotgan tadqiqot ishimiz deyksis borasida bo`lganligi sababli bizning galdagi qiladiga vazifamiz emotsionallikka ishora qiluvchi so`zlar, birikmalar, ya`ni deyktik birliklarni aniqlashdan iboratdir. Ma`lumki, deyktik birliklar nutqiy faoliyat jarayonidagi, matn tarkibidagi nomi keltirib o`tilgan makon, zamon, shaxs, abzatsga ishora qilib kelishi mumkin. Shular bilan bir qatorda emotsional holatga ishora qilish vazifasini ado etish esa emotsional deyksis zimmasidadir.

### **III BOB. BADIY MATNDA EMOTSIONALLIK DEYKSISI**

#### **3.1. Ingliz va o`zbek badiiy matnlarida emotsional deyksisning ifodalanishi**

Emotsionallik va emotsionallikni ifodalovchi deytik vositalar haqida ishimizning oldingi bobida to`xtalib o`tilgan edi. Tilshunoslarimizning bu borada keltirgan fikr-mulohazalaridan ma`lum bo`lishicha, emotsionallik nutq subyektining voqelikni baholash me`yorini ifodalab keladi. Zero, insonning emotsional jihatlarini o`rganish nafaqat tilshunoslik, balki turli xil fanlarning obyekti bo`la oladi (masalan, psixologiya, kibernetika, meditsina, lingvistika va boshqalar) va ana shu xususiyati bilan ham emotsionallikning o`rganilishi nisbatan chegara bilmaydi, ko`p vazifali hamda murakkab jarayon hisoblanadi. Zamonaviy psixologiya yoki psixolingvistikada emotsionallik bilan bog`liq bo`lgan muammolarni aniqlashning aniq yo`llari mavjud. Bunda, aniq bir alohida olingan individ obyekt sifatida qaraladi hamda ijtimoiy va madaniy faktorlarga asoslangan holda til emotsiyasi o`rganiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda esa, “emotsiya” tushunchasini aniqlashda aniq belgi va faktorlarga asoslangan yagona bir fikr mavjud emas. Bir guruh olimlarimiz, emotsiyani belgilovchi kerakli va yetarli terminlar mavjud bo`la oladi, deb hisoblashsa, boshqa bir guruh olimlarimiz esa, emotsiyaning borligi vaziyatga qarab bilinadi (masalan, ohang, so`zlovchining kayfiyati va boshqalar) degan fikr tarafdorlaridirlar.

To`g`ri, bizning ishimiz emotsionallikning ifodalanishini aniqlash, lekin har qanday emotsionallikni emas, balki aniq bir deytik vosita yordamida ifodalangan emotsionallik va uning qaysi vosita asosida berilishini aniqlashdir. Demak, birinchi keltirilgan fikr tarafdorlari bo`lgan tilshunoslarimiz fikrlariga qo`shilsak maqsadga muvofiq bo`ladi.

Emotsionallikni aniqlashdagi turli-tuman urinishlar natijasi o`laroq emotsional va ratsional tushunchalar birligi dialektikasining mavjudligi aniqlandi. S.L. Rubinshteyn birinchilardan bo`lib ikki jihatga ega bo`lgan emotsiyalar tabiatiga e`tibor qaratadi [48, 97]. Ayni paytda esa emotsional va

ratsional o`zaro ta`sirning o`rganilishi emotsiya va kognitsiya aloqadorligi darajasida ko`rib chiqiladi. Bir tomondan emotsiyalar kognitiv jihatdan kategoriyalashga qadar individ ongida mavjud bo`ladi. Bu nuqtai nazarda esa kognitiv strukturaga tayanmasdan holda emotsiyalarni o`rganish hisobga olinadi. Boshqa bir guruh olimlar nuqtai nazarcha emotsiyalar butunlay kognitiv va ijtimoiy jihatdan o`rganiladi.

Tilshunos va psixologlarning fikrlarini birlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, emotsiyalar kognitiv baho berishning natijasi sifatida bevosita u bilan bog`liqdir [70, 56].

Voqelikka baho berish hosilasi emotsionallik bilan xarakterlanar ekan, u xursandchilik, e`tiroz, hayratlanish, minnatdorchilik, afsus-nadomat, achinish, g`am-qayg`u, rashk, havas, xohish-istak kabilarni ifodalab kelishi mumkin. Ushbu tadqiqot ishida aniqlanishi lozim bo`lgan emotsionallik esa, ma`lum ti birliklari, ishora so`zlar va deyktik vositalar yordamida ifodalanishidir.

Demak, aniq ifodalovchi vosita yoramida berilgan emotsional deyksisni ingliz badiiy matnidan ketirilgan misollar yordamida tahlil qilib chiqamiz.

Mashhur ingliz yozuvchisi Oskar Vayldning *“The selfish Giant”* asarida emotsionallikning deyktik vosita yordamida ifodalanganligining guvohi bo`lamiz. *“How happy we are here”* [OWSG] gapida asardadagi maxluqning yo`qligidan foydalanib uning bog`ida o`ynab yurgan bolalarning o`yin uchun ajoyib joy topganliklari sababli juda baxtiyor ekanligi birgina *“HOW”* deyktik birligi vositasida ifodalanmoqda. *“How happy we are here”* gapida *“we”* olmoshi aniq bir bolalar guruhini, *“here”* ravishi bolalar o`ynayotgan joy bo`g`ni ifodalab kelayotgan bo`lsa, *“how”* birligi esa murakkab bir jarayon, bolalarning o`yin joyiga bo`lgan xohishi va mehri, ularning mamnunlik darajasi, voqelikka bo`lgan baholash me`yorini ifodalab kelmoqda. Keltirgan misolimizda, mamnunlik, qoniqqanlik va baxtiyorlik kabi hissiyotlarni ifodalovchi ijobiy emotsiya deyksisi aks topgan. Aynan ushbu asarda keltirilgan *“how”* birligi vositasida ifodalangan emotsional gaplarda *“how”* deyktik birligimizning umuman boshqa semantikaga ega bo`lganligining guvohi

bo`lamiz. Asardagi maxluq tilidan aytilgan, *“How selfish I have been!”* [OWSG]. gapida maxluqning oldingi qilgan qilmishlaridan pushaymonligi, tutgan yo`lining xatoligini tushunib yetganligi, endi esa afsus nadomatda ekanligi birgina *“how”* deyktik birligi vositasida ishora qilinmoqda. Demak ikkinchi gapimizda, *“how”* deyktik birligimiz zamirida pushaymonlik, afsus va tushunib yetganlik semalari mavjud ekan. Asarning keyingi qismlarida xuddi shu *“how”* birligi vositasida ifodalanib boshqa ma`noga ishorani ko`rishimiz mumkin: *“How I would like to see him!”* [OWSG] misolida esa maxluqning oldin ko`rgan jajji bolakayni ko`rishga bo`lgan xohishining kuchli ekanligi ifodalangan. Ko`rinib turibdiki, birgina *“how”* birligi vositasida baxtiyorlik (ijobiy holat), yovuz bo`lganlik (oldingi holatga pushaymonlik hissi) va xohish-istak ifodalanib turmoqda.

Emotsiya deyksisining ko`rsatkichlaridan biri bo`lgan baholash harakati illokutiv maqsad va perlokutiv vazifa umumlashmasidan iboratdir [62,185]. Yuqorida keltirilgan ikki holatlarda – *“How happy we are here”* va *“How selfish I have been”* gaplarida – so`zlovchilar o`z ichki kechinmalarida ayon bo`lgan tuyg`ularini baholayotib o`z hissiyotlarini ifodalaydilar. Bunda illokutiv maqsad, ya`ni nutq subyekting emotsional-hissiy holati namoyon bo`lmoqda. Perlokutiv vazifada esa tinglovchi—adresatga ta`sir o`tkazilishni taqozo etadi. Buni esa Shahriyer Safarovning Pragmalingvistika asarida keltirilgan misol asosida izohlash mumkin. *“I don't want to hear about that any more! Don't speak any more about that!”* ko`rinishdagi nutqiy harakat esa perlokutiv vazifani, ya`ni tinglovchini to`xtatishga qilayotgan harakatiga nuqta qo`yishiga undash maqsadini ko`zlaydi. *“How I would like to see him!”* gapida ham emotivlik yaqqol ko`zga tashlanadi. Ushbu gapda qo`llanilgan emotsiya deyksisidan esa so`zlovchining xohish-istagi kuchli ekanligi anglashiladi.

Shu o`rinda, Sh.Safarovning, emotsional baho berish vositasi bo`lgan gaplarning haqiqiy mazmunini matsiz aniqlanishi qiyin vazifa ekanligi eslatib o`tilsa maqsadga muvofiq bo`lardir. Binobarin, *“What a life that is!”* undovini intonatsiyaning o`zgarishi hamda qaysi vaziyatda qo`llanilishiga nisbatan

“*what*” deyktik birligining “*Qanday yaxshi hayot*” va “*Qanday yomon hayot*” muqobilligidagi gaplar sifatida tarjima qilishiniga asos bo`ladi.

Xuddi shuningdek, emotsional baho mazmunini ifodalash “yuki” maxsus grammatik tuzilmalar zimmasiga tushishi mumkin. Masalan, ingliz tilida bir tarkibli nominative tuzilmalar salbiy bahoni ifodalash imkoniyatiga ega: “*What an idea!*” – ushbu tuzilmalar tarkibida fe`l bo`lganda esa, ijobiy baho ifodalanadi: “*That is an idea*”.

Mashhur ingliz yozuvchisi S.Kishorning “*Appointment with love*” hikoyasidan keltirilgan misolga e`tiborimizni qaratamiz: “*In six minutes he would see the woman who had filled such a special place in his life for the past 13 months*”. Oldingi misollarimizda so`roq olmoshlari emotsional deyksisni ifodalovchi vosita bo`lib kelgan bo`lsa, endi ko`rsatish olmoshi “*such*” birligining sintagmatik qatorda aktuallashgan semantik ma`nosini ko`rib chiqamiz. Demak, “*such*” deyktik birligi yordamida harakat bajaruvchisi bo`lgan shaxs (keltirilgan misoldagi “*he*” birligi asosida ifodalanayotgan shaxs) hayotining mazmuniga aylangan va uning yuragidan maxsus o`rin olgan tuyg`u, ya`ni bir necha daqiqalardan so`ng ilk bora uchrashish arafasida bo`lgan va bu davr oralig`ida yigitning ko`nglidan qanday o`rin olganligi hissiyotini belgilashga xizmat qilmoqda.

Yuqorida keltirilgan misollarimizda, emotsionallikning ko`rsatish va so`roq olmoshlari deyktik birligi vositasida ifodalanishining guvohi bo`ldik. Navbatdagi misolda esa, bog`lovchi va ko`rsatish olmoshining birgalikda deyktik birikma bo`lib kelishini ko`ramiz: “*I can` t go on like this. I can` t bear it. I can` t bear it. I shall do away with myself. I can` t bear no more*”. Ushbu gapda “*like this*” birikmasi vositasida nutq subyekting o`z hayot tarzidan noroziligiga ishora qilinadi. Lekin birgina “*like this*” birikmasi ishtirok etgan gapning o`zidangina bunday xulosaga kelish qiyindir. So`zlovchining har hayot tarzidan noroziligi “*I can` t bear it*” birikmasi yordamida anglashilyapti. “*Like this*” birikmasi emotsionallikni, ya`ni so`zlovchining hayot tarzining ko`ngildagidek emasligiga ishora bo`lishi bilan bir qatorda “*I can` t bear*”

gapining takrorlanishi natijasida ma`no kuchaytirilib emotsionallikka alohida urg`u berilmoqda. Demak, boshqa deyktik birliklar singari emotsionallikni ifodalovchi deyktik birliklarning ifodalanuvchi tomoni kontekst ichidagina namoyon bo`ladi. Bunda esa so`zlovchining o`z qayg`usi, dard-alamiga ishora qilinadi.

Emotsiya deyksisining ko`rsatkichlaridan biri bo`lgan baholash harakati illokutiv maqsad va perlokutiv vazifa umumlashmasidan iborat [60, 45]. Illokutiv maqsad voqelanishida nutq subyektining emotsional-hissiy holati namoyon bo`lsa, tinglovchi – adresatga ta`sir o`tkazilishini taqozo etadi. Birinchi holatda so`zlovchi voqelikda kechayotgan hodisani baholayotib o`z hissiyoti, tuyg`usini ifodalaydi. Masalan, *“Boshqa bunday yashay olmayman! O`zimni o`ldirishga tayyorman!”* qabilidagi nutqiy harakatda so`zlovchi o`z qayg`usi, dard-alamini izhor qilmoqchi bo`lsa, *“Bu o`ta pastkashlik, munofiqlik! Sen bundan uzoq bo`lishing kerak!”* qabilidagi harakat perlokutiv vazifani, ya`ni tinglovchini o`z qilmishidan uyalishga afsusga undash maqsadini ko`zlaydi.

Endi esa o`zbek milliy badiiy asarlaridan olingan bir necha misollarda emotsionallik ifodalanganligi ko`rishimiz mumkin. O`tkir Hoshimov asaridan olingan ushbu misolga e`tibor qaratamiz: *“Obbo” karavatga yotgan bemor to`ng`illab, “har kuni shu ahvol”* [O`HDHB]. Ushbu gapimizda, *“Obbo”* undovimizning o`ziyoq so`zlovchining his`hayajonga berilganligini ifodalab kelmoqda. Shu bilan bir qatorda *“shu”* deyktik birligi so`zlovchiga oldindan ma`lum bo`lgan bemor ahvoli, uning yomonlashganiga ishora qilmoqda.

Xuddi shu asardan olingan *“On ovozini o`chsin. On Turg`unimni nega urushga olib ketding, juvonmarg. Olib kelib ber yolg`izimni”* [O`HDHB] gapimizda emotsionallik ohang hamda *“on”* birligining takrorlanishi vositasida ifodalangan. Bunda so`zlovchi o`z hissiyotini, o`g`lini sog`-salomat ko`rishga bo`lgan kuchli xohishini *“on”* birligi zamirida bo`lgan shaxsga bo`lgan nafratini emotsional deyksis vositasida ifodalamoqda.

*“Ishlar qalay?” dedi do`sti. – “Rasvo, bunday hayot meni adoyi tamom qildi”* [O`HDHB]. Ushbu gapimizda esa birdaniga *“rasvo”* hamda *“bunday”*

soʻzlari emotsionallikka ishora qiluvchi deyktik vosita sifatida xizmat qilmoqda. “Rasvo” soʻzi yordamida ishining joyida emasligi, koʻngildagidek emasligiga ishora qilinayotgan boʻlsa, “bunday” soʻzi hayot tarzining sifatiga, uning soʻzlovchi orzusidagi hayotga mutanosib ekanligi va undan noroziligiga ishora qilmoqda.

Said Ahmadning mashhur asaridan olingan ushbu misollarimizda emotsionallik leksik vosita va ritorik soʻroq gap asosida ifodalanmoqda: *Ota “Tursunboyga qarab miltiqni otdi. Tursunboy qochib ketdi. “Xayriyat tegmadi” – dedi ota*” [SAU]. *“Ikrom, diding chakki emas. Bu goʻzalni qayerga ilintirding?”* [SAU]. Keltirgan birinchi misolimizda birgina “*xayriyat*” leksik vositasi yordamida otaning his-hayajonga toʻla qalbi, oʻgʻliga boʻlgan ichki otalik mehrini ifodalamoqda. Ota barcha yigitlar jonini ham fido qilishgacha borib, vatanini dushmanlardan himoya qilib turgan bir paytda oʻgʻlining nomardlarcha urushdan, ota-onasidan va hatto oʻz-oʻzidan qochib yurgan qilmishlariga chiday olmay uni oʻz qoʻllari bilan otish darajasiga brogan bir paytda otalik mehrining sezilib turishi birgina “*xayriyat*” deyktik birligi vositasida ifodalangan.

Emotsionallikning feʼldagi shaxs-son qoʻshimchasini oʻzgartirish vositasida ifodalash mumkin: *“Qoʻyving, yongʻoq sizniki emas” – degan tillaringdan onang aylansin* [OʻHIEO]. Ushbu gapimizda soʻzlovchi grammatik jihatda toʻgʻri boʻlgan aylanay soʻzining oʻrniga “*aylansin*” deb ifodalangan deyktik vositadan foydalanadi. Bu esa soʻzlovchining adresatga boʻlgan ortiqcha mehrini ifodalaydi.

Ingliz va oʻzbek badiiy matnidani keltirilgan misollarni tahlil qilish asosida biz emotsionallikning nafaqat undov soʻzlar vositasida ifodalanishi, balki uning leksik vositalar, grammatik vositalar, badiiy tasvir vositalari, ohang va boshqa yoʻllar bilan ifodalanishi bilan xarakterlanishini koʻramiz.

Emotsionallik tilshunoslik sohasida pragmatik jarayon sifatida talqin qilinsada, uning oʻrganilishi keng qamrovli boʻlib, tilshunoslikda tashqari

psixologiya, kibernetika, meditsina va boshqa ko`plab sohalarning o`rganilish obyekti sifatida olinishi muqarrar.

### **3.2. Badiiy matnda emotsionallik va uning ifodalash vositalari**

Emotsionallik boshqa mavjudotlardan o`z ongi bilan farq qiluvchi inson zotiga xos xususiyatdir. Uning paydo bo`lishi psixologok ta`sirlar natijasiga bog`liq bo`lsada, ifodalanishi bevosita tilshunoslikka, til birliklariga tayanadi. Badiiy matn esa ifodalangan emotsionallikni aniqlashda bizga obyekt sifatida xizmat qiladi. Emotsionallik kishining ichki kechinmalari, uning voqelikdan ta`sirlanishini ifodalab kelar ekan u juda ko`b vositalar yordamida berilishi mumkin. Emotsionallikni ifodalash yo`llaridan keng qo`llanadigan vositalardan biri bu ohangdir. Ohangning odatdagi ko`rinishidan o`zgartirish vositasida ijobiy yoki salbiy emotsionallik ifodalanishi mumkin. Ohang vositasida so`zlovchi adresatga qo`rquv hissi, mehr, yaqinlik yoki samimiylik hissini uyg`otishi ehtimoli mavjud.

Ingliz tilida emotsionallikni ifodalashda maxsus til birliklari mavjud bo`lib ular undov so`zlar hisoblanadi. Undov so`zlar nafaqat ingliz tilida balki har qanday tilning emotsionallikni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiluvchi birliklari hisoblanadi. Undov so`zlar tilning paradigmatic qatorida turli xil variantlarta tayyor holatda tursada, sintagmatik qatorga ko`chishda vaziyatga muvofiq tarzda kechadi. Zero, emotsional holatlar yuz berganda kishi o`ylab o`tirmasdan uni ma`lum bir til birligi vositasida ifodalashga harakat qiladi. Shunday bo`lsada, tabiiy reflekslar yordamida ushbu undov so`zlardan o`rinli foydalaniladi. Jumladan, *Oh, Alas, Ah, Damn, Poor, Push, Well* kabilar o`z ma`nosiga ega bo`lgan emotsionallikni ifodalashda xizmat qiladi.

Pragmalingvistika bevosita matn lingvistikasi bilan bog`liqdir. Matn lingvistikasining o`rganilishi esa badiiy matnni obyekt sifatida olish vositasida amalga oshadi. Badiiy matnda mazmundorlikni oshirish va emotsionalikka alohida urg`u berish maqsadida badiiy tasvir vositalaridan foydalaniladi. Bular metafora, motonimiya, o`xshatish, epitet va boshqalarning badiiy mazmundorlikni oshirish maqsadida ishlatilishida yaqqol ko`zga tashlanadi.

Masalan, “*She liked her in her bones*” gapida oddiy metafora yordamida onaning qiziga boʻlgan his-tuygʻusining chechsizligi ifodalangan.

Shuningdek, emotsionallik sifat darajalari yordamida ham ifodalanishi mumkin. Maʼlumki, sifat darajalari aniq bir meʼyorga asoslanib namunadagi sifatga nisbatan yuqorilik yoki past darajalikni bildirish barobarida emotsionallikni ifodalaydi.

Yuqoridagilardan tashqari, emotsionallik matn ichida maʼlum bir holatga ishora sifatida olmosh, ravish kabi deyktik vositalar (*so, such, what, how*) yordamida ham ifodalanishi mumkin. Misol sifatida “*What a wonderful life!*” gapini keltirish mumkin.

Emotsional deyksis shaxsning (aniqrogʻi – lisoniy shaxsning) voqelik bilan munosabati natijasidir va uning ifoda vositasi til qurilishining turli sathlariga oid lisoniy birliklardir. Dastlab unutmaslik kerakki, emotivlik har qanday nutqiy harakat mundarijasiga xosdir, zero, soʻzlovchi kechayotgan voqea-hodisa idrokida betaraf boʻlib qola olmaydi hamda nutqiy bayonida, axborot uzatishda oʻz hissiyotini izhor etishga majburdir. Ammo hissiyot darajasi har xil, uning miqdori tinglovchiga (oʻquvchiga) qaysi darajada taʼsir oʻtkazish va qanday faoliyatga undash maqsadi bilan belgilanadi. Lisoniy faoliyatda emotsionallik va ratsionallik (mulohazakorlik) munosabati nisbatini qarlash talab qilinadi. Emotsionallikning nutqiy faoliyatda turli koʻrinish va darajalarda ifodalanishi his-tuygʻuni izhor etish maqsadi, modallik mazmuni, tonallik (ohangdoshlik) kabi nutqiy birliklar mazmun doirasini shakllantiruvchi hodisalar ishtirokida hosil boʻladi. Emotsionallikning nutqiy faoliyatda aks etishi muammolari bilan koʻp yillardan beri shugʻullanib kelayotgan tilshunos-olimlardan biri V.I.Shaxovskiyning qayd etishicha, turli soʻzlovchilar qoʻllaydigan emotive nutqiy tuzilmalarning mazmun va ifoda doiralariga oid xususiyatlari muloqotdoshlarning emotsionallik ifodasiga boʻlgan ehtiyoji, maqsadi bilan bogʻliq. Bu ehtiyoj esa soʻzlovchi shaxslarning voqelikka munosabati, uni idrok etish maqsadi bilan belgilanadi. Aynan shu maqsadning lisoniy aks topishi emotsional deyksisning voqelanishidir [70, 45].

Zamonaviy tilshunoslikda deysis hodisasi keng ma`noda talqin qilinib, uning nutqiy faoliyatning barcha turlariga oidligi e`tirof etilmoqda. Deytik mazmun kommunikativ harakatning “zamon-makon-ijtimoiy tuguni qo`shimchasi” [53, 88] sifatida hosil bo`ladi hamda turli shakl, ko`rinishda namoyon bo`lish imkoniyatiga ega. His tuyg`uning nutqiy faoliyat kechishidagi ta`siri emotsiya eyksisining turli ko`rinishlarini namoyon qiladi. V.I.Shaxovskiy va uning shogirdlarining fikricha, emotsional nutqiy faoliyatning kechishi to`rt asosiy xususiyatning o`zaro munosabati natijasidir. Bunday ko`rsatkichlar quyidagilardir: 1) so`zlovchining emotiv maqsadi (intentsiyasi); 2) uning hissiyotining modalligi; 3) emotsionallik darajasi; 4) emotsiyaning yo`naltirilishi, ya`ni mo`ljali [70, 47].

Y.M.Volf emotsional nutqiy birliklarning ikki xil intentsiyaga (maqsadga) ega bo`lishini ta`kidlamoqchi bo`lgan edi. Birinchi turida tinglovchida ma`lum bir his-tuyg`u tug`dirish maqsadi ko`zlansa, ikkinchisida esa so`zlovchi o`z hissiyotlarini ma`lum qilishga harakat qiladi [48, 166]. Biroq bu ikki turdagi maqsadni bir-biridan ajratish qiyin, har ikkala holatda ham kommunikativ vazifa bir xilda namoyon bo`ladi va nutqiy harakatdan kutiladigan samara ham yagonadir. Chunki har qanday holatda ham nutq subyekti bayon qilinayotgan hodisa va nutq vaziyatiga emotsional baho beradi hamda tinglovchining hatti-harakatiga ta`sir o`tkazadi.

Baholash harakatining yuzaga kelishida besh unurning mavjudligi majburiydir, bular, subyekt, obyekt, asos, etalon (namuna) va baholash belgisi. Baholash dastlabki o`rinda subyekt-obyekt munosabatida, ya`ni subyekt tomonidan obyektning muhimligi, e`tiborga molikligi, miqdor va sifat jihatidan ajralib turishini aniqlash jarayonida hosil bo`ladi. Ushbu jarayonda subyekt obyektning baholanayotgan xususiyatini ideal namuna yoki me`yorga qiyoslaydi hamda ushbu me`yorga qay darajada mos kelishi yoki uzoqlashishiga nisbatan beriladi. Nihoyat, barcha “o`lchov”lar bosqichidan o`tgan baho lisoniy belgi vositasida voqelanadi. Bahoning yuzaga kelishi va baholash harakatining faollashuvi uchun mantiqiy asos talab qilinadi. Bunday asossiz aqliy va lisoniy

faoliyat besamar, hatto nojo`ya tus olishini bilamiz. Asossiz qiyos va bahoga hojat yo`q. Baholash harakatining mantiqiy asosida emotsiya intentsiyasi yotadi.

### **III BOB BO`YICHA XULOSA**

Ingliz va o`zbek badiiy matnidan keltirilgan misollar asosida emotsional deyxsisning ikki til vositasida ifodalanishi, ularning farqli va mushtarak jihatlarini aniqlab quyidagi xulosaga kelamiz.

Birinchi navbatda shuni ta`kidlab o`tish joizki, emotsionallikka ishora qilishni deyxsisning alohida bir qismi, turi sifatida ko`rsatish lozim. Buning boisi shundaki, inson nutq faoliyati jarayonida o`z his-tuyg`ularini ifodalaydi, har qanday bo`lib o`tgan voqelikka bo`lgan shaxsiy munosabatini bildiradi va ularni ma`lum til birligi (deyktik birlik) vositasida bayon qiladi. Zero, voqelikni baholash, unga shaxsiy baho berish boshqa mavjudotlardan farqli o`laroq inson zotiga xos bo`lgan xususiyatdir.

Badiiy matn ichida emotsionallikka ishora qiladigan so`zlar, emotsional deyxsisni aniqlash boshqa deyxsis turlaridan tubdan farq qiladi. Buning boisi shundaki, zamon, makon, shaxs, sotsial va hattoki diskurs deyxsis aniq bir konkret otga ishora qiladi. Masalan, joyning nomi aniq bo`ladi (Samarqand, maktabda, suv bo`yida va hokazo), shuningdek, aniq bir payt, vaqt nomi, ma`lum shaxs nomi berilgan bo`ladi va unga anaforik tarzda ishora qilinadi. Emotsional deyxsisga keladigan bo`lsak, u mavhum til birligiga ishora qilmaydi. Zero, biz afsuslanish hissini "afsus" so`zining o`zini keltirish bilangina tasvirlay olmaymiz. Aks holda undagi ta`sirchanlik hissidan mahrum bo`lamiz. Ana shu "afsuslanish"ga o`xshash emotsional hislarni til birligi vositasida adresatga yetkazish vazifasi deyktik vositalar, yanada aniqrog`i emotsional deyxsis zimmasidadir.

Har ikki tilda emotsionallikning ifodalanishi ma`lum bir til birligiga asoslangan bo`ladi. Ba`zi hollarda esa ifodalovchi til belgisiga ega bo`lmagan vositalar yordamida ham emotsionallik ifodalanishi mumkin. Bular esa ohang, badiiy tasvir vositalari, grammatik shakllar vositasida emotsionallikning ifodalanishidir.

Qiyoslanayotgan tillarda emotsionallikni ifodalashda so`roq olmoshlari, ko`rsatish olmoshlari, ohang, grammatik shakllar (masalan, sifat darajalari yordamida, shaxs-son qo`shimchasining o`zgarishi asosida va boshqalar) va shuningdek badiiy tasvir vositalaridan foydalanildi. Shu bilan birga aniqlandiki so`roq olmoshlari vositasida voqelikni baholash ham salbiy ham ijobiy bo`yoqdorlikka asoslangan, lekin ko`rsatish olmoshlari vositasida ifodalangan deytik birliklar zahirida esa ko`proq salbiy bo`yoqdorlik joy olgan bo`ladi.

## XULOSA

Deyksis tushunchasi qadimgi antik davrlardan ma`lum bo`lganligi va uning fanga alohida bir soha sifatida kiritilishi borasida ishning kirish qismida to`xtalib o`tilgan edi. Albatta, tilshunoslik sohasidagi ilmiy asarlardan ham bizga ma`lumki, deyksis hodisasi keng ko`lamda o`rganilgan. Ammo deyarli hozirga qadar deyksis turlari sifatida faqatgina zamon, makon va shaxs deyksislari o`rganildi. Vaholanki, til tizimidagi voqelikni bayon qilishga xizmat qiladigan til birliklari zamon, makon va shaxsni ifodalash bilan cheklanib qolmaydi. Zamonaviy tilshunoslikda olib borilgan tadqiqot ishlarining natijasi o`laroq deyksisning sotsial, diskurs va emotsional turlarining alohida o`rganilishi dolzarb mavzularga aylandi. Jumladan, emotsional deyksisning tadqiqot ishi sifatida o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot ishida emotsionallik deyksisi va uning badiiy matnda ifodalanishiga bag`ishlangan bo`lib, birinchi navbatda, deyksis hodisasi va uning tadqiqot obyekti tilshunos olimlarimizning fikr-mulohazalariga asoslangan holda yuqorida ko`rib chiqildi. Ana shu qarashlarga muvofiq tarzda deyksisning ahamiyati, uning til tizimida tutgan o`rni va turlari borasida bir necha umumlashgan fikrlarga ega bo`lishimiz mumkin.

Deyksislar boshqa til birliklari singari ifodalovchi va ifodalanuvchi jihatlarga ega. Faqatgina ularning semantik ma`nosi paradigmatic qatorda turgan paytda nisbatan mavhumroq bo`ladi. Deyktik birliklar sintagmatik qatorga o`tgandan so`ng, albatta, ularning ifodalanuvchi, ya`ni ma`no jihati yaqqol ko`zga tashlanadi. Zero, tilimizdagi barcha birliklar nutq faoliyatida aktuallashtirish vazifasini o`taydi.

Deyktik birliklar hozirgi zamon tilshunosligining asosiy tadqiqot obyektlaridan hisoblangan makrolingvistik mahsul bo`lib, katta sintaksis birliklarining bo`glovchilari hisoblanadi.

Deyksislar pragmalingvistik mahsul bo`lsada, boshqa til sathlari bilan bog`liq ravishda ish tutadi. Chunki deyktik birliklarni o`rganish jarayonida biz

ularning morfologik xususiyatlari, sintaktik sathdagi tutdan o`rni, hatto semantik maydoniga e`tibor qaratgan holda ko`rib chiqamiz.

Deyktik birliklar shaxs, zamon va makonni ko`rsatish bilan bir qatorda aytilgan fikrga yoki aytiladigan fikrga munosabatga ishora (diskurs deyxisi), voqelikni baholashga bo`lgan munosabatga ishora (emotsional deyxis) va ijtimoiylikka bo`lgan ishora (sotsial deyxis)ni ifodalab kelishi mumkin.

Emotsionallikka bo`lgan ishorani tahlil qilishdan oldin emotsionallik va uning qaysi soha tadqiqot obyekti sifatida o`rganilishi muammoli masalardan biridek tuyuladi. Albatta, emotsionallik va uning o`rganilishi birgina psixologiya sohasi, yoki aksincha, faqatgina tilshunoslik bilan cheklanib qolgan holda o`rganib bo`lmaydi, aniq bir xulosaga kelish ham mushkildir.

Emotsionallik atamasi birinchi eshitishdayoq uning psixologiyaning obyekti ekanligi kishi ongida gavdalanadi. Ammo u psixologiyaning obyekti bo`lsada boshqa sohalar bilan hamkorlikda ish tutadi. Zero, har bir shaxsning emotsional holati til vositasida, til birliklari yordamida ifodalanadi va adresatga ma`lum qilinadi. Demak, emotsionallikning ifodalanishi, uning turli yo`llar yordamida ma`lum qilinishi lingvistikaning galdagi vazifasi hisoblanadi.

Emotsionallik bevosita kishining voqelikni baholash natijasi hisoblanadi. Voqelikka baho berishda esa besh unsurning mavjudligi nazarda tutiladi. Bular subyekt, obyekt, etalon, me`yor va baholash hisoblanadi. Ma`lum bir voqelikni baholashdan oldin kishi engida etalon, ya`ni namunadagi me`yordagi voqelik singib ketgan bo`ladi. Ana shu me`yorning o`zgarishi natijasida shaxsda ijobiy yoki salbiy emotsional holat yuzaga keladi.

Emotsionallik kishining ruhiy holati, ruhiy ta`sirchanligi bilan bog`liq bo`lganligi sababli paradigmatic qatordan sintagmatic qatorga ko`chish jarayoni nisbatan "tartibsiz", vaziyatga muvofiq tarzda amalga oshadi. Shuning uchun, emotsionallikning ifodalanishi undov so`zlarning ishlatilishi, sifat darajalari yordamida, badiiy tasvir vositalari, ohang, shuningdek, emotsional holatlarga ishora qiluvchi deyktik vositalar yordamida ifodalanishi mumkin.

Yuqorida emotsionallikni ifodalashning turli vositalar yordamida berilishi keltirib o`tildi. Olib borayotgan tadqiqot ishimiz deysis borasida bo`lganligi sababli bizning vazifamiz emotsionallikka ishora qiluvchi so`zlar, birikmalar, ya`ni deyktik birliklarni aniqlashdan iborat edi. Ma`lumki, deyktik birliklar nutqiy faoliyat jarayonidagi, matn tarkibidagi nomi keltirib o`tilgan makon, zamon, shaxs, abzatsga ishora qilib kelishi mumkin. Shular bilan bir qatorda emotsional holatga ishora qilish vazifasini ado etish esa emotsional deysis zimmasidadir.

Birinchi navbatda shuni ta`kidlab o`tish joizki, emotsionallikka ishora qilishni deysisning alohida bir qismi, turi sifatida ko`rsatish lozim. Buning boisi shundaki, inson nutq faoliyati jarayonida o`z his-tuyg`ularini ifodalaydi, har qanday bo`lib o`tgan voqelikka bo`lgan shaxsiy munosabatini bildiradi va ularni ma`lum til birligi (deyktik birlik) vositasida bayon qiladi. Zero, voqelikni baholash, unga shaxsiy baho berish boshqa mavjudotlardan farqli o`laroq inson zotiga xos bo`lgan xususiyatdir.

Badiiy matn ichida emotsionallikka ishora qiladigan so`zlar, emotsional deysisni aniqlash boshqa deysis turlaridan tubdan farq qiladi. Buning boisi shundaki, zamon, makon, shaxs, sotsial va hattoki diskurs deysisi aniq bir konkret otga ishora qiladi. Masalan, joyning nomi aniq bo`ladi (Samarqand, maktabda, suv bo`yida va hokazo), shuningdek, aniq bir payt, vaqt nomi, ma`lum shaxs nomi berilgan bo`ladi va unga anaforik tarzda ishora qilinadi. Emotsional deysisga keladigan bo`lsak, u mavhum til birligiga ishora qilmaydi. Zero, biz afsuslanish hissini “afsus” so`zining o`zini keltirish bilangina tasvirlay olmaymiz. Aks holda undagi ta`sirchanlik hissidan mahrum bo`lamiz. Ana shu “afsuslanish”ga o`xshash emotsional hislarni til birligi vositasida adresatga yetkazish vazifasi deyktik vositalar, yanada aniqrog`i emotsional deysis zimmasidadir.

Har ikki tilda emotsionallikning ifodalanishi ma`lum bir til birligiga asoslangan bo`ladi. Ba`zi hollarda esa ifodalovchi til belgisiga ega bo`lmagan vositalar yordamida ham emotsionallik ifodalanishi mumkin. Bular esa ohang,

badiiy tasvir vositalari, grammatik shakllar vositasida emotsionallikning ifodalanishidir.

Qiyoslanayotgan tillarda emotsionallikni ifodalashda so`roq olmoshlari, ko`rsatish olmoshlari, ohang, grammatik shakllar (masalan, sifat darajalari yordamida) va shuningdek badiiy tasvir vositalaridan foydalanildi. Shu bilan birga aniqlandiki so`roq olmoshlari vositasida voqelikni baholash ham salbiy ham ijobiy bo`yoqdorlikka asoslangan, lekin ko`rsatish olmoshlari vositasida ifodalangan deytik birliklar zamirida esa ko`proq salbiy bo`yoqdorlik joy olgan bo`ladi.

Deyksisning barcha turlariga qiyosan olgan holda emotsional deyksisni tahlil qiladigan bo`lsak, uning turli vositalar yordamida berilishi bilan xarakterlanishi aniqlandi. Demak, emotsionallik quyidagi vositalar asosida berilishi mumkin.:

- 1) Ohang vositasida: so`zlovchi voqelikka bo`lgan munosabatini, uni baholashni nutq ohangni o`zgartirish vositasida ta`sirlanganlik darajasini berishi mumkin.
- 2) Badiiy tasvir vositalari yordamida: emotsional deyksini badiiy matn ichida ko`rib chiqqan holda, uning asosiy qismi metafora, metonimiya, takror so`z va iboralar, epitet, o`xshatish va hokazolar.
- 3) Grammatik vositalar asosida: voqelikni baholash jarayonida so`zlovchi unga bo`lgan munosabatini sifat darajalaridan foydalangan holda berishi ham mumkin. Zero, sifat darajalari yordamida ma`lum bir belgining namunadagi me`yoridan oshishi yoki past darajada bo`lishi belgilanadi. Ayni paytda, emotsionallik ham so`zlovchining namunadagi me`yorning o`zgarishi natijasidagi ta`sirlanish holati hisoblanadi. Shuningdek, fe`ldagi shaxs-son qoshimchasining boshqa shaxsga ko`chishi ham emotsionallikni ifodalab, ortiqcha mehr yoki kinoya ma`nolarini beruvchi holatlarda qo`llanilishi mumkin.
- 4) Leksik vositalar asosida: emotsionalikka ishora qilishning yana bir yo`li deyksisning boshqa turlariga o`xshab aniq bir leksik birlik vositasidir.

Bunga o`zbek tilida *qanday, naqadar, shunday, bunday* ingliz tilida *such, how, what* va boshqa so`zlarning keltirish bilan emotsionalikka ishora qiluvchi sozlar misol bo`la oladi.

Umuman olganda, Akademik V.V.Vinogradov til eng muhim uch xil ijtimoiy vazifa – aloqa, xabar, ta`sir etish uchun foydalanilishini aytib o`tadi. [47, 8]. Tilning ta`sir etish vazifasi esa so`zlovchining borliqni, voqelikni baholash jarayoni bilan bog`liqdir. Yuqorida bir necha marotaba ta`kidlanganidek, emotsionallik til birligi vositasida ifodalanishi mushkil jarayon hisoblanadi. Shunday ekan u mavhum til birliklariga tayanadi. Demak, badiiy matnda emotsionallikni ifodalash yo`llari, his-hayajonga ishora qiluvchi deyktik birliklarni o`rganish badiiy matnning mazmunini anglashga ko`mak berishi bilan bir qatorda tilshunoslikka ham o`z hissasini qo`shmasdan qolmaydi.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov.I.A. Istiqbol poydevori. – Toshkent: Ma`naviyat nashriyoti, 2011. – 317b.
2. Karimov.I.A. “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida” gi qaror. 2012, 10-dekabr.
3. Алпатов В.М. Система личных местоимений 1-го и 2-го лица в современном японском языке. Теория и типология местоимений. – М.: Наука, 1980. – 278с.
4. Алпатов В.М. Япония: Язык и общество. – М.: Муравей, 2003. – 208 с.
5. Апресян Ю. Д. Дейксис в лексике и грамматике и наивная картина мира. Семиотика и информатика. – М., 1986. Вып. 28. – 364с.
6. Аристотель. Сочинения. – М.: Мысль, Т.1, 1976;Т.2, 1978. – 198с.
7. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – 341с.
8. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974. – 447с.
9. Бозоров О.О. Узбек тилида гапнинг коммуникатив (актуал) тузилиши. Номзодлик диссертацияси автореферати. – Фаргона, 2004. – 21б.
- 10.Бондарко А.В. Временная локализованность. В кн.: Теория функциональной грамматики. – Л.: Наука, 1987. –С. 210-233.
- 11.Борботько В.Г. Принципы формирования дискурса. От психолингвистике к лингвосинергетике. – М.: Ком Книга, 2007. – 288с.
- 12.Бурлакова В.В. Дейктические категории в тексте. Предложение и текст: семантика, прагматика и синтаксис. – Л.: Изв-во ЛГУ, 1988. – С. 85-88.
- 13.Витгенштейн Л. Философские работы. – М., 1994., ч.1. – С. 43.

14. Вольф Е.М. Варьирование и оценочных структурах. В кн.: Семантическая и формальное варьирование. – М.: Наука, 1980. – С. 273-294.
15. Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. М.: Наука, 1985.– 279с.
16. Гумбольд фон В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 397с.
17. Дейк Т.А. ван, Кинч В. Стратегии понимания связного текста. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 23. Когнитивные аспекты языка. – М.: Прогресс, 1988. – С.153-211.
18. Зарецкая Е.Н. Риторика. Теория и практика речевой коммуникации. – М.: Дело, 1988. – 408с.
19. Кравченко А.В. Вопросы теории указательности. Эгоцентричность. – Иркутск, 1992, – 236с.
20. Кошмидер Э. Очерк науки о видах польского глагола: Опыт синтеза. В кн.: Вопросы глагольного вида. – М.: Наука, 1962. – С. 105-167.
21. Крылов С. А. К типологии дейктических систем, в сб.: Лингвистические исследования, ч. 1. – М., 1984. – 156с.
22. Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику, пер. с англ. – М., 1978, – 217с.
23. Ноуэлл Смит П.Х. Логика прилагательных. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс 1985. – С. 155-182.
24. Падучева Е. В., Крылов С. А. Дейксис: общетеоретич. и прагматич. Аспекты. Языковая деятельность в аспекте лингвистической прагматики. – М., 1984, – 203с.
25. Падучева Е. В. Высказывание и его соотнесённость с действительностью. – М., 1985, – 188с.

26. Пиотровская Л.А. Лингвистическая природа эмотивных высказываний ( на материале русского и чешского языков). Автореф. дисс....докт.филол.наук, СПб., 1995. – 43с.
27. Почепцов Г.Г. Слушатель и его роль в актах речевого общения. В кн.: Языковое общение. Единицы и регулятивы. – Калинин: Изд-во КГУ, 1987. – С. 26-37.
28. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2008. – 285б.
29. Степанов Ю.С. В трёхмерном пространстве языка. Семиотические проблемы лингвистики, филологии, искусства М.: Наука, 1985, – С. 18.
30. Степанов Ю.С. альтернативный мир, дискурс, факт и принципы причинности. Язык и наука конца XX века – М., 1995. – С. 35-73.
31. Стивенсон Ч. Некоторые прагматические аспекты значения. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16, Лингвистическая прагматика. М.: Прогресс, 1985. – С. 129-154.
32. Телия В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковые картины мира. Роль человеческого факторе в языке: Язык и картина мира. М.: Наука, 1988. – С. 173-204.
33. Уорф Б.Л. Отношение норм поведения и мышления к языку. В кн.: В.А.Звегинцев. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. –М.: Учпедгиз, 1960. – С. 198-224.
34. Уфимцева А.А. Типы словесных знаков. – М.: Наука, 1977. – 206с.
35. Хэар Р.М. Дескрипция и оценка. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16, Лингвистическая прагматика. – Москва: Прогресс, 1985. – С. 183-195.
36. Шаховский В.И., Жура В.В. Дейксис в сфере эмоциональной речевой деятельности. Вопросы языкознания. 2002. – С. 38-56.
37. Шведова Н.Ю. Местоимения и смысл. Класс русских местоимений и открываемые ими смысловые пространства. – Москва, 1998. – 152с.

- 38.Шведова Н.Ю., Белоусова А.С. Система местоимений как исход смыслового строения и его смысловых категорий. Москва, 1995, – 196с.
- 39.Якобсон Р. О. Шифтеры, глагольные категории и русский глагол. Принципы типологич. анализа языков разл. строя. – Москва, 1972. – 205с.
- 40.Яковлева Е.С. О связи дейксиса и модальности. В кн.: Противоречивость и аномальность текста. – Москва: Наука, 1990. – С. 235-246.
- 41.Allwood J.A. A critical look at speech act theory. In: Logic, Pragmatics and Grammar. – Lund, 1977 – 293p.
- 42.Bar-Hillel Y. Indexical expressions. In: Bar-Hillel Y. Aspects of Language. – Amsterdam: North Holland, 1970. – P. 69-89.
- 43.Bar-Hillel Y. Indexical expressions. In: Aspects of Language. – Jerusalem: The Magness Press, 1970. – 359p.
- 44.Bierwish M., Zimmermann I., Lang E. Dimensions-adjective: Semantische Structure und begriffliche Interpretation. Zeitschrift fur Fonetik, Sprachwissenschaft und Kommunikativen Forschungen, 1984, – P. 8.
- 45.Bolinger D. Degree words. – The Hague: Paris, 1972. – 248p.
- 46.Bühler K., Sprachtheorie. – Jena, 1984 – P. 34.
- 47.Clark H., Carlson T. Hearers and speech acts. – Language, 1974. – P. 332-373.
- 48.Emmott C. Embodied in a constructed world. Narrative processing, knowledge representation, and indirect anaphora. In: Discourse Studies in Cognitive Linguistics. – Amsterdam-Philadelphia: John Benjamin`s publishing company, 1999. – P. 5-28.
- 49.Fauconnier G. Mental Spaces. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 453p.

- 50.Fillmore Ch. How to know whether you're COMING or GOING?  
In:Essays on deixis. – Tübingen, 1983, -- 214p.
- 51.Fillmore Ch. Santa Cruz Lectures on Deixis. – Indiana: University  
Linguistic Club, 1975. – 201p.
- 52.Here and there: Cross-linguistic studies on deixis and demonstration. –  
Amsterdam, 1982. – 285p.
- 53.Ide S. Japanese Sociolinguistics. Politeness and Women`s Language. –  
Lingua, vol. 57, No.2-4. 1982. – P. 18-19.
- 54.Kaplan D. An Essay on the Semantics, Logic, Metaphysics and  
Epistemology of Demonstratives and other Indexicals. In: Themes from  
Kaplan. – New York: Oxford University Press, 1989. – P. 87.
- 55.Kintsch W Approaches to the Psychology of Language. In: Talking minds:  
The study of Language in Cognitive Sciences. – Cambridge MIT Press.  
1984. – P. 145.
- 56.Kovecsess Z., Guhter R. Metonymy: Developing a Cognitive Linguistic  
View. Cognitive Linguistics, 1998, vol. 9, No.1. – P. 37-77.
- 57.Kuryłowicz J., Universaux linguistiques // Proceedings of the XI  
International congress of linguists. – Bologna, 1974. P. 32.
- 58.Lakoff R. Remarks on THIS and THAT. In: Papers from the tenth  
regional meeting of Chicago linguistic society. – Chicago, 1974. – 467p.
- 59.Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press,  
1984. – 419 p.
- 60.Levinson S.C. Presumptive meaning: The theory of Generalized  
Conversational Implicature. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 2000. –  
347p.
- 61.Lyonz J. Deixis as the source of reference // Formal semantics of natural  
language: Papers from a Colloquium sponsored by King`s college  
research centre, Cambridge. – Cambridge Univ. Press, 1975. – P. 61-83.

62. Lyons J. Semantics, vol.1 and 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897p.
63. Peytrad J. Evaluation sociale dans les theses de Mikhail Bakhtine et representations de la langue. Langue Françoise, fevrier 1990.№85. – P. 6-21.
64. Rauch G. Tenses as Deictic Categories. In: Essays on Deixis. – Tubingen, 1983. – P.32.
65. Russel B. Human Knowledge. – London: George Allen and Unwin Ltd., 1948, – 562p.
66. Safarov Sh. S. Pragmalingvistika – Toshkent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B.183.
67. Sapir E. Grading, a study in semantics. Philosophy of Science, vol.11, 1994, No.2. – P. 93-116.
68. Senn Holz K., Grundzüge der Deixis, Bochum, 1985. – 435p.
69. Smith Q. The multiple uses of in indexical. In: Synthesis, vol. 78, 1989, – P. 182-201.
70. Vakhidova N. Lexikalische – semantische Graduonymie im Deutschen. Gesellschaft für linguistische Daten Verarbeitung – 2007. Workshop Lexical – Semantic and Ontological Resources. 336 – 3/2007. – 119-128s.
71. Wettstein H.K. How to bridge the Gap between Meaning and Reference. In: Pragmatics. A Reader. Davies S.(ed.). Oxford: Oxford University Press, 1991. – P. 69-90.
72. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138p.

### INTERNET MANBALARI

1. [www.google.com.Introduction to General Linguistics / PRAGMATICS intro2gl.pbworks.com/w/.../PRAGMATICS](http://www.google.com.Introduction%20to%20General%20Linguistics%20/%20PRAGMATICS%20intro2gl.pbworks.com/w/.../PRAGMATICS).
2. [www.google.com](http://www.google.com). Kamelia-resort.ru.
3. [www.yandex.ru](http://www.yandex.ru). Гуманитарный словарь.
4. [www.google.com](http://www.google.com). Лингвистический энциклопедический словарь.

## **BADIIY ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. HOSROS – Henry O. The Skylight Room and Other Stories. – Moscow, 1972, – 164p.
2. OWSG – Oscar Wilde. The Selfish Giant. – P. 169-172.
3. SRLTI – Stevenson R.L. Treasure Ireland. – Moscow, 1976, – 274p.
4. MYOOR – Matluba Y.O. Oq Ro`mol. – Toshkent, 2012, – 207b.
5. O`HD – O`tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent, 2012, – 334b.
6. O`HI – O`tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent, 2012, – 625b.
7. SAU – Said Ahmad. Ufq. – Toshkent, – 632b.
8. K.A.L. – Kishor S.T. Appointment with Love. – P. 5-6.